



OSIYO XALQARO
UNIVERSITETI



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

EDITION 11

2025, №11

ISSN

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

<https://scientificjournal.uz/>



**Osiyo Xalqaro
Universiteti**

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 11-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO – 2025



Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.



Bosh muharrir:

Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Jamoatchilik kengashi raisi:

Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

Mas'ul kotib:

Sattorov Mirshod Erkinovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz
tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi,

Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy,

E-mail: sjkamolot@gmail.com

Jurnal sayti: <https://scientificjournal.uz/>



ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p

1936



Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.



MUNDARIJA

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- | | | |
|---|---|---|
| 1 | Baxshullayeva Gulruh Vaxobiddin qizi.
T-37MB3 KOLLEKTORIDA UCHRAYDIGAN BALIQ TURLARINI
ANIQLASH | 6 |
|---|---|---|

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

- | | | |
|---|---|----|
| 2 | Bafoyeva Nilufar Salim qizi
BADIY TARJIMANING QIYINCHILIKLARI VA TARJIMA
STRATEGIYALARI. | 12 |
| 3 | Bafoyeva Roxila Valijon qizi
POSTMODERN NASRDA DEKONSTRUKTIV STRATEGIYALAR: JON
FOULZ, MARTIN AMIS VA TOMAS PINCHON ASARLARIDA
INTERTEKSTUALLIK, PARODIYA VA PASTISH. | 21 |
| 4 | Tursunova Marxabo Raxmonovna
JOJO MOYES ROMANLARIDA ROMANTIKA VA PSIXOLOGIK DRAMA
UYG‘UNLIGINI ESTETIK KONSEPSIYALAR VA IJTIMOY
QATLAMLARINING O‘ZARO KESISHMASIDA NAMOYON BO‘LISHI. | 29 |
| 5 | Xakimova Nargiza Xayrilloyevna
UNDERSTANDING ARTHURIAN LEGENDS AND CENTRAL ASIAN EPICS
THROUGH COMPARATIVE ANALYSIS | 36 |

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

- | | | |
|----|--|----|
| 6 | Jumayeva Shoista Boltayevna.
TIBBIY BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN
FOYDALANISH | 41 |
| 7 | Nazarova Firuza Ilxomovana.
O‘QUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TIBBIYOT
OLIYGOHLARIDA “TIBBIY BIOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA
“SKANVORD VA RAQAMLI TEXNOLOGIYA METODI” METODIDAN
FOYDALANISH (Hujayra biologiyasi misolida) | 46 |
| 8 | Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna., Jo‘ramurotova Sarvinoz Otabekovna
TA‘LIM JARAYONINI TRANSFORMATSIYASIDA - VIRTUAL TA‘LIM
TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI | 53 |
| 9 | Husanov Zafar Jo‘raqulovich.
INNOVATSION YONDASHUVLAR ORQALI FIZIKA FANIDAN
MASOFAVIY TA‘LIMNI TASHKIL ETISHDA VIRTUAL
LABORATORIYALARNING AHAMIYATI | 59 |
| 10 | Xuramova Farangiz Uchqun qizi.
BO‘LAJAK MUHANDISLARDA INNOVATSION FIKRLASH VA
TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MOBIL
TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI | 67 |
| 11 | Eshonqulov Sherzod Ummatovich.
LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH (PROJECT-BASED LEARNING) ORQALI
MUHANDISLIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH | 73 |
| 12 | Xudoyeva Hulkar Qandiyorovna
FIZIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHDA DASTURIY
TA‘MINOTLAR VA ULARNING FIZIKANI O‘QITISHDAGI AHAMIYATI | 78 |
| 13 | Xalilova Shaxlo Ravshanovna., Yuldasheva Marjona Muxammad qizi | |

	MILLIY UYG'ONISHDAN INTELLEKTUAL RENESSANS GACHA: JADIDLAR ORZUSI VA ZAMONAVIY INSON KAPITALI KONSEPSIYASI	83
14	Feruz Sayidov DETERMINING THE MANAGEMENT AND EFFECTIVENESS OF JUDO TRAINING ORGANIZED FOR YOUTH	95
15	Ahmadvondamir Shodmon o'g'li FUTBOLCHILARNING TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARI VA VOSITALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI	100
16	Kurbonov Hakim Khaidarkulovich PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF VOLLEYBALL PLAYERS: KEY FACTORS INFLUENCING SUCCESS IN SPORTS	107
17	Ahmadvondamir Shodmon o'g'li FUTBOLCHILARNING TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARI VA VOSITALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI	100
18	Kurbanov Djurabek Ismatovich JISMONIY TARBIYA VA SPORT ORQALI YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH	106
19	Yodgorova Go'zal Olim qizi IMOM AL-BUXORIY MEROSI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI	113
19.00.06 – PSIXOLOGIYA FANLARI		
20	Jabborov Xazrat Xusenovich. MILLIY TARBIYA TARG'IBOTI SAMARADOROLIGINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI	118
	Maxamatov Nurmuxammad Odilovich. HARBIY XIZMATCHILARDA ISH-OILA MUVOZANATINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	126
21	Kurbonov Hakim Khaidarkulovich PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF VOLLEYBALL PLAYERS: KEY FACTORS INFLUENCING SUCCESS IN SPORTS	132
22	Saidov Golibjon Komilovich PSYCHOLOGICAL FEATURES OF LEARNING PSYCHOLOGICAL ADAPTATION PROCESSES OF ATHLETES IN TEAM SPORTS	137
23	Samatova Sevara G'ayratovna. AFFILIATSIYA MOTIVI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK QONUNIYAT SIFATIDA	143
24	Nazarova Manzura Mustafo qizi. O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY TALABALAR KIRIB BORISHI JARAYONIDAGI MADANIYATLARARO MOSLASHUVNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	150
25	Baratov Xumoyin Sharipovich JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARNING O'RNI	157
26	Allakov Ilhom Oqmurodovich O'SMIR XULQ-ATVORINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ZAMONAVIY MEDIA TA'SIRNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	163



*“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI” iste’dodli olimi, mehribon va jonkuyar ustoz, yoshlar va talabalarning sevimli murabbiyasi **Hasanova Gulnoz Qosimovna**ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining 2025-yil 31-oktabrdagi qarori bilan berilgan “Professor” ilmiy unvoni bilan chin qalbdan muborakhbod etadi.*

Bu yuksak unvon — olimaning ilm-fan yo‘lida qilgan fidokorona mehnati, yillar davomida to‘plagan boy tajribasi va samarali ilmiy izlanishlarining munosib e’tirofidir.

Hurmatli olimaga kelgusidagi ilmiy faoliyatlarida yanada ulkan muvaffaqiyatlar, mustahkam sog‘lik, baxtiyorlik va bitmas-tuganmas ijodiy ilhom tilaymiz.

T-37MB3 KOLLEKTORIDA UCHRAYDIGAN BALIQ TURLARINI ANIQLASH



Baxshullayeva Gulruh Vaxobiddin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Biologiya kafedrası o'qituvchisi

Annatatsiya

KIRISH: Ushbu maqolada Buxoro viloyatida joylashgan T-37MB3 kollektorida uchraydigan baliq turlari haqida bayon etilgan. Kollektorda olib borilgan tadqiqotlar natijasida va respublikamiz ixtiofaunasiga oid adabiyotlar tahlili asosida hozirgi kunda kollektorga 4 ta oilaga mansub 16 turdagi baliqlar uchrashi aniqlandi. Aniqlangan baliq turlaridan iqlimlashtirilgan turlar, Zarafshon daryosidan o'tgan turlar, Amudaryodan o'tgan turlar, mahalliy turlar, tasodifan keltirilgan turlarga ajratib chiqildi. Kollektorda uchraydigan baliq turlaridan Alburnus chalcoides aralensis, Rutilus aralensis turlar soning kopligi bilan ustunlik qiladi.

MAQSAD: T-37MB3 kollektorida uchraydigan baliq turlarini aniqlash va ilmiy tahlil qilish.

MATERIALLARA VA METODLAR: T-37MB3 kollektori Jondor tumani Mirzayon MFY da Yangiyer qishlog'i yaqinida joylashgan bo'lib, baliq boqish uchun chegaralangan joyning umumiy uzunligi 800 m ni tashkil etadi. Kollektorning chuqurligi 70 sm dan 1,5 m gacha, eni esa 5 m ni tashkil etadi. Tadqiqot ishlari davomida T-37MB3 kollektori suvida tarqalgan baliq turlari obyekt qilib olindi. Kollektor suvida uchraydigan baliq turlaridan namunalar olindi va laboratoriyada taksonomik tahlil qilindi. Ixtiologik tadqiqotlar Kottelat va Freyhof (2006) metodikasi asosida olib borildi. Baliq turlarini aniqlashda mahalliy mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan aniqlagichlar va xalqaro baliqlar bazasidagi ma'lumotlardan foydalanildi. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) ning onlayn bazasi orqali baliqlarning ayni vaqtdagi muhofaza qilinish maqomi tekshirildi.

XULOSA: T-37MB3 kollektori hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, hozirgi kunda jami baliqlarning 4 ta oilaga mansub 14 ta turi uchrashi aniqlandi. Baliqlarning ko'p qismini maxsus boqiladigan, ov ahamiyatiga ega bo'lgan baliqlar 4 turni tashkil qildi: Karp, Oq amur, Laqqa, Oq do'ngpesha. Bu turlar kollektorlarda sun'iy holda boqilayotgan baliq turlari bo'lib hisoblanadi. Orol chovoq ballig'i bilan amur chebachogi kollektorda keng tarqalgan baliq turlaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kollektor, ixtiofauna, iqlimlashtirilgan tur, tasodifan keltirilgan tur, mahalliy tur, sistematik, taksonomik.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВИДОВ РЫБ, ВСТРЕЧАЮЩИХСЯ В СБОРНИКЕ Т-37МБЗ

Бахшуллаева Гулрух Вахобиддиновна

Бухарский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры биологии

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье описываются виды рыб, обнаруженные в коллекторе Т-37МБ3, расположенном в Бухарской области. В результате исследований, проведенных в коллекторе, и на основе анализа литературы по ихтиофауне нашей республики установлено, что в настоящее время в коллекторе обитает 16 видов рыб, относящихся к 4 семействам. Выявленные виды рыб были разделены на акклиматизированные, заплывшие через реку Зарафшан, заплывшие через Амударью, местные и случайно завезенные. Среди видов рыб, обнаруженных в коллекторе, по численности преобладают альбурнус аральский (*Alburnus chalcoides aralensis*) и рutilus аральский (*Rutilus aralensis*).

ЦЕЛЬ: Определить и провести научный анализ видов рыб, обнаруженных в коллекторе Т-37МБ3.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Коллектор Т-37МБ3 расположен недалеко от села Янгир в муниципальном образовании Мирзаён Жондорского района, а общая длина зоны, ограниченной для разведения рыбы, составляет 800 м. Глубина коллектора составляет от 70 см до 1,5 м, а ширина - 5 м. В ходе научно-исследовательских работ в качестве объектов были взяты виды рыб, распространенные в воде коллектора Т-37МБ3. Были взяты пробы видов рыб, обнаруженных в воде коллектора, и проведен таксономический анализ в лабораторных условиях. Ихтиологические исследования проводились на основе методологии Коттелата и Фрейхофа (2006). Для определения видов рыб использовались определители, разработанные местными авторами, и данные из международной базы данных по рыбам. Текущий статус охраны рыб проверялся с использованием онлайн-базы данных Международного союза охраны природы (МСОП). Систематический статус рыб был дан на основе общепринятой системы. С использованием ихтиологических методов в озёрах отбирались пробы рыб в 3 сезона: весной, летом и осенью 2021–2022 годов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В результате исследований, проведённых в районе коллектора Т-37МБ3, установлено, что в настоящее время здесь обитают 14 видов рыб, относящихся к 4 семействам. Большинство рыб являются специально разводимыми, имеющими охотничье-промысловое значение, и относятся к 4 видам: сазан, белый амур, лакка, белый донжон. Эти виды считаются искусственно разведёнными в коллекторах. Аральский сазан и амурский лещ являются одними из наиболее распространённых видов рыб в коллекторе.

Ключевые слова: коллектор, ихтиофауна, акклиматизированные виды, случайно интродуцированные виды, местные виды, систематика, таксономия.

DETERMINATION OF FISH SPECIES ENCOUNTERED IN THE T-37MB3 COLLECTOR

Bakhshullayeva Gulruh Vahobiddin qizi

Bukhara State Pedagogical Institute, Teacher of the Department of Biology

Annatation.

INTRODUCTION: This article describes the fish species found in the T-37MB3 collector located in the Bukhara region. As a result of research conducted in the collector and based on the analysis of literature on the ichthyofauna of our republic, it was determined that currently 16 species of fish belonging to 4 families are found in the collector. The identified fish species were classified into acclimatized species, species that passed through the Zarafshan River, species that passed through the Amudarya, local species, and accidentally

introduced species. Among the fish species found in the collector, the *Alburnus chalcoides aralensis* and *Rutilus aralensis* species predominate in terms of their abundance.

THE GOAL: To identify and scientifically analyze the fish species found in the T-37MB3 collector.

MATERIALS AND METHODS: The T-37MB3 collector is located near the Yangiyer village in the Mirzayon MFY of the Jondor district, and the total length of the area limited for fish farming is 800 m. The depth of the collector is from 70 cm to 1.5 m, and the width is 5 m. During the research work, fish species distributed in the water of the T-37MB3 collector were taken as objects. Samples of fish species found in the collector water were taken and taxonomically analyzed in the laboratory. Ichthyological studies were conducted based on the methodology of Kottelat and Freyhof (2006). To identify fish species, identifiers developed by local authors and data from the international fish database were used. The current conservation status of fish was checked using the online database of the International Union for Conservation of Nature (IUCN). The systematic status of fish was given based on a generally accepted system. Using ichthyological methods, fish samples were collected from lakes in 3 seasons a year, namely in spring, summer, and autumn in 2021-2022.

CONCLUSION: As a result of research conducted in the area of the T-37MB3 collector, it was determined that currently 14 species of fish belonging to 4 families are found. The majority of fish are specially bred, of hunting importance, and are of 4 species: Carp, White Amur, Lakka, White Dungeness. These species are considered to be artificially bred fish species in the collectors. The Aral carp and the Amur bream are among the most common fish species in the collector.

Keywords: collector, ichthyofauna, acclimatized species, accidentally introduced species, local species, systematics, taxonomic.

Hozirgi kunda respublikamizning baliqchilik sohasini rivojlantirish aholini baliq va baliq maxsulotiga bo'lgan talabini qondirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bularga yerda kovlangan hovuz baliqchilik xo'jaliklari, sadok baliqchilik xo'jaliklari, basseyn baliqchilik xo'jaliklarini tashkil qilinishini misol bo'ladi. Ovlanadigan baliq maxsulodligini ko'p qismini suniiy hovuzlardan yetishtirilgan baliq tashkil qilmoqda. Bundan tashqari kollektor suvlaridan oqilona foydalanish maqsadida baliq boqish uchun imkoniyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2939 son "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirishda" gi, 2022 yil 13-yanvardagi PQ-83-son "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorilari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 13-sentyabrdagi № 719 son "Baliqchilik sohasini kompleks rivojlantirish to'g'risida" gi qarori, 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816 son "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlarida va bundan tashqari 2022 yil 26 martdagi 137-son O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 24-yanvardagi PQ-100-son qarorlari) dagi qarorlarida belgilab berilgan masalalar yechimiga qaratilgan [1,2,3,4].

Hozirgi kunga kelib baliqlarning tur soni 35 mingdan oshgan, umurtqali hayvonlarning yarmiga yaqinini tashkil qiladi [5]. Baliqlar biologik xilma-xillikning asosiy tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga muhim iqtisodiy ahamiyatga ega hamda inson salomatligi uchun zarur bo'lgan hayvon oqsili manbasidir. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 avgustdagi "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4816-sonli qarori talablari asosida kollektor tarmoqlarida baliq yetishtirish bo'yicha viloyatda tadbirkorlarda ijara shartnoma orqali joy ajratilgan. Shulardan biri Jondor tumaniga qarashli hududidan oqib o'tuvchi T-37MB3 kollektordan 800 metr joy berilgan. Viloyat qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi sababli bu kollektorlarda sizot suvlarning yig'ilishi natijasida doimiy suv bo'lishi, suvning minerallasuvi shu muhitga moslashgan baliqlarning rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Baliq turlarini ilmiy jihatdan tasniflash, turlarni identifikatsiya qilish nafaqat taksonomik, shu bilan birga baliqchilik sohasi, tabiiy suv resurslarining poteinsialini belgilash hamda oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Suv havzasi ixtiofaunasining tur tarkibi, ushbu turlar populyatsiyaning holatini ilmiy asosda muntazam monitoring qilib boorish ixtiologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Buxoro viloyati kollektori ixtiofaunasi Markaziy kollektor ixtiofaunasi hisobiga shakllangan. Markaziy kollektor ixtiofaunasi Zarafshon ixtiofaunasi bilan bog'liq. Baliq turlari unchalik ko'p emas. Chunki yirtqich baliq turlari ko'p sonli ekanligi bilan ya'ni laqqa turning mavjudligi hamda bu baliqning og'irligi va ozuqa tarkibi asosan baliq bo'lganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari kollektor suvining sho'rligi, ishlab chiqarish korxonalarining oqova suvlarini kollektorlarga quyilishi, baliqlarning urchish mavsumida ikralarning urug'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib ko'payishiga to'sqinlik qiladi.

Tadqiqot materiallari va uslublari

T-37MB3 kollektori Jondor tumani Mirzayon MFY da Yangiyer qishlog'i yaqinida joylashgan bo'lib, baliq boqish uchun chegaralangan joyning umumiy uzunligi 800 m ni tashkil etadi. Kollektorning chuqurligi 70 sm dan 1,5 m gacha, eni esa 5 m ni tashkil etadi. Tadqiqot ishlari davomida T-37MB3 kollektori suvida tarqalgan baliq turlari obyekt qilib olindi. Kollektor suvida uchraydigan baliq turlaridan namunalar olindi va laboratoriyada taksonomik tahlil qilindi. Ixtiologik tadqiqotlar Kottelat va Freyhof [6] (2006) metodikasi asosida olib borildi. Baliq turlarini aniqlashda mahalliy mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan aniqlagichlar [7; 112 b] va xalqaro baliqlar bazasidagi ma'lumotlardan foydalanildi [5]. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (TMXI) ning onlayn bazasi orqali baliqlarning ayni vaqtdagi muhofaza qilinish maqomi tekshirildi [8]. Baliqlarning sistematik holati umumiy qabul qilingan sistema asosida berildi. Ixtiologik metodlar yordamida baliqlar namunalari ko'llardan yiliga 3 mavsumda, ya'ni bahor, yoz, kuz oylarida 2021-2022 yillarda baliq namunalari olib o'rganildi.

Tadqiqot natijasi

Tadqiqotlar natijasida T-37MB3 kollektorida 4 ta oilaga mansub bo'lgan 16 ta baliq turlari aniqlandi. Aniqlangan baliq turlaridan iqlimlashtirilgan turlar, Zarafshon daryosidan o'tgan turlar, Amudaryodan o'tgan turlar, mahalliy turlar, tasodifan keltirilgan turlarga ajratib chiqdik (1-jadval).

1-jadval

T/r	Oila, tur	Iqlimlashtirilgan turlar	Zarafshon daryosidan o'tgan turlar	Amudaryodan o'tgan turlar	Mahalliy turlar	Tasodifan keltirilgan turlar
CYPRINIDAE						
1	Turkiston mo'ylabdari – Luciobarbus conocephalus Kessler, 1872		+			
2	Oq amur – Ctenopharyngodon idella (Valencinnes, 1844)	+		+		

3	Samarqand xramulyasi- Varicorhinus heratensis steindachneri		+			
4	Kumush tovonbaliq – Carassius gibelio (Bloch,1783)	+	+			
5	Sazan – Cyprinus carpio (Linnaeus, 1758)		+		+	
6	Soxta qumbaliq – Abbottina rivularis (Basilewsky, 1855)		+			+
7	Amur chebachogi – Pseudorasbora parva (Temminck et Schlegel, 1846)		+			+
8	Sharq oqchasi – Abramis brama orientalis (Berg, 1949)	+		+		
9	Xolchik tezsuzari – Alburnoides holciki (Coad et Bogutskaya, 2012)		+		+	
10	Orol moybalig'i – Alburnus chalcoides aralensis (Berg, 1923)		+			
11	Oq do'ngpeshona – Hypophthalmichthys molitrix (Valenciennes, 1844)	+		+		
12	Orol chavoqbalig'i – Rutilus aralensis Berg, 1916					
13	Turkiston qumbalig'i-Gobio lepidoolaemus		+			
SILURIDAE						
14	Oddiy laqqa – Silurus glanis Linnaeus, 1758		+		+	
POECILIIDAE						
15	Gambuziya – Gambusia holbrooki Girard, 1859	+	+			
ODONTOBUTIDAE						
16	Mikroperkops – Micropercops cinctus (Dabry de Thiersant, 1872)		+			+

Kollektorda uchraydigan baliq turlaridan *Alburnus chalcoides aralensis* (Berg, 1923), *Rutilus aralensis* Berg, (1916) turlar soning koplgi bilan ustunlik qiladi.

Alburnus chalcoides aralensis - ko'p ovlanmaydigan kollektorlarda uchraydigan baliq turi. Uncha katta bo'lmagan baliq bo'lib, 3-4 yoshida uzunligi 17,5 sm dan 20 sm gacha yetib, uning og'irligi 115,5-225,6 g ni tashkil qiladi. Ko'llarda va suv omborlarida, kamdan-kam hollarda daryo va kanallarda uchraydi. Serpushtligi 2-24 ming dona. Suv harorati 14-22 °C bo'lganda, aprelning ikkinchi yarmidan to iyungacha ko'payish uchun kechasi sayoz, toshloq joylarga chiqib ikra qo'yadi.

Rutilus aralensis - Viloyatimiz suvliklarining ovlanadigan baliq turlaridan biri hisoblanadi. Barcha suvliklarda baliq ovining 65-80% ni tashkil etadi. Kollektorlardan biz tomonimizdan ovlangan 2-5 yoshdagi Orol chovoq balig'ining uzunligi o'rtacha 10,5-23,5 sm

va massasi 21,8-180,8 g ni tashkol etadi. Ushbu turning jinsiy voyaga yetilishi 2 yoshida 10,0-13,0 sm li uzunlikdagi individlarga to'g'ri keladi. Orol chovoq baliq'ining absolyut serpushtligi 2,9-45,6 ming uvildriq (o'rtacha 25 ming) ni tashkil etib, bunday ko'rsatgichlar o'rtacha uzunligi 16 sm va massasi 132 g li baliqlarda aniqlangan. Orol chovoq baliq'i aprel oyining o'rtalaridan may oyining oxirigacha kollektorda 16-18 °C suv haroratda urchishi o'rganildi [9; 43-49 b, 10; 88-90 b].

Samarqand xramulyasi - varicorhynus heratensis steindachneri- kollektorlarda kam uchraydigan baliq hisoblanadi. Amudaryo, Qashqadaryo, Zarafshon daryosi va sangzar daryosi tekislik havzalarida tarqalgan. Daryolarda yashaydi, kamdan-kam hollarda suv omborlarida uchraydi. Tanasining uzunlig 35-40 sm, og'irligi 1-1,5 kg, ba'zi birlari 60 sm va 3,5 kg gacha bo'ladi. 2-4 yoshida tana uzunligi 14-31,3 sm va og'irligi 80-350 gr bo'lganda jinsiy voyaga yetadi. Serpushtligi 6-90 ming dona bo'ladi. Aprel oyining oxiri suv harorati 18-27 °C bo'lganda ko'payadi. Asosan fitofil baliq bo'lib, ayniqsa o'simtalar bilan, detritlar bilan shuningdek, loyqa bilan oziqlanadi, shuning uchun ham loyxo'rak baliq deb aytiladi. Mahalliy ovlanadigan baliq.

Sharq oqchasi – Abramis brama orientalis- Amudaryo va Sirdaryo suv havzalarida uchraydi, Zarafshon daryosi va Qashqadaryoning tekislik qismida ko'p miqdorda uchraydi. Kollektorlarda 3-6 yoshgacha bo'lgan, tanasining uzunligi 22,1 dan 34,5 sm va o'g'irligi 132 g dan 450 g gacha bo'ladi. Kollektor sharoitida tana uzunligi 17,0-24,0 sm bo'lgan baliqlar 3 yoshida jinsiy voyaga yetadi. Absolyut serpushtligi o'rtacha uzunligi 35,8 sm va og'irligi 792 g bo'lgan baliqlarda 35,6 240,0 ming uvildriqni tashkil qiladi.

T-37MB3 kollektori hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, hozirgi kunda jami baliqlarning 4 ta oilaga mansub 14 ta turi uchrashi aniqlandi. Baliqlarning ko'p qismini maxsus boqiladigan, ov ahamiyatiga ega bo'lgan baliqlar 4 turni tashkil qildi: Karp, Oq amur, Laqqa, Oq do'ngpesha. Bu turlar kollektorlarda sun'iy holda boqilayotgan baliq turlari bo'lib hisoblanadi. Orol chovoq ballig'i bilan amur chebachogi kollektorda keng tarqalgan baliq turlaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 13-yanvardagi PQ-83-son "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs]. – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2022. – URL: <http://www.lex.uz>.
2. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2017-yil 13-sentyabrdagi 719-son "Baliqchilik sohasini kompleks rivojlantirish to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs]. – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2017. – URL: <http://www.lex.uz>.
3. Мирабдуллаев И.М., Кузметов А.Р., Курбонов А.Р. Ўзбекистон балиқлари хилма-хиллиги. – Тошкент: "Classic", 2020. – 112 б.
4. Mirabdullayev I.M., Mullaboyev N.R. O'zbekiston ixtiofaunasi: O'zbekiston tabiiy suv havzalaridagi baliq xilma-xilligining taksonomik tarkibi va hozirgi holati // O'zbekiston biologiya jurnali. – 2020. – № 5. – B. 43-49.
5. Yuldashov M.A., Salixov T.V., Kamilov B.G. O'zbekiston baliqlari: monografiya. – Toshkent, 2018. – B. 88-90.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Baxshullayeva Gulruh Vaxobiddin qizi

Buxoro davlat pedagogika institute Biologiya kafedrası o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

baxshilayevagulrux@gmail.com

BADIIY TARJIMANING QIYINCHILIKLARI VA TARJIMA STRATEGIYALARI



Bafoyeva Nilufar Salim qizi

Navoiy davlat universiteti doktranti

Anotatsiya

KIRISH: Tarjima jarayon va faoliyat mahsuli. Bugungi kunga kelib tarjima faqat tarjimonga xos ish bo'lmay qoldi. Ayni zamonda o'qituvchi, filolog, talaba va hatto maktab o'quvchilari ham internet tarmoqlari orqali topilgan ma'lumotlarni o'z bilimi doirasida tarjima qilishadi. Chunki darslik, qo'shimcha ma'lumotlar, dunyo xabarlariga degan tushunchalarda kutubxona va zangori ekrandan ko'ra, internet ildamlab ketdi, u butun dunyo ilmini to'plagan va tarqatayotgan manbaga aylandi. Demak, ma'lumot qidirayotgan talabada har qanday original resursni qo'lga kiritish imkoniyati bor. Tan olib aytish kerakki, internet tarjimon dasturlari bilan ham boy dunyo, biroq undagi lingvistik muammolarni yechishga hali "tishi o'tmaydi".

MAQSAD: Badiiy tarjimaning qiyinchiliklarini va tarjima strategiyasini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: XX asrga qadar "tarjima" so'zi muayyan ma'no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanilib kelingan, og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda "tilmoch", slavyanlarda "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamallari ishlatilgan. Tarjima tarjimon so'zidan hosil bo'lgan, tarjimon esa forscha "tarzabon" so'zidan kelib chiqqan.¹ Tarjima yillar, asrlar davrida shakllanib rivoj topgan amaliyot. Shu o'rinda tilshunos olimlarining aynan "tarjima" so'ziga bergan ta'riflarini keltirib o'tsak.

XULOSA: Badiiy asarlardagi grammatik muammolarni tarjimasi doim tarjimonga ma'lum qiyinchiliklarini tushunishga yordam beradi. Har bir misol tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yoritadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, tarjimaning leksik muammolari, tarjimaning grammatik muammolari, tarjimaning stilistik muammolari, tarjimaning frazeologik muammolari.

ПРОБЛЕМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА И СТРАТЕГИИ ПЕРЕВОДА

Бафоева Нилуфар Салимовна

Докторант Навоийского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Перевод – это процесс и продукт деятельности. Сегодня перевод уже не является исключительной прерогативой переводчиков. В наши дни

¹ Komilov N. Bu qadimiy san'at//Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami), 3-kitob, Toshkent, 1976, 55-56 b.

преподаватели, филологи, студенты и даже школьники переводят информацию, найденную в Интернете, в рамках своих знаний. Поскольку Интернет стал важнее библиотеки и синего экрана в понятиях учебников, дополнительной информации и мировых новостей, он стал источником, собирающим и распространяющим все мировые знания. Таким образом, студент, ищущий информацию, имеет возможность получить доступ к любому оригинальному ресурсу. Следует признать, что Интернет – это богатый мир программ-переводчиков, но он всё ещё не «набил руку» решению лингвистических задач.

ЦЕЛЬ: Научный анализ трудностей художественного перевода и стратегии перевода.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: XX века слово «перевод» имело специфическое значение и использовалось только по отношению к переводу исторических, философских и литературных произведений, в то время как термины «tilmoch» в турецком, «tolmach» в славянском, «dolmetschen» в немецком и «interpret» в английском и французском языках использовались по отношению к устному переводчику. Слово «перевод» происходит от слова «tarjimon», а «translation» – от персидского слова «tarzabon». Перевод – это практика, которая формировалась и развивалась на протяжении многих лет и веков. Здесь приведем определения, данные лингвистами слову «tarjima».

ВЫВОД: Перевод грамматических ошибок в литературных произведениях всегда помогает переводчику разобраться в определённых трудностях. Каждый пример иллюстрирует проблемы, возникающие в процессе перевода.

Ключевые слова: художественный перевод, лексические проблемы перевода, грамматические проблемы перевода, стилистические проблемы перевода, фразеологические проблемы перевода.

CHALLENGES OF ARTISTIC TRANSLATION AND TRANSLATION STRATEGIES

Bafoyeva Nilufar Salim qizi

Doctoral student at Navoi State University

Annatation.

INTRODUCTION: Translation is a process and a product of activity. Today, translation is no longer the exclusive domain of translators. Nowadays, teachers, philologists, students, and even schoolchildren translate information found on the Internet within the scope of their knowledge. Because the Internet has become more important than a library and a blue screen in the concepts of textbooks, additional information, and world news, it has become a source that collects and distributes all the world's knowledge. So, a student looking for information has the opportunity to obtain any original resource. It must be admitted that the Internet is a rich world with translation programs, but it still does not "get the teeth" to solve linguistic problems on it.

THE GOAL: Scientific analysis of the difficulties of literary translation and translation strategy

MATERIALS AND METHODS: Until the 20th century, the word "translation" had a specific meaning and was used only in relation to the translation of historical, philosophical and literary works, while the terms "tilmoch" in Turkish, "tolmach" in Slavic, "dolmetschen" in German, and "interpret" in English and French were used in relation to the oral translator. Translation is derived from the word "tarjimon", and the translator comes from the Persian word

"tarzabon". Translation is a practice that has been formed and developed over the years and centuries. Here, let us cite the definitions given by linguists to the word "tarjima".

CONCLUSION: The translation of grammatical problems in literary works always helps the translator to understand certain difficulties. Each example highlights the problems that arise in the translation process.

Keywords: literary translation, lexical problems of translation, grammatical problems of translation, stylistic problems of translation, phraseological problems of translation.

XX asrga qadar "tarjima" so'zi muayyan ma'no kasb etib, faqat tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanilib kelingan, og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiyda "tilmoch", slavyanlarda "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamallari ishlatilgan. Tarjima tarjimon so'zidan hosil bo'lgan, tarjimon esa forscha "tarzabon" so'zidan kelib chiqqan.² Tarjima yillar, asrlar davrida shakllanib rivoj topgan amaliyot. Shu o'rinda tilshunos olimlarining aynan "tarjima" so'ziga bergan ta'riflarini keltirib o'tsak.

Retsker tarjima – mazmun va uslub birligini saqlagan holda asl nusxani boshqa til yordamida aniq takrorlashdir degan fikrni ilgari suradi. Bunda tarjima qayta hikoya qilishdan farq qiladi, unda xorijlik asl nusxaning mazmunini yetkazish, mayda detallarni o'tkazib yuborish va uslubni takrorlash haqida qayg'urmasligi mumkin. Tarjimada mazmun va uslubning birligi boshqa til asosida qayta yaratiladi, shuning uchun tarjima tiliga xos bo'lgan yangi birlik bo'ladi³. **Kasperak** "tarjima" so'ziga ta'rif berar ekan, lotincha "translation" tarjimasidan olingan (trans va fero- so'zlaridan kelib chiqqan) bo'lib, kesib o'tish yoki olib o'tish degan ma'noni anglatadi deydi⁴. Darhaqiqat, I bobda ham tarjima "qayta yaratish" jarayoni ekanligini bir necha bor takrorladik.

Katford esa: "Tarjima tillarda bajariladigan operatsiya: bu bir tildagi matnni boshqa tildagi matnga almashtirish jarayoni. Shubhasiz, tarjimaning har qanday nazariyasi umumiy tilshunoslik nazariyasiga asoslanishi kerak.-,deydi.⁵ Biz olimning fikriga qo'shilamiz albatta, chunki tarjima ham tilshunoslikning bir tarmog'idir. Shu o'rinda tarjima yo'nalishlariga to'xtalib o'tsarkanmiz, uni ko'plab olimlar o'z qarashlariga asoslanib turli turlarga ajratadilar:

K.D. Tukhtaeva ⁶	M. T. Babayev ⁷	E. Ochilov. ⁸	Roman Yakobson	Q. Musayev ⁹
Tarjima	Sifati bo'yicha tarjima turlari	Yozma tarjima xarakteriga ko'ra turlari.	Til ichida tarjima yoki qayta nomlash (bir	Ijodiy tarjima

² Komilov N. Bu qadimiy san'at/Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami), 3-kitob, Toshkent, 1976, 55-56 b.

³ Рецкер Я. И. Учебное пособие по переводу с английского языка на русский Выпуск 1, Москва — 1981

⁴ Kasperek, C. The Translator's Endless Toil. The Polish Review, 1983. 28(2). – P. 83

⁵ J. C. Catford. A Linguistic Theory of Translation. Oxford University press, 1965

⁶ M.T. Iriskulov, N.M. Kambarov, K.D. Tukhtaeva. Theory and Practice of translation. (Theoretical part) *coursebook*. Tashkent – 2020. P-12

⁷ Babayev M. T. Tarjima turlari va uning xususiyatlari. Innovative Development in Educational Activities Issn: 2181-3523 Volume 2 | Issue 9 | 2023

⁸ E. Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2012. 14-bet

⁹ Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – Б.21-28.

			tilda ogʻzaki belgilarni boshqa belgilar orqali izohlash)	
Tarjima talqini	Bajarilish uslubiga koʻra tarjima turlari	Ogʻzaki tarjima xarakteriga koʻra	Tillararo tarjima yoki tarjima (ogʻzaki belgilarni boshqa tilda ifodalash)	Soʻzma-soʻz tarjima
Audiovizual tarjima	Manba va maqsadli tillar turlarining nisbati boʻyicha tarjima turlari	Tarjima sohalarini boʻyicha turlari	Maʼnolararo tarjima	Erkin tarjima
Shivirlab tarjima qilish	Asl matnning toʻliqligi va mazmun uslubi asosida tarjima turlari	Tarjima janriy xususiyatiga koʻra turlari		Obrazlashtirilgan (idiomatik) tarjima
Mashina tarjimasi yoki kompyuterga asoslangan tarjima	Asllyatning ustunligi yoki ikkilamchiligi asosida	Tarjima xillari		Moslashtirish tarjima
Vizual tarjima				Mualliflashtirilgan tarjima
Ogʻzaki tarjima-interpretatsiy				Akademik va vositali tarjima

Bu tarjima turlari orasida badiiy tarjimaning oʻrni beqiyos. Zero, Oʻzbekiston mustaqillikka erishgandan soʻng oʻtgan davr mobaynida oʻzbek adabiyoti namunalarini bevosita chet tillarga tarjima qilish orqali xalqimizning boy maʼnaviy merosini xorijiy ellarda targʻib etish, uning badiiy yuksak, chuqur insonparvarlik gʻoyalari bilan sugʻorilgan adabiyoti bilan jahon xalqlarini oshno etish masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarilmoqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak maʼnaviyat yengilmas kuch” asarida bu masalaga alohida toʻxtalgani yurtimizda badiiy tarjima ishlarini yanada jonlantirish, bevosita oʻzbek tilidan – 3 – chet tillarga mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalarini tarjima qilish ishlarini yangi bosqichga koʻtarishga boʻlgan jiddiy eʼtibor ifodasidir. Filologiya fanlari doktori, professor, Shuhrat Sirojiddinov oʻz navbatida, oʻzbek tarjimonlari va noshirlari oldiga bir qancha masʼuliyatli vazifalarni amalga oshirish talabini qoʻyadi. Bu albatta badiiy tafakkur va ijodiy qobiliyatga ega, oʻzbek adabiyotining nazm, nasr va drama janrlarida mashq qilib yurgan iqtidorli talabalar tanlab olishni va ularga adabiyot nazariyasi hamda tarjima ilmi boʻyicha saboqlar berilishini talab qiladi.

M.Kohen badiiy tarjima yozma adabiyot paydo bo'lgandan keyingina boshlangan degan fikrni ilgari suradi.¹⁰ Badiiy tarjima, odatda, bir xalqning tilida yaratilgan badiiy nasr namunalarini boshqa bir xalq tiliga asar muallifi nazarda tutgandek olib o'tishdir. Bir tilda yaratilgan badiiy adabiyotni boshqa til vakillarida uni o'qish va uning badiiy estetik qiymatidan zavq olish ishtiyoqi tug'ilsagina badiiy tarjima amalga oshiriladi. Badiiy tarjimaning boshqa tarjima amaliyotidan farqi shundaki, uni juda katta mahorat talab etadigan, mukammal tizimga ega bo'lgan jarayon ekanligidadir. Biroq ta'kidlab o'tish kerakki, badiiy tarjima o'zining serjilo ekanligi va turli unsurlarga boy ekanligi bilan tarjimonni ham o'ziga torta oladiga katta kuchga ega. Ya'ni tarjimon bu boshqa tilga o'girish jarayonida nafaqat tarjima qiladi balki, kun sayin o'zini so'z boyligi, stilistik ko'nikmalari va hatto grammatikasida ham yangiliklar kashf etib boradi. Badiiy tarjima nutq faoliyatining murakkab turi bo'lib, u ham reseptiv, ham mahsuldor xususiyatga egadir. Biz nutqni tinglash yoki o'qish orqali idrok qilamiz, so'ngra tarjimoni yakunlash natijasida yozish yoki gapirish orqali nutq hosil qilamiz. Tarjima kommunikativ vazifani bajaradi, shuning uchun u nutqiy faoliyat bo'lib, u orqali muloqot akti amalga oshiriladi.¹¹ Tarjima faoliyati jarayonida nutq faoliyatining boshqa barcha turlari (tinglash, o'qish, yozish, gapirish) bo'yicha malaka sifati yaxshilanadi. Chet til matnini ona tiliga tarjima qilishning muhim tamoyili tarjima qilingan so'zlar, grammatik konstruksiyalar yoki asliyat tilining g'oyalari va asliyat matnining mazmuni hisoblanadi¹². Har bir tarjima jarayoni uch qismdan iborat: matnni ko'rish yoki eshitish, asliyat tilini tahlil qilish va tarjima tilida sintez qilish va shu tilda ma'no hosil qilish¹³.

Badiiy tarjima aqliy mehnatni talab etuvchi faoliyat bo'lib, tarjima jarayonida ba'zi qiyinchiliklar yuzaga chiqadi. Chunki har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda eks ettiradi, zero tillar o'ziga xos grammatik tuzilishga, grammatik qoidalarga va til birliklariga ega. Bir tilda yaratilgan roman, esse, doston, qisqa hikoyalar, komediya, xalq ertaklari, tanqidiy asarlar, ilmiy fantastika va boshqa yozma adabiy janrlarni o'ziga tilga yozma tarjima qilish badiiy nasr tarjimasi hisoblanib, u adabiy ijodning bir turidir.

Badiiy tarjimada uchraydigan qiyinchiliklarni ma'lum bo'limlarga ajratib chiqamiz.

1. Badiiy tarjimaning leksik muammolari. Talabalar badiiy tarjimada leksik- semantik to'siqlar sababli tarjima vazifalarida past natijalarga erishishlari mumkin, bu esa yetarli lug'at bilimining yo'qligi va ma'no taqsimotidagi farqlardan kelib chiqadi. Leksik mazmunli so'zlarning tarjimadagi asosiy maqsadi ma'noni yetkazish bo'lganligi sababli, semantika o'rganish juda muhimdir. Leksemalar, ya'ni ma'no yuklaydigan nutq qismidagi asosiy birliklar, grammatik tuzilmani ta'minlaydigan funksional so'zlar bilan to'ldiriladi. Oddiy leksemalar talabalar uchun osonroq bo'lsa, bir nechta ma'noga ega bo'lgan polisemiyalik so'zlar chalkashlik va noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Yuqoridagi fikrlarni hisobga olib aytganda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin;

a) tarjima qilinayotgan tilda aynan o'sha terminning ma'nosini bildiradigan so'zning mavjud emasligi. Badiiy tarjimada yuqoridagi kabi so'lar bilan bog'liq leksik qiyinchiliklar quyidagicha bo'lishi mumkin. Misol uchun "*Whimsical*" so'zi "*g'alati*" yoki "*qiziq*" deb tarjima qilinsa ham, bu so'zni ishlatishda qanday g'alati yoki qiziq holatni nazarda tutayotganini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. Yoki "*Serendipity*" so'zining o'ziga xos madaniy konteksti bor. O'zbek tilida bunday tushuncha bevosita mavjud emas, shuning uchun tarjimon uni izohlashga majbur bo'lishi mumkin. "*Ethereal*" so'zining "*havo kabi yengil*" tarjimasi

¹⁰ Cohen, J. M. Translation. Encyclopedia Americana, 1986. 27. – P. 12.

¹¹ Yo'ldoshev U. Talabalarga badiiy tarjimoni o'qitishning lingvistik va metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. 2024. Toshkent.

¹² Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. М. : Наука, 1988. –С 40.

¹³ Свирепчук И. А. Психологический http://www.rusnauka.com/32_PVMN_2011/Philologia/6_97587.doc.ht.

uning estetik va emotsional jihatlarini to'liq ifodalamaydi. Bu so'z o'z ichiga go'zallik va noziklik hissini olib keladi, bu esa o'zbek tilida aniq ifodalashda muammo tug'dirishi mumkin. "Melancholy" so'zi badiiy asarlarda faqat g'amginlikni emas, balki chuqur hissiyotlar va xotiralar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. "G'amginlik" so'zi esa ba'zi hollarda bu chuqurlikni ifodalashda yetarli bo'lmasligi mumkin.

b) tarjima qilinilayotgan termin bir ma'noga ega emasligi. O'zbek tilidagi "mehr" so'zi ingliz tiliga turli kontekstlarga qarab bir nechta usulda tarjima qilinishi mumkin. Ushbu so'z asosan "mehr" (*muhabbat, rahm-shafqat, mehribonlik*) kabi ma'nolarda ishlatiladi. Misol uchun bu so'zning quyidagi variantlarni berish mumkin:

1. **Compassion** - rahm-shafqat, insonlarga nisbatan mehribonlik.
2. **Affection** - mehr, yoqimli his-tuyg'u.
3. **Love** - sevgi, ayniqsa, romantik yoki oilaviy kontekstda.
4. **Kindness** - yaxshilik, mehribonlik. Bu so'zni ikki tildagi taxlilini ko'rib chiqamiz. Uning mehrini his qildim - *I felt his compassion*. Mehr bilan yondashish kerak - *One must approach with kindness*.

Bu misollar leksik muammolarni anglashda va tarjima jarayonida e'tiborga olish zarurligini ko'rsatadi. Tarjimonlar kontekstni to'g'ri tushunib, ma'noni yetkazish uchun har bir so'zning o'ziga xosligini hisobga olishlari lozim. Bunday holatda leksik muammolar bilan tanish bo'lgan har qanday tarjimon yoki matn tarjimasini amalga oshirayotgan talaba, hech qanday muammosiz adekvat tarjimaga erisha oladi. Bunda asosan, leksik transformatsiya, leksik birliklar tarjimasi, muallif va tarjimon kabi tushunchalar ustida ish olib boriladi.

1. Badiiy tarjimaning frazeologik muammolari. Odatda turg'un birikmalarni tarjima qilish muammo tug'dirmaydi. Agar turg'un birikmalardagi so'zlardan biri ko'chma ma'noda qo'llansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarning bir nechta turi mavjud bo'lib. Ularning bir birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi.¹⁴ Biroq ma'lumki, tafakkur qonuniyatlari butun insoniyat uchun bir xil bo'lib, barcha tillar fikr bayon qilish ehtiyojini imkon qadar to'laroq qondirish yo'lida rivojlana boradilar. Binobarin, xalqlar tafakkur yo'nalishining, hayot tajribasining asosan uyg'unligi, ularning turli-tuman xulq-atvor hamda xislat-xususiyatlarga nisbatan munosabatlarining aksariyat hollarda bir-birlarinikiga o'xshashligi turli tillar tarkibidagi ko'pchilik komparativ frazeologik birliklarning bir xil obrazli asosga ega bo'lib qolishlariga olib kelgan.

Badiiy tarjimada frazeologik muammolar quyidagi jihatlardan iborat bo'lishi mumkin:

a) frazeologik birikmalar. "Kick the bucket" (*o'lib ketmoq*). Ushbu ibora to'g'ridan-to'g'ri "chelakni tepish" deb tarjima qilinsa, uning ma'nosi tushunarsiz bo'ladi. Bunday hollarda "vafot etgan" deb ifodalash zarur.

b) madaniy frazeologiyalar. "Bite the bullet" (*qiyinchiliklarga bardosh berish*). Bu ibora o'ziga xos madaniy kontekstga ega. O'zbek tilida bunday frazeologiya to'g'ridan-to'g'ri yo'q, shuning uchun "qiyinchiliklarga toqat qilish" deb izohlash kerak.

c) emotsional rang. "Break a leg" (*omad tilash*). Bu frazeologiya teatr madaniyatiga taalluqli. O'zbek tilida bevosita ekvivalent yo'q, shuning uchun "omad tilaymiz" deb oddiyroq ifodalash mumkin, lekin bu iboraning hazil-mutoynasini yo'qotadi. **Jorj Orvel "1984-yil"**

¹⁴ I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. «Tafakkur Bo'stoni» Toshkent – 2012. 14-bet

asarida “*Big Brother is watching you*”¹⁵ iborasi ishlatilgan, agar bu ibora “*Katta og’a sizni kuzatayapti*” deb tarjima qilinganda, bu ibora ustidan nazoratni ifodalaydi, lekin o‘zbek tilida uning kuchini yo‘qotishi mumkin. Shuning uchun tarjimon bu gapni “*Katta og’a sizni nazorat qilyapdi*” deb ifodalaydi.

Bu frazeologik muammolarni hal qilishda tarjimonlar kontekstni, madaniy farqlarni va iboraning hissiy yukini inobatga olishlari zarur. Shuningdek, badiiy asarda ma’lum bir ma’noni saqlab qolish uchun ijodiy yondashuvni qo‘llash muhimdir. Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, badiiy asarlardagi frazeologik iboralar va so‘zlar ko‘pincha kontekstga, madaniy ma’noga shuningdek, ramziy ifodalarga ega.

2. Badiiy tarjimaning stilistik muammolari va uning yechimlari.

Badiiy tarjimada stilistik uslublarni tarjima qilish murakkab tushuncha bo‘lib, uning mexanizmlari, usullari va o‘lchovlarini, shuningdek, individual va kontekstual darajalardagi ta’sir etuvchi omillarni to‘liq tushunishni talab qiladi shuningdek, bu ikki til o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ham hisobga olish zarur.

a) badiiy asarlarda metonimiya bilan bog‘liq muammolar. Metonimik tarjima til darajasida sodir bo‘lishi mumkin va bu leksik metonimiya deb ataladi. Bunday holatda, metonimiya yangi so‘zlar yaratish vositasi bo‘ladi: masalan, norasmiy ingliz tilida “*box*” (*quti*) so‘zi “*televideniyada namoyish etish*” ma’nosini anglatadigan yangi so‘zga aylangan, chunki eski televizor qutiga o‘xshaydi. Nihoyat, yangi so‘z lug‘atda mustahkamlanadi va tilning leksik fondiga kiradi. Bu turdagi metonimiyalar monolingual hisoblanadi. Agar metonimiya ikki til o‘rtasida kuzatilsa, biz metonimik tarjima bilan shug‘ullanamiz, bu esa ikki til strukturalari o‘rtasidagi metonimik munosabatlarga asoslangan leksik yoki murakkab o‘zgarish sifatida ta’riflanishi mumkin. 1. *The pen is mightier than the sword* - Qalam, qilichdan o‘tkir. 2. ‘... lekin ayrim bolalar bu to‘g‘risida domlani ana-mana bilan aldab ketarlar...edilar’ (A. Qodiriy ‘Mehrobdan chayon’) ‘But... most children would lie the master with usual ‘ok and alright.’ (A. Kodiriy “Scorpion from the altar”)¹⁶

b) badiiy tarjimada sinekdoxa bilan bog‘liq muammolar. Badiiy tarjimada sinekdoxa bilan bog‘liq muammolar bir nechta asosiy jihatlardan iborat: sinekdoxa orqali ifodalangan ma’no tarjimada yo‘qolishi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Masalan, “yoshlar” so‘zi “barcha yoshdagi odamlar” ma’nosida ishlatilsa, tarjimada bu nuqtani aniq ifodalash qiyin bo‘lishi mumkin. Sinekdoxa ko‘pincha ma’lum bir madaniyatga xos bo‘ladi. Tarjimon bu kontekstni hisobga olmasa, asarning badiiyligi va ma’nosi kamayishi mumkin. Misol uchun, “oila” so‘zi ko‘pincha “ota-onalar” yoki “barcha qarindoshlar” deb tarjima qilinadi, bu esa asar muallifining niyatini to‘g‘ri aks ettirmasligi mumkin. Badiiy asarlar ko‘pincha badiiy uslublarda yozilgan, va sinekdoxa bu uslubning ajralmas qismidir. Tarjimon ushbu badiiy uslubni saqlab qolishi kerak, aks holda asarning o‘ziga xosligi yo‘qolishi mumkin. **Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”** asarida “shahar” so‘zi, shahar aholisini anglatishda ishlatiladi. Tarjimon bu nuqtani to‘g‘ri ko‘rsatmasa, o‘quvchilar noto‘g‘ri tushunishi mumkin. **Chingiz Aytmatovning “Jamila”** asarida “qiz” so‘zi, faqat bir yosh qizni emas, balki butun qizlar avlodini anglatishi mumkin.

c) badiiy tarjimada metofra bilan bog‘liq muammolar. Metofra — bu tasviriy ifoda bo‘lib, bir narsaning ma’nosini boshqa narsaga o‘xshashlik asosida o‘tkazadi: stolning oyog‘i. Agar asl metafora biroz noaniq va unchalik muhim bo‘lmasa, uni tavsiflovchi ifoda bilan

¹⁵Jorj Orvel. “1984”. www.assaxiy.uz

¹⁶ Iskanova N. Transmitting Languages Transmitting cultures. LAP LAMBERT Academic Publishing. 2020, page 33

almashtirish mumkin. Masalan: “*Bu menga otilgan toshlarmi?*” Frazologik birliklar ham metaforik (birovlarini xatosiga o‘qish; pashshadan fil yasamoq) ham non-metaforik (qatnashmoq) bo‘lishi mumkin. Metaforik frazeologiya odatda idiomlar deb ataladi. Metaforik tasavvur, muloqotda aloqani o‘rnatish va baham ko‘rilmagan tajribani ifodalashda muhim ko‘nikmadir. Metaforalar til va nutqqa tegishli bo‘lishi mumkin. Til metaforalari (*Yomg‘ir yog‘yapdi. Tishlarimni qoplatdim, chunki ular juda yomon ahvolda edi*). Odatda, ona tilida so‘zlashuvchi bu tasvirni anglamaydi, lekin chet tillarni o‘rganayotganlar uchun bu juda ifodali bo‘lishi mumkin, chunki uning tasviriy ma‘nosi ularga yangilik bo‘lishi mumkin. Metaforalar bitta (bir so‘z) va kengaytirilgan (birikma, jumla, maqol, to‘liq tasavvur matni) bo‘lishi mumkin. Masalan: “...*tarixning bizga xabar berishicha,*...”/...*as history informs us, .../according to historical records (data, metaphor)*. Masalan: “*It was raining cats and dogs and two little puppies fell on my writing table.*”¹⁷ Ushbu jumlaning o‘zbek tiliga tarjima qilayotganda, so‘zma-so‘z tarjima qilishimiz mumkin emas. “*Yomg‘ir kuchli yog‘yapti*” o‘rniga “*chelaklab yomg‘ir yog‘moq*” degan boshqa ekvivalentni berishimiz mumkin.

“After You” (2015) – *Me Before You*ning davomiy qismi boʻlib, Louisa Clarkning shaxsiy oʻsish jarayonini va qaygʻu bilan kurashish sayohatini izchil tasvirlaydi. Ushbu roman orqali Moyes oʻquvchini shaxsiy travma va qaygʻu bilan yuzlashish jarayoni, shuningdek, ichki motivatsiya va qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilishga chorlaydi. Bu esa asarning psixologik chuqurligi va maʼnaviy tafakkurini oshiradi.

“Still Me” (2018) romanida Louisa Clark seriyasining yakuniy qismi sifatida shaxsiyat, professional faoliyat va shaxsiy roʻyobga erishish masalalari koʻrib chiqiladi. Asar oʻquvchiga zamonaviy ayolning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi muammolarini tahlil qilish imkoniyatini beradi va shaxsiy oʻsish hamda qaror qabul qilish jarayonlarining murakkabligini ochib beradi.

“The Giver of Stars” (2019) – tarixiy roman boʻlib, Buyuk depressiya davrida Kentukidagi haqiqiy Packhorse kutubxonachilarining hayotini yoritadi. Moyes ushbu asarda doʻstlik, jasorat va kitoblarning inson hayotini oʻzgartirishdagi transformatsion kuchini koʻrsatadi. Roman tarixiy voqealarni realistik tafsilotlar bilan tasvirlab, oʻquvchiga oʻsha davr ijtimoiy muhitini tushunishga imkon beradi.

“The Last Letter from Your Lover” (2008) asari romantik drama janriga mansub boʻlib, ikki vaqt chizigʻini birlashtiradi. Ushbu roman sevgi, xotira va yarashish mavzularini chuqur tadqiq etadi. Moyesning uslubi hikoya strukturasi va vaqt oʻqi orqali oʻquvchiga hissiy izlanish va shaxsiy qaror qabul qilish jarayonlarini yanada yaqqol tushunishga yordam beradi. Shu tarzda, Moyesning romanlari nafaqat hissiy qirralari bilan, balki murakkab ijtimoiy va axloqiy kontekstlarni ochib berishi bilan ilmiy adabiy tahlil uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. U asarlari orqali zamonaviy inson tajribasini, axloqiy dilemmalarni va shaxsiy oʻsish jarayonlarini oʻrganish imkoniyatini beradi. Jojo Moyesning romanlari zamonaviy ingliz adabiyotida hissiy realizm, murakkab psixologik portretlar va axloqiy izlanishlar bilan ajralib

turadi. Uning asarlari o'quvchida nafaqat estetik zavq uyg'otadi, balki insoniy tajriba, ijtimoiy normalar va shaxsiy qadriyatlar haqida chuqur mulohaza yuritishga imkon yaratadi. Moyesning ijodiy uslubi va tematik yo'nalishlari o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, ularni akademik tahlil qilish ko'plab adabiy va psixologik jihatlarni o'rganish imkonini beradi.

Jojo Moyes ko'plab romanlarni nashr qilgan, ularning aksariyati zamonaviy romantika, tarixiy roman va drama janrlariga kiradi. Eng mashhur asarlari quyidagilar:

Me Before You (2012) – Louisa Clark va Will Traynor hikoyasini tasvirlaydi, sevgi, nogironlik, avtonomiya va axloqiy dilemmani o'rganadi. Kitobning hissiy chuqurligi va murakkab personajlarni realistik tasviri uning global muvaffaqiyatiga hissa qo'shgan.

After You (2015) – *Me Before You* ning davomi bo'lib, Louisa ning o'zini kashf etish va qayg'u bilan kurashish sayohatini kuzatadi.

Still Me (2018) – Louisa Clark seriyasining yakuniy qismi bo'lib, shaxsiyat, ish va shaxsiy ro'yobga e'tibor qaratadi.

The Giver of Stars (2019) – Buyuk depressiya davrida Kentukidagi haqiqiy Packhorse kutubxonachilari haqida tarixiy roman. Ushbu roman do'stlik, jasorat va kitoblarning o'zgartiruvchi kuchini yoritadi.

The Last Letter from Your Lover (2008) – Ikki vaqt chizig'ini birlashtirgan romantik drama bo'lib, sevgi, xotira va yarashish mavzularini o'rganadi.

Ushbu maqola Jojo Moyes ijodining zamonaviy ingliz adabiyotidagi o'rnini belgilash, uning asarlarida hissiy realizm va ijtimoiy kommentariyning o'zaro uyg'unlik mexanizmlarini ochib bergandir. Adibaning yetakchi romanlari bo'yicha mavzular uyg'unligini aks ettirgan holda romantika va psixologik drama elementlarini uyg'unlashtirib, o'quvchini shaxsiy (ichki) va ijtimoiy (tashqi) ziddiyatlar kesimida yuzlashtiradigan o'ziga xos badiiy makon yaratishi ochib berilgan hisoblanadi. Psixologik portret, ichki monolog, konflikt dinamikasi va tabiiy dialoglar o'quvchi empatiyasini kuchaytiruvchi asosiy strategiyalar sifatida namoyon bo'lishi, personajlarning axloqiy tanlovlari va ruhiy kechinmalarini ishonarli va murakkab ko'rinishda aks ettirilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BBC. (2016). Jojo Moyes: Writing and inspiration. BBC Arts.
2. James E. "Romance, Popular Fiction and Literary Value". Routledge
3. Moyes J. "Sheltering rain" Hodder & Stoughton (2002)
4. Moyes J. "The last letter from your lover". Penguin books (2011)
5. The Guardian. (2016). *Me Before You film sparks debate over disability portrayal*. The Guardian.
6. Moyes, J. (2012). *Me Before You*. Penguin Books.
7. Moyes, J. (2012). *The Girl You Left Behind*. Penguin Books.
8. Moyes, J. (2015). *After You*. Penguin Books.
9. Moyes, J. (2018). *Still Me*. Penguin Books.
10. Moyes, J. (2019). *The Giver of Stars*. Penguin Books.
11. Penguin Random House. (2020). *Jojo Moyes – Author biography*. Penguin Books UK.



12. Penguin Random House. (2020). *Jojo Moyes – Author biography*. Penguin Books UK.

13. The Guardian. (2016). *Me Before You film sparks debate over disability portrayal*. The Guardian.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Tursunova Marxabo Raxmonovna
Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri
tursunovamarhabo58@gmail.com

UNDERSTANDING ARTHURIAN LEGENDS AND CENTRAL ASIAN EPICS THROUGH COMPARATIVE ANALYSIS



Xakimova Nargiza Xayrilloyevna

Doctoral student at Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: Heroic epics and legends represent the pinnacle of human mythical creativity, converting historical events into symbolic tales of moral and cosmic importance. They keep spiritual ideas and shared values alive throughout cultures. From the Arthurian cycle in medieval Britain to the Central Asian Alpamysh, these stories have a mythical language, including miraculous births, holy objects, heavenly mentors, and heroes who are meant to be. This shows both universal archetypes and regionally unique ways of showing valor and moral order.

THE GOAL: This research aims to examine the mythical components found in the Arthurian stories with the Uzbek epic Alpamysh, highlighting their common archetypal patterns and unique cultural adaptations. It looks at how these faiths utilize supernatural symbols, moral codes, and cosmological images to show what they think about leadership, divine intent, and community identity.

MATERIALS AND METHODS: This study utilizes a comparative and interdisciplinary approach, integrating literary analysis, folklore studies, and cultural anthropology. Primary sources include Arthurian chronicles (Geoffrey of Monmouth, Thomas Malory) and oral Central Asian epics (Manas, Koblandy Batyr, Alpamysh), supplemented by secondary research (Campbell, Propp, Reichl, Eliade).

The structuralist perspective delineates repeating elements such as miraculous birth, divine weaponry, supernatural assistance, prophesy, and heroic trials, analyzed via Joseph Campbell's concept of the "monomyth" and Vladimir Propp's narrative morphology. Philological and contextual research situates both narratives within their respective cultural milieus: feudal Christian Britain and nomadic Islamic-Tengrist Central Asia. Symbolic and functional interpretations demonstrate that these epics act as vehicles of cultural continuity, conveying societal ideals and fortifying moral frameworks.

Arthurian literature is analyzed for its amalgamation of Celtic mythology and Christian theology, while Alpamysh exemplifies the integration of shamanic cosmology and Islamic ethics. This comparative approach emphasizes both universal mythological themes and unique local adaptations, demonstrating how each tradition navigates the interplay between human heroics, heavenly approval, and moral fate.

CONCLUSION: The Arthurian cycle and Alpamysh show how people across the world share a mythical legacy. In these stories, heroes are born under divine signs, directed by

destiny, given holy power, and put to the test by moral and cosmic trials. But each one shows different cultural values. For example, Arthur represents chivalric duty and divine kingship, whereas Alpamysh represents nomadic bravery and clan loyalty. Both bring together spiritual and societal goals, turning human experience into a lasting myth. Their ageless significance is in the assertion that within every society, myth perpetuates hope for rejuvenation via a selected hero who reinstates equilibrium between chaos and order.

Keywords: Arthurian legends; *Alpamysh*; heroic epic; mythology; comparative literature; Central Asia; Celtic myth; Tengriism; Joseph Campbell; Vladimir Propp; intercultural analysis; divine kingship; nomadic heroism.

ПОНИМАНИЕ ЛЕГЕНД О КОРОЛЕ АРТУРА И СРЕДНЕАЗИАТСКИХ ЭПОСОВ ЧЕРЕЗ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Хакимова Наргиза Хайрилловна

Докторант Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Героические эпосы и легенды представляют собой вершину человеческого мифологического творчества, преобразуя исторические события в символические повествования о моральной и космической значимости. Они хранят духовные идеи и общие ценности, живущие в разных культурах. От Артуровского цикла в средневековой Британии до центральноазиатского «Алпамыша» эти истории обладают мифологическим языком, включающим чудесные рождения, священные объекты, небесных наставников и героев, предназначенных для своей миссии. Это демонстрирует как универсальные архетипы, так и регионально уникальные способы изображения доблести и морального порядка.

ЦЕЛЬ: Данное исследование направлено на изучение мифологических компонентов, обнаруженных в Артуровских легендах и узбекском эпосе «Алпамыш», с выделением их общих архетипических паттернов и уникальных культурных адаптаций. Оно рассматривает, как эти традиции используют сверхъестественные символы, моральные кодексы и космологические образы, чтобы показать свои представления о лидерстве, божественном предназначении и общинной идентичности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В данном исследовании используется сравнительный и междисциплинарный подход, интегрирующий литературный анализ, фольклористику и культурную антропологию. Первоисточники включают Артуровские хроники (Гальфрид Монмутский, Томас Мэлори) и устные центральноазиатские эпосы («Манас», «Кобланды батыр», «Алпамыш»), дополненные вторичными исследованиями (Кэмпбелл, Пропп, Райхл, Элиаде).

Структуралистская перспектива выявляет повторяющиеся элементы, такие как чудесное рождение, божественное оружие, сверхъестественная помощь, пророчества и героические испытания, анализируемые с помощью концепции «мономифа» Джозефа Кэмпбелла и нарратологической морфологии Владимира Проппа. Филологические и контекстуальные исследования помещают оба повествования в их соответствующие культурные среды: феодальную христианскую Британию и кочевую исламско-тенгрианскую Центральную Азию. Символические и функциональные интерпретации

демонстрируют, что эти эпосы действуют как средства культурной преемственности, передавая общественные идеалы и укрепляя моральные (framework).

Артуровская литература анализируется с точки зрения её слияния кельтской мифологии и христианской теологии, в то время как «Алпамыш» является примером интеграции шаманской космологии и исламской этики. Этот сравнительный подход подчеркивает как универсальные мифологические темы, так и уникальные локальные адаптации, демонстрируя, как каждая традиция осваивает взаимодействие между человеческой героикой, небесным одобрением и моральной судьбой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Артуровский цикл и «Алпамыш» показывают, как люди по всему миру разделяют общее мифологическое наследие. В этих историях герои рождаются под божественными знаками, направляются судьбой, получают священную силу и подвергаются испытаниям морального и космического характера. Но каждый из них показывает различные культурные ценности. Например, Артур представляет рыцарский долг и божественное королевство, тогда как Алпамыш представляет кочевую храбрость и верность роду. Оба объединяют духовные и общественные цели, превращая человеческий опыт в непреходящий миф. Их вневременная значимость заключается в утверждении, что внутри каждого общества миф поддерживает надежду на обновление через избранного героя, который восстанавливает равновесие между хаосом и порядком.

Ключевые слова: Артуровские легенды; Алпамыш; героический эпос; мифология; сравнительное литературоведение; Центральная Азия; кельтский миф; тенгрианство; Джозеф Кэмпбелл; Владимир Пропп; межкультурный анализ; божественное королевство; кочевой героизм.

Heroic epics and legends remain some of humanity's most enduring forms of storytelling, transforming historical events into mythic narratives that preserve cultural memory and moral ideals. These tales, though born in different regions and eras, reflect shared archetypes that embody the human quest for meaning, identity, and transcendence (Campbell, 2008; Reichl, 1992). In both Western and Central Asian traditions, heroic narratives reveal a universal "mythological grammar"—motifs such as miraculous birth, divine weapons, supernatural aid, trials of courage, and destiny—that reflect the collective imagination of their peoples.

The Arthurian legends of medieval Britain and the Central Asian epics—such as the Kyrgyz *Manas*, the Kazakh *Koblandy Batyr*, and the Uzbek *Alpamysh*—represent distinct yet structurally similar expressions of the heroic ideal. The Arthurian cycle, first chronicled by Geoffrey of Monmouth in the 12th century and later romanticized by Thomas Malory in the 15th century, fuses Celtic myth, Christian symbolism, and medieval chivalric ethics (Green, 1992; Lacy, 1991). By contrast, Central Asian epics originate in the oral traditions of Turkic and Mongol nomads, deeply intertwined with clan loyalty, horsemanship, and the boundless landscapes of the steppe (Reichl, 1992; Kunanbaeva, 2013).

In both traditions, the hero's birth is extraordinary and predestined. Arthur's conception is made possible by Merlin's magic, symbolizing the intermingling of the human and supernatural (Bromwich, 1978; Ashe, 2004). Similarly, *Alpamysh* begins with prophetic dreams foretelling the hero's birth after his parents' long childlessness—a motif derived from ancient Turkic cosmology, in which dreams and sacred animals act as divine messengers (Bello, 2015; Kunanbaeva, 2013). Thus, both heroes are born not merely as individuals but as instruments of cosmic will.

Heroic legitimacy in both traditions is expressed through sacred objects. Arthur draws the sword from the stone, signifying his divine right to rule, and later receives Excalibur from

the Lady of the Lake—a symbol of heavenly favor and royal duty (Loomis, 1993). In *Alpamysh*, the hero wields a bow forged by a heavenly blacksmith and blessed by ancestral spirits (Kunanbaeva, 2013). While Excalibur represents divine kingship, *Alpamysh*'s bow emphasizes defense of kin and tribe. Both serve as material affirmations of the hero's alignment with the sacred.

Supernatural mentors guide both heroes through destiny's trials. Merlin, a magician-prophet and political advisor, represents the dual nature of fate—he aids Arthur's rise yet foresees his fall (Ashe, 2004). In Central Asian epics, mentors often appear as shamans, ancestral spirits, or wise elders who provide counsel through dreams and visions (Reichl, 1992). Such figures embody the connection between human endeavor and cosmic order, affirming that heroism is both divinely sanctioned and morally tested.

The physical landscapes in these narratives are active participants rather than passive settings. In Arthurian legend, Avalon—the mystical island to which Arthur is taken after his final battle—symbolizes the Celtic Otherworld, a place of eternal youth and mystery (Green, 1992). It embodies both consolation and uncertainty: Arthur's departure signifies hope for his return. In *Alpamysh*, sacred mountains, rivers, and the steppe itself serve as thresholds between human and spirit worlds (Bello, 2015). The steppe, vast and perilous, mirrors the nomadic ideal of freedom and endurance, but also humanity's vulnerability to the forces of nature and fate.

The moral frameworks of Arthurian and Central Asian epics reflect their respective social systems. The Arthurian hero embodies the medieval chivalric code—loyalty, honor, protection of the weak, and service to God (Barber, 2004). The Round Table represents an ideal of moral equality constantly tested by human flaws such as envy and betrayal. Conversely, in *Alpamysh*, valor, loyalty to the clan, and mastery of horsemanship define moral worth (Reichl, 2000). The hero's trials are less about courtly dilemmas and more about defending family, tribe, and freedom. Both, however, define heroism as moral integrity validated through action.

Both traditions demonstrate religious syncretism. Arthurian legends merge Celtic paganism with Christian theology: the Grail quest transforms the pagan cauldron of plenty into a Christian relic symbolizing divine grace and redemption (Weston, 1993). Central Asian epics, meanwhile, integrate shamanic and Tengriist motifs—ancestral spirits, sacred dreams, sky gods—with Islamic invocations and Quranic references (Bello, 2015; Kunanbaeva, 2013). This blending reveals how oral traditions absorb new religious systems while retaining deep-rooted mythological imagery.

Prophecy plays a central role in both Arthur's and *Alpamysh*'s destinies. Merlin's visions predict Arthur's rise and fall, framing his story as a tragic cycle of divine favor and inevitable decline (Lacy, 1991). Arthur's final journey to Avalon is both an end and a promise of renewal—the archetype of the “king who will return” (Ashe, 2004). In *Alpamysh*, prophecies are hopeful, assuring victory and continuity after hardship (Reichl, 1992). The differing tones reflect cultural attitudes toward fate: the Christianized Arthurian world sees tragedy as divine justice, while the nomadic cosmology of Central Asia celebrates endurance and renewal.

Comparative analysis of these traditions is not merely permissible but methodologically sound. Both belong to the broader family of oral and written narrative traditions that transmit collective memory and encode moral, cosmological, and social values (Eliade, 1963; Dundes, 2007). As Campbell's (2008) concept of the “monomyth” and Propp's (1968) morphological analysis suggest, heroic narratives worldwide follow recurring structures: miraculous birth, trials, supernatural aid, and confrontation with chaos. These universal patterns allow for meaningful comparison between the Arthurian cycle and *Alpamysh* without erasing their cultural specificity.

Functionally, both epics serve as repositories of cultural identity and instruments of moral instruction. They reinforce collective values—whether loyalty and faith in medieval Christendom or kinship and bravery in nomadic societies—and thus ensure cultural continuity (Hobsbawm & Ranger, 1983; Lord, 1960). Comparative mythology, as developed by scholars like Dumézil (1988) and Eliade (1963), further validates such parallels by showing how shared archetypes manifest differently across civilizations.

The study of these traditions benefits from an interdisciplinary approach. Philology traces textual transmission, anthropology examines performance and oral practice, while literary criticism interprets symbolism and style (Reichl, 1992; Foley, 2002). Genre distinctions—legend versus epic—enhance rather than hinder comparison. While legends are concise, semi-historical tales, and epics are expansive poetic works, both belong to the same continuum of traditional narrative forms (Honko, 1998). Recognizing their differences allows scholars to understand how feudal and nomadic societies shaped narrative expression according to their moral and environmental realities.

Arthurian legends and the Central Asian epic *Alpamysh* illustrate two culturally distinct yet structurally related expressions of the heroic myth. Arthur, a king chosen by divine will, embodies the fusion of Celtic mythology and Christian chivalry, where royal power is both a privilege and a spiritual burden. *Alpamysh*, the nomadic warrior-hero, represents the defense of clan and freedom, guided by ancestral spirits and cosmic destiny. Both heroes traverse sacred landscapes, wield divine weapons, and fulfill prophecies that define their people's moral universe.

Their endurance lies not only in entertainment but in their capacity to reflect the highest ideals and deepest anxieties of their societies. From the misty hills of Britain to the vast steppes of Central Asia, these tales affirm a universal truth: in times of chaos, humanity imagines a hero who restores order, embodying the eternal aspiration to align human life with the cosmic order.

REFERENCES

1. Ashe, G. (2004). *The Discovery of King Arthur*. Sutton.
2. Barber, R. (2004). *The Holy Grail: The History of a Legend*. Penguin.
3. Bello, P. (2015). *Myths and Epics of Central Asia: The Steppe as a Cultural Landscape*. Routledge.
4. Bromwich, R. (1978). *Trioedd Ynys Prydein: The Triads of the Island of Britain*. University of Wales Press.
5. Campbell, J. (2008). *The Hero with a Thousand Faces*. New World Library.
6. Dumézil, G. (1988). *Myth and Epic: Three Essays on Indo-European Religion*. University of Chicago Press.
7. Dundes, A. (2007). *The Meaning of Folklore*. University Press of Colorado.
8. Eliade, M. (1963). *Myth and Reality*. Harper & Row.
9. Foley, J. M. (2002). *How to Read an Oral Poem*. University of Illinois Press.
10. Green, T. (1992). *Concepts of Arthur*. Tempus.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xakimova Nargiza Xayrilloyevna

Osiyo Xalqaro Universiteti tayanch doktoranti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

nargizkhakimova92@gmail.com

TIBBIY BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH



Jumayeva Shoista Boltayevna

*Buxoro davlat tibbiyot instituti,
tibbiy biologiya kafedrasi assistenti,*

Annotatsiya

KIRISH: Ushbu maqolada tibbiy biologiya fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, tibbiy biologiya fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish bilim darajasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy shartlaridan biridir. Talabalarining fanga oid bilimlarini shakllantirish va ularda fanlararo integratsiyani amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shuningdek, fanni samarali o'qitishda talabalarining faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan usullarni qo'llashning afzalliklari bayon etilgan.

MAQSAD: Tibbiy biologiya fanini o'qitishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish orqali ularning bilim, ko'nikma va pedagogik malakalarini oshirish. Amaliy va nazariy bilimlarni uyg'unlashtirish. Talabalarni amaliy va nazariy bilimlar bilan tanishtirish hamda ularni amaliyotda qo'llashning samarali usullari bilan tanishtirish.

MATERIALLAR VA USULLAR: Talabalarni bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ilmiy-texnik vositalar va texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, o'quv-metodik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada yuqorida keltirilgan manbalarda batafsil tavsiyalar mavjud.

XULOSA. Tibbiy biologiya fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanib, talabalarining nazariy va amaliy bilimlarini oshirish bilan birga, ularning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Buning uchun talabalar nafaqat zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni bilishlari, balki ularni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli joriy etish bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lishlari lozim. Shu sababli, pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish jarayoni tizimli va uzluksiz bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar: interfaol usul, pedagogik texnologiya, tibbiy biologiya, talaba faolligi, klaster, akvarium, aqliy hujum.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ МЕДИЦИНСКОЙ БИОЛОГИИ

Жумаева Шоиста Болтаевна

*Бухарский государственный медицинский институт,
ассистент кафедры медицинской биологии,*

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье освещается значение использования современных педагогических технологий и интерактивных методов при преподавании медицинской биологии. В настоящее время внедрение инновационных подходов и современных педагогических технологий в образовательный процесс имеет большое значение для повышения его эффективности. В частности, использование интерактивных методов при обучении медицинской биологии способствует повышению уровня знаний и улучшению качества образования. Формирование у студентов знаний по предмету и развитие их способности к междисциплинарной интеграции является одной из актуальных задач современного образования. Кроме того, в статье рассматриваются преимущества применения методов, направленных на повышение активности студентов, развитие самостоятельного мышления и формирование научного мировоззрения.

ЦЕЛЬ: Совершенствование методических подходов при преподавании медицинской биологии с целью повышения уровня знаний, умений и педагогических навыков студентов. Сочетание теоретических и практических знаний. Ознакомление студентов с практическими и теоретическими знаниями, а также с эффективными способами их применения на практике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для развития знаний и навыков студентов важно использовать научно-технические средства и технологии, а также совершенствовать систему учебно-методической поддержки. Подробные рекомендации по данному вопросу приведены в вышеуказанных источниках.

ВЫВОДЫ: Использование интерактивных методов при преподавании медицинской биологии способствует повышению теоретических и практических знаний студентов, а также активизации их участия в образовательном процессе. Для этого студенты должны не только уметь пользоваться современными технологиями, но и успешно внедрять их в образовательный процесс, обладая высокой квалификацией. Поэтому процесс освоения педагогических технологий должен быть системным и непрерывным.

Ключевые слова: интерактивный метод, педагогическая технология, медицинская биология, активность студентов, кластер, аквариум, мозговой штурм.

USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING MEDICAL BIOLOGY

Jumaeva Shoista Boltayevna

Bukhara State Medical Institute,

Assistant of the Department of Medical Biology,

Annatation.

INTRODUCTION: This article highlights the importance of using modern pedagogical technologies and interactive methods in teaching medical biology. Currently, the implementation of innovative approaches and modern pedagogical technologies in the educational process plays a significant role in increasing its effectiveness. In particular, the use of interactive methods in teaching medical biology contributes to enhancing students' knowledge levels and improving the quality of education. The formation of subject-specific

knowledge and the development of students' abilities for interdisciplinary integration are among the most pressing issues of modern education. Furthermore, the article outlines the advantages of applying methods aimed at increasing student engagement, fostering independent thinking, and shaping a scientific worldview.

THE GOAL: To improve methodological approaches in teaching medical biology in order to enhance students' knowledge, skills, and pedagogical competencies; to integrate theoretical and practical knowledge; and to familiarize students with both theoretical and practical knowledge, as well as effective ways of applying it in practice.

MATERIALS AND METHODS: To develop students' knowledge and skills, it is important to use scientific and technical tools and technologies, as well as to improve the system of educational and methodological support. Detailed recommendations on this matter are provided in the sources mentioned above.

CONCLUSIONS: The use of interactive methods in teaching medical biology contributes not only to the improvement of students' theoretical and practical knowledge but also to increasing their participation in the educational process. For this purpose, students must not only be able to use modern technologies but also successfully implement them in the educational process, possessing a high level of competence. Therefore, the process of mastering pedagogical technologies should be systematic and continuous.

Keywords: interactive method, pedagogical technology, medical biology, student engagement, cluster, aquarium, brainstorming.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, tibbiy yo'nalishdagi fanlarni, jumladan, tibbiy biologiya fanini o'qitishda an'anaviy uslublardan farqli ravishda interfaol usullar orqali talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Interfaol usullar o'quv jarayonida o'qituvchi va talabalarning faol muloqotda bo'lishini ta'minlaydi, nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan bog'laydi hamda fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Tibbiy biologiya fanining o'qitishdagi o'ziga xosligi shundaki, u biologiyaning fundamental qonunlarini tibbiyot sohasida qo'llash imkonini beradi. Bu fan orqali talabalar tirik organizmlar tuzilishi, funksiyasi va irsiy xususiyatlarini chuqur o'rganadilar. Shu bois, fanni o'qitishda interfaol usullardan samarali foydalanish juda muhim.

“Klaster” usuli

Bu usul ma'lumotlarni tizimli ravishda tuzish, asosiy tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash imkonini beradi. Masalan, “Hujayrada kechadigan moddalar almashinuvi” mavzusini o'rganishda talabalar markazga asosiy tushunchani yozib, undan chiqadigan tarmoqlar orqali organoidlarning vazifalarini ifodalaydilar. “Organizmlarning ko'payishi” mavzusida talabalar ko'payishning turlari 2 ga bo'linishini — jinsiy ko'payish va jinsiy bo'lmagan (vegetativ) ko'payish ajralishini tushunishlari zarur. Jinsiy ko'payishda ikkita ota-ona ishtirok etadi, yangi organizm gametalar (spermatozoid va tuxum) orqali hosil bo'ladi, genetik xilma-xillik mavjudligi hamda meiosis jarayoni bilan bog'liq tushuntiriladi. Jinsiy bo'lmagan (vegetativ) ko'payishda esa bitta ota-onadan yangi organizm hosil bo'ladi, hujayra bo'linishi, urug'siz poyalar, novdalar orqali sodir bo'ladi, tez va samarali, genetik jihatdan ota-onaga o'xshash yangi hujayralar paydo bo'lishi tushuniladi. Bu usul talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

“Aqliy hujum” usuli

Bu usul talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Pedagog savol yoki muammoli holat qo'yadi va talabalar erkin tarzda o'z fikrlarini aytadilar. Masalan, "Irsiy kasalliklar: xromosoma va gen kasalliklari", "Mitoz. Mitotik sikl", "Meioz va uning biologik ahamiyati", "Parazitologiya, parazitlarning kelib chiqish sabablari" mavzusida fikrlar yig'iladi. Bu usul orqali talabalar erkin va ochiq fikr almashish, muayyan masala yoki muammoni yechishga qaratilgan ijodiy va tahliliy fikrlashni o'rganadilar. Bu usulda har qanday fikr qabul qilinadi.

"Akvarium" usuli

Bu usulda talabalar "Ibn Sino" va "Gippokrat" deb nomlangan guruhlariga bo'linib, ma'lum mavzuda bahs yoki rolli o'yin tashkil etiladi. Masalan, "Organizmlarning embrional rivojlanishi", "Mendelning 1- va 2- qonunlari", "Ekologiya. Inson ekologiyasi" mavzusida ikki guruh bahslashadi. Bu usul tibbiy biologiya fanini o'qitishda talabalarning faolligini oshiradi, ularni ilmiy fikrlashga, muloqot madaniyatiga, dalillarga asoslangan suhbatga va jamoaviy ishga tayyorlaydi. Bu usul orqali talabalar biologik tushunchalarni nafaqat eslab qoladilar, balki ularni hayotiy va amaliy misollar bilan izohlashni ham o'rganadilar.

"Keys-stadi" usuli

Amaliyot bilan bog'liq muammoli holatlar orqali o'qitish usuli bo'lib, tibbiy fanlar uchun ayniqsa dolzarbdir. Masalan, "Irsiy kasalliklar. Xromosoma va gen kasalliklari" mavzusi asosida "Irsiy sindrom aniqlangan bemor misolida genetik maslahat berish" holati o'rganilishi mumkin. Bu usul orqali talabalar nazariy bilimni hayotga tatbiq etishni o'rganadilar. Bu usul zamonaviy ta'limda eng samarali usullardan biri bo'lib, u talabalarni real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilishga, ilmiy asosda yechim topishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Bu usul tibbiy biologiya fanini o'qitishda talabalarning kasbiy fikrlashini shakllantiradi va ularni kelgusidagi amaliyotga tayyorlaydi.

Tibbiy biologiya fanini interfaol usullar orqali o'qitish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi natijasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, tahlil qilish va muammolarni yechish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Interfaol usullar — "Akvarium", "Keys-stadi", "Aqliy hujum" kabi usullar talabalarning faol fikrlashini, ilmiy izlanishga intilishini va jamoada hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday usullar orqali ta'lim jarayonida talabalarning intellektual salohiyati, mustaqil tahlil va qaror qabul qilish qobiliyati oshadi, ularda fanga nisbatan chuqur qiziqish va ijodiy yondashuv shakllanadi. Shu bilan birga, talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida "talaba shaxsi markazda" tamoyilini ta'minlab, o'qituvchining roli bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi va maslahatchi sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa tibbiy biologiya sohasida kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va mustaqil bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, interfaol usullardan foydalangan holda tibbiy biologiya fanini o'qitish ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'taradi, talabalarda nazariy bilim bilan birga amaliy faoliyatga tayyorgarlik, ilmiy-izlanuvchanlik va kasbiy kompetensiyalar rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva N., Rahimova M. *"Biologiya ta'limida innovatsion usullar"*. – Toshkent, 2022.
2. Boltaeva Sh.A. *Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish*. Osiyo xalqaro axborotnomasi, 2025. № 2. 96–101.
3. Mirziyoyev Sh.M. *"Yangi O'zbekiston strategiyasi"*. – Toshkent, 2021.



4. Pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar to'plami. – Toshkent, 2020.
5. Seïtova G. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent, 2019.
6. Xidirova N.Sh. *Yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim va tarbiyaning o'rni. – Ta'limda innovatsiyalar va integratsiya*, №18, 2-son, 2024-yil aprel, B. 157–160.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Jumayeva Shoista Boltayevna

Buxoro davlat tibbiyot instituti, tibbiy biologiya kafedrasida assistenti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

**O'QUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TIBBIYOT OLİYGOHLARIDA
“TIBBIY BIOLOGIYA” FANINI O'QITISHDA “SKANVORD VA RAQAMLI
TEKNOLOGIYA METODI” METODIDAN FOYDALANISH**
(Hujayra biologiyasi misolida)



Nazarova Firuza Ilxomovana

Buxoro davlat tibbiyot inistituti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada tibbiyot oliygohlarida “Tibbiy biologiya” fani o‘qitishda samarali (hujayra biologiyasi misolida) o‘qitishning yangi mexanizimlarni joriy etish haqida ma’lumot berilgan. Bu usul kichik guruh va jamoada ishlash o‘rganilayotgan mavzu, muammolari bo‘yicha shaxsiy qarashlarni dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrini himoya qilish, tengdoshlarni tinglay olish bilan alohida ahamyatga ega.

MAQSAD: Tibbiyot oliygohlarida “tibbiy biologiya” fanini o‘qitishda “skanvord va raqamli texnologiya metodi” metodidan foydalanishni ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Bugungi tezkor zamonda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li – mashg‘ulotlarni interfaol usullar yordamida tashkil etish, deb qaralmoqda. Interfaol metodini qo‘lash talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi, mustaqil fikirlashga, ijod qilishga va izlanishga undaydi, shuningdek amaliy ko‘nikmalarni, mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashishini shakllantiradi. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘quv metodlari-interfaol metodlar inovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli kattadir. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuni nazarda tutgan holda tibbiyot oliy ta’lim talabalarida dars jarayonida “Skanvord metodi” metod, “Raqamli diktant” metodidan foydalanib irsiy kasalliklar mavzusini o‘qitish orqali dars jarayonini tashkil qildik. Ushbu metodidining ahamiyati shundan iboratki bu metodda barcha talabani dars jarayonga jalb etish orqali berilgan topshiriqni bahs munozaralar orqali hal etish, undan tashqari tashkil etilgan har bir guruh a’zolaning iqtidorini namoyon qilishiga, ularning fikirlash doirasini bahs-munozara orqali bilib olishga imkon yaratadi. Ushbu metodlar orqali tashkil etilgan dars jarayonida oltita guruhda olti nafardan talaba ishtirok etadi va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq o‘rtaga tashlanib berilgan vaqt davomida bahs-munozara orqali muhokamma qilinadi. Ushbu guruhning har bir ishtirokchisi o‘z fikrlarini bayon qiladi.

XULOSA: Talablar jamoada ishlash o‘rganilayotgan mavzu, muammolari bo‘yicha shaxsiy qarashlarni dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrini himoya qilish, tengdoshlarni tinglay olish bilan alohida ahamyatga ega.

Kalit so‘zlari: an’anaviy ta’lim, talaba, irsiy kasalliklar, o‘qituvchi, guruh, «Skanvord metodi» metod, Raqamli diktant metodi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «СКАНВОРД И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «МЕДИЦИНСКАЯ БИОЛОГИЯ» В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ

(На примере биологии клетки)

Назарова Фируза Ильхомована

Бухарский государственный медицинский институт

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье представлена информация о внедрении новых механизмов эффективного преподавания предмета «Медицинская биология» (на примере клеточной биологии) в медицинских вузах. Этот метод особенно важен для работы в малых группах и командах, смелого и свободного выражения собственного мнения по изучаемой теме и проблемам, отстаивания собственного мнения и умения слушать коллег.

ЦЕЛЬ: Научно проанализировать применение метода «сканворд и цифровые технологии» при преподавании предмета «Медицинская биология» в медицинских вузах.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В современном быстро меняющемся мире наиболее оптимальным способом повышения эффективности обучения является организация занятий с использованием интерактивных методов. Использование интерактивных методов повышает интерес студентов к науке, стимулирует самостоятельность мышления, творческую и исследовательскую деятельность, а также формирует практические навыки, самостоятельный творческий подход к каждому вопросу. Поэтому современные методы обучения – интерактивные методы, инновационные технологии – играют важную роль в подготовке квалифицированных специалистов в высших учебных заведениях и на факультетах. Преподаватель создает условия для развития, формирования, усвоения знаний и воспитания личности в этом процессе, одновременно выполняя функцию управления и руководства. С этой целью мы организовали учебный процесс для студентов высших медицинских учебных заведений, преподавая тему наследственных заболеваний с использованием метода «Сканворд» и метода «Цифровой диктант». Важность данного метода заключается в том, что он вовлекает всех студентов в процесс урока, решая поставленную задачу путем обсуждения, и, кроме того, позволяет каждой группе проявить свои способности и ознакомиться с особенностями своего мышления в ходе обсуждения. На уроке, организованном с использованием этих методов, участвуют шесть студентов, разбитых на шесть групп, и задание, данное преподавателем, обсуждается в течение отведенного времени путем обсуждения. Каждый участник группы высказывает свои мысли.

ВЫВОД: Требования к командной работе: смело и свободно выражать собственное мнение по изучаемой теме и проблемам, отстаивать собственное мнение и уметь слушать коллег.

Ключевые слова: традиционное образование, ученик, наследственные заболевания, учитель, группа, метод «Сканворд», метод «Цифровой диктант».



USE OF THE "SCANWORD AND DIGITAL TECHNOLOGY METHOD" IN TEACHING THE SUBJECT "MEDICAL BIOLOGY" IN MEDICAL UNIVERSITIES TO INCREASE LEARNING EFFICIENCY (On the example of cell biology)

Nazarova Firuza Ilkhomovana

Bukhara State Medical Institute

Annatation.

INTRODUCTION: This article provides information on the introduction of new mechanisms for effective teaching of the subject "Medical Biology" (on the example of cell biology) in medical universities. This method is of particular importance in working in small groups and teams, boldly and freely expressing personal views on the topic and problems being studied, defending one's own opinion, and listening to peers.

THE GOAL: To scientifically analyze the use of the "scanword and digital technology method" in teaching the subject "Medical Biology" in medical universities

MATERIALS AND METHODS: In today's fast-paced world, the most optimal way to increase the effectiveness of education is to organize classes using interactive methods. The use of interactive methods increases students' interest in science, encourages independent thinking, creativity and research, and also forms practical skills, an independent creative approach to each issue. Therefore, modern teaching methods - interactive methods, innovative technologies play a great role in the training of qualified professionals in higher educational institutions and faculties. The teacher creates conditions for the development, formation, acquisition of knowledge and upbringing of the individual in this process, and at the same time performs the function of management and guidance. With this in mind, we organized the teaching process for students of higher medical education by teaching the topic of hereditary diseases using the "Scanword Method" method and the "Digital Dictation" method. The importance of this method is that this method involves all students in the lesson process, solving the given task through discussions, and in addition, it allows each group to demonstrate its own talents and learn about their thinking through discussions. In the lesson organized using these methods, six students participate in six groups, and the task given by the teacher is discussed during the allotted time through discussions. Each participant in this group expresses their thoughts.

CONCLUSION: The requirements for teamwork are to boldly and freely express personal views on the topic and problems being studied, to defend their own opinions, and to be able to listen to peers.

Keywords: traditional education, student, hereditary diseases, teacher, group, "Scanword method" method, Digital dictation method.

Bugungi tezkor zamonda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – mashg'ulotlarni intyerfaol myetodlar yordamida tashkil etish, deb qaralmoqda. Interfaol metodini qo'lash talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi, mustaqil fikirlashga, ijod qilishga va izlanishga undaydi, sho'ningdek amaliy ko'nikmalarni, mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashishini shakillantiradi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'quv metodlari-interfaol metodlar inovatsion texnologiyalarning o'rni va roli kattadir. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakillanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuni nazarda tutgan holda tibbiyot oliy ta'lim talabalarida dars jarayonida "Skanvord metodi" metod, "Raqamli

diktant” metodidan foydalanib irsiy kasalliklar mavzusini o‘qitish orqali dars jarayonini tashkil qildik. Ushbu metodidining ahamiyati shundan iboratki bu metodda barcha talabani dars jarayonga jalb etish orqali berilgan topshiriqni bahs munozaralar orqali hal etish, undan tashqari tashkil etilgan har bir guruh a’zlaning iqtidorini namoyon qilishiga, ularning fikrlash doirasini bahs-munozara orqali bilib olishga imkon yaratadi. Ushbu metodlar orqali tashkil etilgan dars jarayonida oltita guruhda olti nafardan talaba ishtirok etadi va o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq o‘rtaga tashlanib berilgan vaqt davomida bahs-munozara orqali muhokamma qilinadi. Ushbu guruhning har bir ishtirokchisi o‘z fikrlarini bayon qiladi. Shundan so‘ng, guruh barcha tayyorlangan variantlarni muhokama qilishni tashkil qiladi. Muhokama jarayonida yaqqol xato fikrlar chiqarib tashlanadi, munozarali fikrlarga oydinlik kiritiladi, qolganlari esa ma’lum mezonlar bo‘yicha guruhlanadi.

Skanvord metodi-bu o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va nutq faolligini kuchaytirishga xizmat qiladigan interaktiv ta’lim usulidir. Bu metod krossvordga o‘xshaydi, lekin ko‘ndalang va tik ravishda joylashtirilgan savollarga javob topish asosida amalga oshiriladi. “Skanvord” — bu rus tilidagi "сканворд" (skandinavskiy krossvord) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga ham metod sifatida kirib kelgan.

R	I	B	L	P	L	A	S	V	A	K
G	O	O	I	Z	O	S	T	I	D	U
M	L	S	O	M	A	O	M	A	A	O
I	J	I	N	D	R	I	Y	A	E	P
T	O	X	O	Y	A	D	R	O	T	A

Skanvord metodi maqsadi:

- O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish
- E’tiborini, xotirasini va diqqatini rivojlantirish
- Fikr yuritish qobiliyatini kuchaytirish
- Ta’lim jarayonini qiziqarli va ijodiy qilish

☞ Skanvord metodi Afzalliklari:

- ☒ Darsni qiziqarli qiladi
- ☒ Yod olishni osonlashtiradi
- ☒ Fikr yuritishga o‘rgatadi
- ☒ Mavzuni mustahkamlashga yordam beradi
- ☒ Guruhlarda ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi

R	I	B	L	P	L	A	S	V	A	K
G	O	O	I	Z	O	S	T	I	D	U
M	L	S	O	M	A	O	M	A	A	O
I	J	I	N	D	R	I	YA	E	P	L
T	O	X	O	Y	A	D	R	O	T	A

Skanvord metodi-bu zamonaviy darslarni ko'ngilochar va ta'sirchan qilishning samarali yo'li. Bu metod nafaqat o'quvchilarni zeriktirmaydi, balki ularda **ijtimoiy faoliyat, mustaqil fikr, va mustahkam bilimlar asosini** shakllantiradi.

Raqamli diktant metodi-Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholashda interfaol metodlar muhim o'rin egallaydi. Ular orasida **"raqamli diktant" metodi** o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash, mantiqiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, hamda diqqat-e'tiborini jamlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli diktant — bu qisqa, strukturalashtirilgan test ko'rinishidagi metod bo'lib, unda o'quvchilarga savollar beriladi va ular javob variantlaridan birini raqam orqali tanlab yozadilar. Bu metod o'zining tezkorligi, oddiyligi, va natijalarni operativ tahlil qilish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Raqamli diktant metodi quyidagi zamonaviy ta'lim nazariyalari va yondashuvlari asosida ishlab chiqilgan:

- **Konstruktivistik yondashuv:** O'quvchi o'z bilimini mustaqil ravishda quradi. Javobni tanlash orqali bilimini strukturaviy ko'rinishda ifodalaydi.
- **Faoliyatga asoslangan yondashuv:** O'quvchi darsda passiv emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etadi.
- **Reflektiv yondashuv:** Javoblarni tahlil qilish orqali o'z xatolarini anglash va to'g'rilash imkonini beradi.
- **Bloominig taksonomiyasi** asosida qaraganda, bu metod o'quvchilarning **eslab qolish, tushunish, va qo'llash** darajadagi bilimlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Hujayra haqidagi ta'limot bo'limi yuzasidan raqamli diktant

	Element nomi	Sistema qismi
1.	Genetik axborotni saqlaydi va ko'paytiradi	Yadro va uning vazifalari
2.	Diploid 2 n	
3.	Kariotip	
4.	Moddalar almashinuvini nazorat qiladi	
5.	Gaploid n	

6.	Ribosoma	
7.	Yadro shirasi	
8.	Zog`ora baliqda 108 ta	
9.	Teng yelkali	Xromasoma va uning tarkibiy qismlari
10.	Yadrochalar	
11.	Odamda 48 ta	
12.	Noteng yelkali	
13.	Xromasoma	
14.	Sentromera	
15.	Yadro membranasi	Yardocha
16.	Gomologik xromasomalar	
17.	Xromatin	
18.	Zamburug`, o`simlik va hayvon	
19.	DNK	
20.	r-RNK	

Asosiy maqsad: O`quvchilarning mavzuni o`zlashtirish darajasini *tez va samarali aniqlash, ularning fikrlash faolligini oshirish, hamda mavzuga oid tushunchalarni mustahkamlash.*

Vazifalari:

- O`quvchilar bilimini operativ baholash;
- Tahlil qilish, solishtirish, tanlash ko`nikmalarini shakllantirish;
- O`quvchilarni qisqa muddatda aniq fikr bildirishga o`rgatish;
- Ta`lim jarayonini jonlantirish va faol o`quv muhitini shakllantirish.

Raqamli diktant javob kaliti

YADRO VA UNING VAZIFALARI

1, 4, 7, 10, 15

XROMASOMA VA UNING TARKIBIY QISMLARI

2, 3, 5, 8, 9, 11, 12, 13, 14, 16, 17, 18, 19

YADROCHA

20, 6

Raqamli diktant-bu zamonaviy ta`lim metodikasining **faol o`qitish** yondashuviga asoslangan, **bilimlarni aniqlash va mustahkamlashning** yuqori samarali usulidir. Bu metod yordamida o`quvchilarda nafaqat **mavzuga oid bilimlar**, balki **fikrlash madaniyati, mustaqil**



qaror qabul qilish, va reflektiv o'rganish ko'nikmalari shakllanadi. Uning pedagogik samaradorligi shundaki, o'qituvchi qisqa vaqt ichida ko'plab o'quvchilar bilimini baholashi, o'quvchilar esa o'z bilimini tekshirish va anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Raqamli diktant usulini darslarda to'g'ri rejalashtirib qo'llash-**ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.**

Xulosa o'rnida shun aytish joyizgi bu metod orqali talablar jamoada ishlash o'rganilayotgan mavzu, muammolari bo'yicha shaxsiy qarashlarni dadil, erkin ifodalash, o'z fikrini himoya qilish, tengdoshlarni tinglay olish bilan alohida ahamyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afurov A.T. Fayzullayev S.S., Saidov J. "Genetika osmonidagi zulmatli tunlar" «Ta'lim muammolari» nashriyoti. Toshkent–2015., 180 b.
2. Oliy ta'lim. Meyyoriy huquqiy va uslubiy hujatlar to'plami. "Istiqlol"-T., 2014.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat T., 2006:
4. Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» / qo'llanma. - Qarshi: Nasaf, 2000.
5. Yo'ldoshev J.G'., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari - T., 2004
6. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari - T., 2006

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Nazarova Firuza Ilxomovan
Buxoro davlat tibbiyot inistituti
tibbiy biologiya kafedrasi assistenti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

TA'LIM JARAYONINI TRANSFORMATSIYASIDA - VIRTUAL TA'LIM TEKNOLOGIYANING AHAMIYATI

Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti Pedagogika
kafedrası professori*

Jo'ramurotova Sarvinoz Otabekovna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti doktranti*

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda bo'lg'usi pedagogning innovatsion tayyorgarligi, pedagogik jarayonlarni innovatsion yondoshuvlar asosida qurish samaradorligi, virtual texnologiya orqali pedagogning innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish, virtual texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning bosqichlari va mazmuni tahlil qilingan.

MAQSAD: Ta'lim jarayoni transformatsiyasida virtual ta'lim texnologiyalarining ahamiyatini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Bugungi ta'lim jarayonida virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llash pedagogik innovatsiyaning eng samarali yo'nalishlaridan biridir. Virtual ta'lim yordamida yaratilgan ta'lim muhiti o'quvchilarga nazariy bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, o'z tajribasini mustaqil sinab ko'rish va interfaol tarzda o'rganish imkonini beradi.

XULOSA: Xalqaro tajriba virtual ta'lim ta'lim paradigmasi sifatida ham ahamiyatli ekanini, virtual texnologiyalar nafaqat pedagogning innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yishda, balki ta'lim tizimini xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa milliy ta'lim tizimining rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi va global bilim makonida o'z o'rnini mustahkamlashiga asos yaratadi.

Tayanch so'zlar: virtual ta'lim, virtual ta'lim texnologiya, innovatsion pedagogika, xalqaro tajriba, masofaviy ta'lim, innovatsion faoliyat, ta'lim jarayoni, innovatsion yondoshuv.

ЗНАЧЕНИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Мухсиева Азиза Шамситдиновна

*Профессор кафедры педагогики
Узбекского национального
педагогического университета имени
Низами*

Джурамуротова Сарвиноз Отабековна

*Докторант Национального
педагогического университета
Узбекистана имени Низами*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется инновационная подготовка будущих учителей в условиях модернизации системы образования, эффективность построения педагогических процессов на основе инновационных подходов, реализация инновационной деятельности учителей посредством виртуальных технологий, роль виртуальных технологий в образовательном процессе, их этапы и содержание.

ЦЕЛЬ: Научный анализ значения виртуальных образовательных технологий в трансформации образовательного процесса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Использование виртуальных образовательных технологий в современном образовательном процессе является одним из наиболее

эффективных направлений педагогических инноваций. Созданная с помощью виртуального образования среда обучения позволяет студентам сочетать теоретические знания с практикой, самостоятельно апробировать свой опыт и учиться в интерактивной форме.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Международный опыт показывает, что виртуальное образование важно и как образовательная парадигма, и как виртуальная технология, которая не только способствует инновационной деятельности учителя, но и служит важным фактором повышения международной конкурентоспособности системы образования. Это создаёт основу для вхождения отечественной системы образования в число развитых стран и укрепления её позиций в мировом пространстве знаний.

Ключевые слова: виртуальное обучение, виртуальные образовательные технологии, инновационная педагогика, международный опыт, дистанционное обучение, инновационная деятельность, образовательный процесс, инновационный подход.

THE IMPORTANCE OF VIRTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TRANSFORMING THE EDUCATIONAL PROCESS

Mukhsiyeva Aziza Shamsitdinovna

*Professor of the Department of Pedagogy,
Uzbek National Pedagogical University
named after Nizami*

Juramurotova Sarvinoz Otabekovna

*Doctoral student of the National
Pedagogical University of Uzbekistan
named after Nizami*

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the innovative training of future teachers in the modernization of the education system, the effectiveness of building pedagogical processes based on innovative approaches, the implementation of innovative activities of teachers through virtual technologies, the role of virtual technologies in the educational process, their stages and content.

THE GOAL: Scientific analysis of the importance of virtual educational technologies in the transformation of the educational process

MATERIALS AND METHODS: The use of virtual educational technologies in today's educational process is one of the most effective areas of pedagogical innovation. The learning environment created with the help of virtual education allows students to combine theoretical knowledge with practice, independently test their experience, and learn in an interactive manner.

CONCLUSION: International experience shows that virtual education is important both as an educational paradigm and as a virtual technology that not only facilitates the innovative activity of the teacher, but also serves as an important factor in making the education system internationally competitive. This creates the basis for the national education system to join the ranks of developed countries and strengthen its position in the global knowledge space.

Keywords: virtual learning, virtual educational technology, innovative pedagogy, international experience, distance learning, innovative activity, educational process, innovative approach

Dunyoda XXI asr bu raqamli transformatsiya davri, ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida shaxsni aynan tarbiya olayotgan muhitida uning sub'ektiv o'z-o'zini anglashi jarayonida uning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish vazifasi yetakchi

vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday masalani hal qilish zaruriyati rasmiy organlar tomonidan ta'lim muassasalariga yuklatilgan missiya va jamiyatning taxminlari bilan belgilanadi, bu esa fuqarolarning ta'lim olish jarayonida ijtimoiy vakolatlarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlarini belgilaydi.

Virtual ta'lim – bu masofaviy, interfaol va individual yondashuvlarni uyg'unlashtirgan yangi fenomen bo'lib, dunyo ta'lim tizimida barqaror o'rin egallab bormoqda. UNESCO¹⁸ hamda OECD¹⁹ kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida ta'kidlanishicha, virtual texnologiyalar pandemiya davrida ta'limning uzluksizligini ta'minladi va kelajakda ham barqaror rivojlanishning asosiy omili bo'lib qoladi. Virtual texnologiyalar XXI asr ta'lim fenomeni sifatida an'anaviy ta'limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, balki pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirish, global bilim makoniga chiqish imkonini bermoqda. Shunday qilib, virtual ta'lim – bu kelajak emas, balki hozirning o'zida hayotimizning ajralmas qismiga aylangan ta'lim paradigmasidir.

XXI asrda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash global miqyosda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Innovatsion onlayn loyihalar nafaqat ta'lim sifatini oshirmoqda, balki bilim olish imkoniyatlarini geografik, ijtimoiy va iqtisodiy cheklolardan xoli etmoqda. So'nggi yillarda bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqayotgan yo'nalishlardan biri – virtual reallik (VR) texnologiyalaridir. VR yordamida yaratilgan ta'lim muhitlari o'quvchilarni faqat nazariy bilim bilan cheklab qolmay, balki amaliy tajribaga yaqinlashtiradi. Masalan, pedagogik vaziyatlarni modellash, interaktiv mashg'ulotlar, tajribani VR laboratoriyalarida bajarish, qadimiy shaharlarga virtual sayohat qilib o'rganish imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. Natijada, innovatsion onlayn loyihalar bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib, kelajakda global bilim makonining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Yaponiya oliy ta'lim tizimidagi innovatsion onlayn loyihalardan biri — Japan Virtual Campus taqdim etildi. Bu portal mamlakatning yetakchi universitetlari hamkorligida yaratilgan bo'lib, xalqaro talabalar uchun ham ochiqligi bilan qulay hisoblanadi. JV-Campus o'z oldiga ta'limda “chegaralarsiz o'rganish” tamoyilini qo'yadi. Platforma orqali turli fanlar bo'yicha onlayn kurslar va videodarslar, real dunyo bilan bog'liq amaliyotlar va stajirovkalar, xalqaro hamkorlik va ilmiy almashuv imkoniyatlari yaratilgan. Portalning shiori “From Virtual to Real: A Gateway to Japanese Higher Education” (“Virtualdan Reallikka: Yaponiya oliy ta'limiga kirish eshigi”).²⁰ Bu nafaqat virtual bilim olishni, balki real akademik faoliyatga kirish imkonini ham ta'minlaydi. JV-Campus tajribasi xalqaro ta'lim tizimi uchun yangi model bo'lib, kelajakda boshqa mamlakatlar uchun ham namunaviy loyiha bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Chunki raqamli transformatsiya va VR texnologiyalari asosida shakllanayotgan ta'lim modeli:

¹⁸ UNESCO. (2022). *Education: From COVID-19 school closures to recovery*. Paris: UNESCO. Retrieved from <https://www.unesco.org/en/covid-19/education-response>

¹⁹ OECD. (2023). *Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem*. Paris: OECD Publishing. Retrieved from https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/oecd-digital-education-outlook-2023_c827b81a.html.

²⁰ The Japan Times. (2024, March 28). *Japan Virtual Campus: Learning without borders*. Retrieved from <https://www.japantimes.co.jp/2024/03/28/special-supplements/japan-virtual-campus-learning-without-borders-jv-campus/>.

Milliy ta'lim tizimining innovatsion salohiyatini oshiradi. Virtual reallik, sun'iy intellekt va onlayn platformalar integratsiyasi orqali ta'lim jarayonida yangi metodlar va samaradorlik yuzaga keladi.

O'qituvchilarni global tajribaga yaqinlashtiradi. Metavers va onlayn portal orqali xalqaro hamkorlik, vebinar va konferensiyalarda qatnashish imkoniyati kengayadi.

O'quvchilarda ijodkorlik va mustaqillikni rivojlantiradi. Virtual tajribalar orqali ular nafaqat bilim oladi, balki o'z loyihalarini ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Ta'lim tizimining inkluzivligini ta'minlaydi. Geografik yoki ijtimoiy cheklovlar sababli an'anaviy maktabga qatnasha olmaydigan bolalar ham VR maktablar va onlayn portal orqali ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, virtual texnologiyalarni joriy etish nafaqat ta'lim jarayonini modernizatsiya qiladi, balki mamlakatni xalqaro miqyosda raqobatbardosh bilim iqtisodiyoti sari yetaklaydi. So'nggi yillarda AQShda ta'lim jarayonini to'liq virtual reallikka ko'chirishga qaratilgan loyihalar paydo bo'ldi. Shulardan eng mashhurlaridan biri - Optima Classical Academy bo'lib, u 2022-yilda Florida shtatida ochilgan va dunyo miqyosida *birinchi to'liq VR maktab* sifatida tanilgan.²¹ Bu modelning afzalliklari — o'quvchilarga yuqori darajadagi ta'lim tajribasini berish, mustaqil o'qitish trayektoriyasini yaratish va maktabga bora olmaydigan o'quvchilarga teng imkoniyat taqdim etishdir. Shu bilan birga, mazkur loyiha kuchli internet, zamonaviy qurilmalar va yuqori xarajatlarni talab qilishi bilan ham ajralib turadi. Xitoyda esa UNESCO bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarda masofaviy volontyor o'qituvchilar VR vositalari yordamida darslarga ulanmoqda. VR laboratoriyalari orqali xavfsiz tajribalar bajarish imkoniyati yaratilgan. UNESCO hisobotlariga ko'ra, ushbu laboratoriyalar joriy qilingan hududlarda o'quvchilarning fanlarga qiziqishi 30–40% ga oshgan.²² Bu esa VR texnologiyalarining nafaqat shaharlarda, balki chekka hududlarda ham ta'limni samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi ta'lim jarayonida VR texnologiyalarini qo'llash pedagogik innovatsiyaning eng samarali yo'nalishlaridan biridir. VR yordamida yaratilgan ta'lim muhiti o'quvchilarga nazariy bilimni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, o'z tajribasini mustaqil sinab ko'rish va interfaol tarzda o'rganish imkonini beradi.

1. Shaxsga yo'naltirilgan VR ta'lim.

VR texnologiyalari har bir o'quvchi uchun individual o'quv trayektoriyasini yaratish imkonini beradi. Pedagogika talabalari uchun maxsus "virtual sinf"lar yaratilsa, ular turli tarbiyaviy vaziyatlarda o'qituvchi sifatida o'zini sinab ko'rishi mumkin. Bu esa kasbiy tayyorgarlikni oshiradi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

2. Konstruktivistik yondashuv VRda

VR ta'limi konstruktivistik nazariya asosida o'quvchiga tayyor bilim emas, balki faol ishtirok orqali bilim olish imkonini beradi. Masalan, "tarbiyaviy konflikt"ni VR muhitida jonli ko'rib, uni hal qilish yo'llarini sinovdan o'tkazish o'quvchini real vaziyatlarga tayyorlaydi.

3. Interfaol metodlar VR orqali

VR muhitida interfaol metodlar yanada kuchli samara beradi. Guruh bo'lib ishlash, onlayn uchrashuvlar va hamkorlikda loyiha bajarish imkoniyati mavjud. Bir nechta talabalar VR maktabida rol o'yin shaklida "o'qituvchi-o'quvchi" interaktsiyasini amalga oshirishlari mumkin.

²¹RedboxVR. (2022, August 17). World's first fully online VR school launches in Florida. Retrieved from <https://redboxvr.co.uk/first-fully-online-vr-school>

²² UNESCO Courier. (2021). China: Online tools level learning in remote areas. Retrieved from <https://courier.unesco.org/en/articles/china-online-tools-level-learning-remote-areas>

4. Gamifikatsiya va VR

VR texnologiyalari o'yin elementlari bilan uyg'unlashganda, o'quvchilarning motivatsiyasi keskin ortadi. Masalan, "virtual pedagogik kvest" orqali o'quvchi turli topshiriqlarni bajarib, yangi bosqichlarga o'tadi. Bu esa o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

5. Sun'iy intellekt va VR integratsiyasi

VR muhitiga sun'iy intellekt (AI) qo'shilganda, o'quvchi xatolarini tezda aniqlash va tuzatish mumkin bo'ladi. Masalan, talaba tarbiyaviy vaziyatni noto'g'ri hal qilsa, VRda qayta yo'naltirib, to'g'ri yechim variantlarini taklif etadi.

6. Global VR integratsiyasi

VR ta'limining yana bir afzalligi – global integratsiya imkoniyatidir. O'quvchilar Yaponiya Yushi International High School yoki AQShdagi Optima Classical Academy kabi xalqaro VR maktablarida qatnashib, xalqaro ta'lim tajribasini bevosita o'zlashtirishlari mumkin.

Ta'lim jarayonida o'qituvchining roli faqat bilim beruvchi emas, balki innovatsion g'oya va uslublarni joriy etuvchi yetakchi sifatida shakllanmoqda. Virtual texnologiyalar pedagog faoliyatida yangi imkoniyatlar ochib, ta'lim jarayonini samarali, interfaol va kreativ tarzda tashkil etishga xizmat qilmoqda. Birinchidan, virtual texnologiyalar pedagogik mahoratni kengaytiradi. O'qituvchi Moodle, Google Classroom, Zoom kabi platformalar orqali interfaol darslar o'tkazishi, multimedia qo'llanmalar va virtual laboratoriyalar yaratishi mumkin. Bu esa an'anaviy darslarni zamonaviy shaklga keltirib, o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Ikkinchidan, virtual platformalar hamkorlik va tajriba almashishni yangi bosqichga olib chiqadi. O'qituvchilar xalqaro onlayn konferensiyalar, vebinar va seminarlarda ishtirok etib, o'z tajribasini nafaqat mahalliy, balki global miqyosda almashadi. Bu esa pedagogik innovatsiyalarning tezkor yoyilishiga imkon beradi hamda virtual texnologiyalar o'quvchi faoliyatini samarali boshqarish imkonini beradi. Elektron kundalik, onlayn monitoring, reyting tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida o'quvchilarning o'qish natijalari aniq kuzatilib boriladi, individual ta'lim trayektoriyalari ishlab chiqiladi. Uchinchidan, virtual muhit o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Coursera²³, edX²⁴, FutureLearn²⁵ kabi xalqaro ta'lim platformalari orqali o'qituvchilar o'z bilimini oshirishi, yangi metodlarni o'rganishi va global ta'lim standartlariga moslashishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, virtual texnologiyalar pedagogning innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yishda kuchli vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish, global tajriba almashishni ta'minlash va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, xalqaro tajriba VR ta'lim paradigmasi sifatida ham ahamiyatli ekanini, virtual texnologiyalar nafaqat pedagogning innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yishda, balki ta'lim tizimini xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu esa milliy ta'lim tizimining rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi va global bilim makonida o'z o'rnini mustahkamlashiga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhammedov R.J., Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanma.-T., "Fan va texnologiya", 2009y. 87

²³ Coursera. (2024). *About Coursera*. Retrieved from <https://about.coursera.org>

²⁴ edX. (2024). *About us*. Retrieved from <https://www.edx.org/about-us>

²⁵ FutureLearn. (2024). *About FutureLearn*. Retrieved from <https://www.futurelearn.com/about>.



2. Akbar Xalikov, Sultonjon EGAMOV2, Jahongir NORMATOV3 Virtual learning technologies in computer science Jizzakh State Pedagogical Institute, – Society and innovations Special Issue – 04 (2022) / ISSN 2181-1415

3. OECD. (2023). *Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem*. Paris: OECD Publishing. Retrieved from

4. UNESCO. (2022). *Education: From COVID-19 school closures to recovery*. Paris: UNESCO

5. RedboxVR. (2022, August 17). *World's first fully online VR school launches in Florida*. Retrieved from <https://redboxvr.co.uk/first-fully-online-vr-school>

6. The Japan Times. (2024, March 28). *Japan Virtual Campus: Learning without borders*. Retrieved from <https://www.japantimes.co.jp/2024/03/28/special-supplements/japan-virtual-campus-learning-without-borders-jv-campus/>

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası
professori

Jo'ramurotova Sarvinoz Otabekovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti doktoranti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri

INNOVATSION YONDASHUVLAR ORQALI FIZIKA FANIDAN MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA VIRTUAL LABORATORIYALARNING AHAMIYATI



Husanov Zafar Jo'raqulovich

Navoiy davlat konchilik texnologiya universiteti,

Umumiy fizika kafedrasi mudiri,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada talabalarning kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim jarayonida virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va masofaviy o'qish platformalarining o'rni muhimdir. PhET simulyatsiyalari orqali talabalar fizika fanidan tajriba o'tkazish, nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash va o'z-o'zini baholash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Masofaviy ta'lim esa o'quvchilarga o'qish jarayonini istalgan joyda va vaqtda tashkil qilish, ta'lim materiallarini chuqur o'zlashtirish va individual o'quv rejalarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Maqolada mustaqil ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan resurslar, o'quv qo'llanmalar va virtual laboratoriyalar bilan ta'minlash muhimligi ko'rsatiladi. Buning bilan birga, o'qituvchilarga talabaning bilim darajasi va qiziqishlarini inobatga olib, mavzularni ehtiyotkorlik bilan tanlash tavsiya etiladi. Maqola innovatsion yondashuvlarning mustaqil ta'lim jarayonidagi ahamiyatini va uning samaradorligini ta'kidlaydi.

MAQSAD: Innovatsion yondashuvlar orqali fizika fanidan masofaviy ta'limni tashkil etishda virtual laboratoriyalarning ahamiyatini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Talabalar mustaqil ta'limni samarali va mukammal tarzda amalga oshirishlari uchun yuqorida keltirilgan metodlar ularga nafaqat bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi, balki ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan metodologik asoslarni taqdim etadi. Ushbu metodlar talabalar uchun aniq yo'l-yo'riqlar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi, bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu metodlar talabalarga o'z-o'zini boshqarish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va o'z bilimlarini mustahkamlashda samarali vositalar sifatida xizmat qiladi. Natijada, talabalar o'zlarining bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirib, ilmiy va amaliy jihatdan yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa, yuqorida keltirilgan metodlar talabalarga nafaqat o'qish jarayonida qo'llanma, balki ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

XULOSA: Mustaqil ta'lim, talabalar uchun o'z bilimlarini chuqurroq o'zlashtirish va o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini taqdim etadi. Virtual laboratoriyalar va masofaviy o'qish tizimlari, xususan, PhET simulyatsiyalari, talabalarga fizika fanida ilmiy tajribalarni amalga

o'shish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari, talabalar va o'qituvchilarga ta'limni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, onlayn platformalar, fizika fanidan tajriba va ta'limning sifatini oshirish

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ЧЕРЕЗ ВИРТУАЛЬНЫЕ ЛАБОРАТОРИИ И ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ

Хусанов Зафар Джуракулович

Навоийский государственный горно-технологический университет,

Заведующий кафедрой общей физики,

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируются инновационные подходы к организации самостоятельного обучения студентов в кредитно-модульной системе. Важна роль виртуальных лабораторий, симуляций и платформ дистанционного обучения в процессе самостоятельного обучения. Благодаря симуляциям PhET студенты получают возможность экспериментировать с физикой, закреплять теоретические знания на практике и проводить самооценку. Дистанционное обучение, в свою очередь, позволяет студентам организовать свой учебный процесс в любом месте и в любое время, глубоко усваивать учебные материалы и разрабатывать индивидуальные учебные планы. В статье показана важность предоставления необходимых ресурсов, учебников и виртуальных лабораторий для эффективной организации самостоятельного обучения. При этом преподавателям рекомендуется тщательно подбирать темы, учитывая уровень знаний и интересы студента. В статье подчеркивается важность инновационных подходов в процессе самостоятельного обучения и их эффективность.

ЦЕЛЬ: Научный анализ значения виртуальных лабораторий в организации дистанционного обучения физике с использованием инновационных подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для эффективного и качественного осуществления студентами самостоятельного обучения вышеперечисленные методы не только способствуют приобретению знаний, но и обеспечивают методическую основу, необходимую для успешного образовательного процесса. Эти методы включают в себя четкие рекомендации для студентов, которые способствуют развитию их способности самостоятельно мыслить, решать задачи, осваивать новые знания и применять их на практике. Эти методы также служат эффективными инструментами для студентов, позволяющими им самостоятельно планировать свое время, проводить научные исследования и закреплять полученные знания. В результате студенты получают возможность углубить свои знания и умения и достичь высоких научных и практических результатов. Таким образом, вышеперечисленные методы не только направляют студентов в процессе обучения, но и развивают навыки, необходимые для успешной профессиональной деятельности в будущем.

ВЫВОД: Самостоятельное обучение предоставляет студентам возможности для более глубокого освоения знаний и самооценки. Виртуальные лаборатории и системы дистанционного обучения, в частности, симуляции PhET, предоставляют студентам

возможность проводить научные эксперименты по физике. Это, в свою очередь, играет важную роль в укреплении теоретических знаний студентов и развитии практических навыков. Технологии дистанционного обучения позволяют учащимся и преподавателям адаптировать обучение к индивидуальным потребностям.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, виртуальные лаборатории, симуляции, онлайн-платформы, повышение качества обучения и образования по физике.

THE IMPORTANCE OF VIRTUAL LABORATORIES AND DISTANCE EDUCATION IN ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING THROUGH INNOVATIVE APPROACHES

Husanov Zafar Jurakulovich

Navoi State Mining and Technological University,

Head of the Department of General Physics,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes innovative approaches to organizing independent learning for students in the credit-module system. The role of virtual laboratories, simulations, and distance learning platforms in the process of independent learning is important. Through PhET simulations, students have the opportunity to experiment with physics, consolidate their theoretical knowledge in practice, and self-assess. Distance learning, on the other hand, allows students to organize their learning process anywhere and at any time, deeply master educational materials, and develop individual learning plans. The article shows the importance of providing the necessary resources, textbooks, and virtual laboratories for the effective organization of independent learning. At the same time, teachers are advised to carefully select topics, taking into account the level of knowledge and interests of the student. The article emphasizes the importance of innovative approaches in the process of independent learning and their effectiveness.

THE GOAL: Scientific analysis of the importance of virtual laboratories in organizing distance learning in physics through innovative approaches.

MATERIALS AND METHODS: In order for students to effectively and perfectly implement independent learning, the above methods not only help them acquire knowledge, but also provide the methodological foundations necessary for success in the educational process. These methods include clear guidelines and recommendations for students, which serve to develop their abilities to think independently, solve problems, master new knowledge and apply it in practice. These methods also serve as effective tools for students to self-manage, properly allocate time, conduct scientific research and consolidate their knowledge. As a result, students will have the opportunity to deepen their knowledge and skills and achieve high scientific and practical results. Thus, the above methods not only guide students in the learning process, but also develop the skills necessary for them to be successful in their future professional activities.

CONCLUSION: Independent learning provides students with opportunities for deeper mastery of their knowledge and self-assessment. Virtual laboratories and distance learning systems, in particular PhET simulations, provide students with the opportunity to conduct scientific experiments in physics. This, in turn, plays an important role in strengthening students' theoretical knowledge and developing practical skills. Distance learning technologies allow students and teachers to adapt education to individual needs.

Keywords: Independent learning, virtual laboratories, simulations, online platforms, improving the quality of experience and education in physics

Talabalarining kredit – modul tizimida o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishlarini va rivojlanishlarining usullaridan biri sifatida - mustaqil ta‘limning tashkil qilish hisoblanadi. Nafaqat fizika fanidan balki boshqa fanlardan ham mustaqil faoliyatini tashkil qilishda, talabalarining avvalo fanga oid qiziqishlarini o‘rganish va talabalarga mustaqil ta‘limni tashkil qilish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish lozim.

Unda o‘qituvchilar qo‘yidagi innovatsion yondashuvlardan foydalanishlari mumkin.

1. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar

2. Masofaviy o‘qish va onlayn platformalar


Ushbu innovatsion yondashuvlar asosida mustaqil ishlar didaktik, ilmiy va boshqa belgilari bilan mustaqil ishlarini tashkil qilishga jalb qilinadi va tajriba orttiradi. Hozirgi kunda virtual laboratoriyalardan masofadan ham ishlab bo‘ladi. Shu bois mustaqil ta‘limni tashkil qilishni innovatsion yondashuv ushbu yondashuvlar orqali o‘rganiladi. Shu vaqtgacha internet saytlarida 100dan ortiq virtual laboratoriya ishlari tashkil qilingan bo‘lib, ular ta‘lim jarayonini yanada samarali va interfaol tashkil etishda muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga va talabalariga ilmiy tajriba va eksperimentlarni real sharoitda bajarish imkonini berib, fanlarni o‘rganishda yangi yondashuvlar yaratishga yordam bermoqda. Virtual laboratoriyalar orqali talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlash, nazariy materialni amaliyotda qo‘llash va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bunday tizimlar, ayniqsa, masofaviy o‘qitish va onlayn ta‘limda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan barcha vositalarni taqdim etadi, shu bilan birga, o‘quv jarayonini interfaol qilish, talabalarining mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Virtual laboratoriyalarni yaratishda zamonaviy texnologiyalarning, jumladan, interaktiv dasturiy ta‘minot va simulyatsiya vositalarining qo‘llanilishi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashdagi samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shmoqda. Shuningdek, birmuncha ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalariga ko‘ra, mustaqil ish ikki yo‘nalishda tabaqalashtirilgan: O‘quv jarayonidagi hamda unga tayyorlanishdagi o‘quvchining faoliyati va o‘quvchining qiziqishini hamda qobiliyatiga asoslangan individual reja asosidagi qo‘shimcha faoliyatdir.[1]

Talabalar mustaqil ta‘limni samarali va mukammal tarzda amalga oshirishlari uchun yuqorida keltirilgan metodlar ularga nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi, balki ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan metodologik asoslarni taqdim etadi. Ushbu metodlar talabalar uchun aniq yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi, bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu metodlar talabalarga o‘z-o‘zini boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va o‘z bilimlarini mustahkamlashda samarali vositalar sifatida xizmat qiladi. Natijada, talabalar o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirib, ilmiy va amaliy jihatdan yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa, yuqorida keltirilgan metodlar talabalarga nafaqat o‘qish jarayonida qo‘llanma, balki ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar

Virtual laboratoriya talabalarining mustaqil o‘qish va tajriba o‘tkazish jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon yaratadi, chunki ularning o‘quv faoliyatida interaktiv va tajribaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bunday dasturlardan biri PhET Simulations dasturi AQSHda, Kolorado shtatidagi Kolorado universiteti tomonidan yaratilgan. Dastur 2002-yilda professor Natalie R. Strassler tomonidan asos solingan va ilmiy va ta‘lim

maqsadlarida interaktiv ilmiy simulyatsiyalar yaratishni maqsad qilgan. PhET dasturi hozirda turli fanlar, jumladan, fizika, kimyo, biologiya va matematikani o'rgatishda keng qo'llaniladi. Ushbu dastur talabalariga fizika fanidan tajriba ishlarini mustaqil ravishda bajarish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash va o'z bilimlarini mustaqil ravishda sinovdan o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Eng asosiysi fizika fanining elektr va magnitizm bo'limlarining laboratoriya ishlarining bajarishda talabalarga juda qulay va xavfsiz sharoit yaratilgan. Ushbu dasturning afzallik tomonlaridan biri natijalarni olishda aniqlik ko'rsatgichi katta bo'ladi. Fizika sohasida muhim ta'limiy afzalliklarga ega bo'lgan virtual laboratoriya simulyatsiyalaridan foydalanish ko'paymoqda.[2] PhET similiton virtual laboratoriyasi talabalarga mustaqil ishlash imkonini yaratib beradi. Ular fizika fanli bo'yicha o'z bilimlarini mustahkamlashlari va tajribalar o'tkazishlari mumkin. Shuningdek, bu vosita talabalarga o'z-o'zini baholashda ham yordam beradi, chunki simulyatsiyalar orqali o'quvchilar o'z natijalarini real vaqt rejimida ko'rishlari mumkin hamda tajribani ko'p marotaba o'tkazishlari mumkin.



1.1 Phet similiton dasturida fizika fanidan tebranma harakat qonunlarini o'rganish mavzusi

Fizika va shu kabi boshqa fanlarda tajriba natijalarining takrorlanishi soni oshgan sari, nisbiy xatolikning qiymati kamayadi. Bu esa, o'tkazilgan tajribalar sonining ortishi bilan o'lchovlar orasidagi farqlar kamayib, natijalar yanada ishonchli va aniq bo'lishini anglatadi. PhET simulyatsiyalari va shu kabi boshqa virtual laboratoriya dasturlari hozirgi kunda oliy ta'limda talabalarining fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu sababli ilmiy tushunchalar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni tezlashmoqda va samarali bo'lmoqda. Ushbu dasturning yana bir samarali jihatlaridan biri talabalar o'z tajriba ishlarini bajarishda xato qilishdan qo'rqishmaydi, chunki laboratoriya ishini tajriba xonalarida bajarilganda talabaning nazariy bilimga ega emasligi sababli laboratoriya qurilmasiga shikast yetkazilishi mumkin yoki umuman ushdan chiqishi mumkin.

Masofaviy o'qish va onlayn platformalar

2019-yilda "COVID-19" virusining global tarqalishi ta'lim tizimlarining barcha bosqichlarini virtual formatga o'zgartirishni talab etdi. Shu tariqa, dunyo bo'ylab o'qitish



jarayonlari onlayn ko‘rinishda tashkil qilindi, bu esa ta’limning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan majburiy choraga aylandi. Ba’zi mamlakatlar ushbu o‘zgarishlarga tezda moslashib, ta’lim tizimini onlayn formatga o‘tkazishda muvaffaqiyatga erishdilar, biroq boshqa mamlakatlarda bu jarayon bir qator qiyinchiliklar va to‘siqlarga duch keldi. Bunga sabab, ayrim davlatlarda internet tarmog‘iga keng kirish imkoniyati mavjud bo‘lgan bo‘lsa, boshqalarda esa onlayn platformalar va raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ta’sir ko‘rsatdi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta’minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.[4] Masofaviy ta’lim texnologiyalarining afzalliklari. Masofaviy ta’lim texnologiyalari quyidagi afzalliklarga ega:[3]

1. O‘quvchilar va o‘qituvchilar ta’lim jarayonida har qanday joyda va har qanday vaqtda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa ta’limni shaxsiy ehtiyojlar va talablarga muvofiq tarzda moslashtirishga imkon yaratadi.

2. Masofaviy ta’limda turli elektron resurslar, videodarslar, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu o‘quvchilarga ta’lim materiallarini yanada chuqur va samarali o‘zlashtirishda yordam beradi.

3. Masofaviy ta’lim, ko‘plab hollarda, an’anaviy ta’lim tizimiga nisbatan arzonroq hisoblanadi, chunki transport xarajatlari va o‘quv muassasalariga borish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar kamayadi, bu esa ta’lim olish jarayonini moliyaviy jihatdan yanada samarali qiladi.

4. Masofaviy ta’lim o‘quvchilarga individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa ta’lim jarayonini o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etishga yordam beradi.

Masofaviy ta’limning afzalliklari mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Birinchidan, o‘quvchilar va o‘qituvchilarga har qanday joyda va vaqtda ta’lim olish imkoniyatini taqdim etadi, Ikkinchidan, masofaviy ta’limda turli elektron virtual laboratoriyalar (Phet similition) va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilar ta’lim materiallarini yanada chuqur va samarali o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar. Pedagogik texnologiya mustaqil ta’lim jarayoniga sistemali yondashuv bo‘lib, unda ta’lim jarayonining tashkil etishda texnika va inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o‘zaro munosabati ta’limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo‘ladi. Nihoyat, masofaviy ta’lim o‘quvchilarga individual o‘quv rejalarini mustaqil shaklda yaratish imkonini berib, ta’limni o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Shu tarzda, masofaviy ta’lim mustaqil o‘qishning samaradorligini va sifatini oshiradi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida talabalar o‘z bilimlari va ko‘nikmalariga asoslanib ta’lim olishadi va o‘z bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga imkon yaratadi. Mustaqil ravishda o‘rganish talabalar uchun o‘z-o‘zini baholash, tahlil qilish va sinovdan o‘tkazish imkoniyatlarini taqdim etadi, natijada ta’lim jarayoni yanada samarali va natijador bo‘ladi. Talabalar maruza mshg‘ulotlarida olgan bilimlarini mustaqil ravishda amaliyotda tadbiq qilishlari uchun fizika sohasida xafvsiz muhit va jarayon kerak bo‘ladi. Bu jarayonda virtual laboratoriyalar talabalar uchun ilmiy tajribalarni o‘tkazishda zarur vosita bo‘lib, ular o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, PhET simulyatsiyalari orqali talaba fizika tajribalarini uyda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z bilimlarini yanada mustahkamlaydi. PhET dasturi turli fanlarda, jumladan, fizika, kimyo, biologiya va matematika kabi sohalarda o‘quvchilarni ilmiy izlanishlar va tajribalar orqali o‘qitishda keng qo‘llaniladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni natijaga erishishini osonlashtiradi. Bu kabi virtual laboratoriyalar va online platformalar talabalarni mustaqil va masofadan ilm olishga katta imkon yaratadi, har qanday



bilimni mustahkamlash uchun avvalo o'sha bilimga ega bo'lish zarurdir. Buning uchun talabalarga o'qituvchilarning yordami kerak bo'ladi. Oliy ta'limda talabalarning mustaqil ta'limini shakllantirish uchun avvalo mustaqil ta'lim uchun maruza mashg'ulotlarini egallash uchun kerakli resurslar, amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanmalar va tajriba ishlari uchun virtual laboratoriyalar bilan taminlash kerak. Hamda talabalarga mustaqil ta'limda murakkab mavzularni tanlashda ehtiyotkorlik zarur. O'qituvchilar mavzu tanlashda talabalarining hozirgi bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish motivatsiyasini hisobga olib, mavzuni ehtiyotkorlik bilan belgilashlari juda muhimdir. Agar mavzu talabaning bilim darajasiga mos kelmasa yoki u qiziqishini uyg'otmasa, bu nafaqat tushunmovchilikka, balki ta'lim jarayonidagi motivatsiyaning pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, juda murakkab yoki talabalar uchun haddan tashqari qiyin bo'lgan mavzular ularda stress, ishtiyoqning yo'qolishi va o'rganishdagi muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo'lishi ehtimoli yuqori. Shu bilan birga, talabaning bilim darajasiga mos ravishda tanlangan mavzu o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Yaxshi tanlangan mavzu talabaning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi, uning ilmiy izlanishlarga bo'lgan ishtiyoqini rag'batlantiradi va o'qishdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bunday mavzu talabalar uchun o'rganish jarayonini nafaqat qiziqarli, balki amaliy va ilmiy jihatdan samarali qiladi. Bunda o'qituvchining roli, ayniqsa, talabaning qiziqishlariga mos ravishda ma'lumotlarni taqdim etish va mavzuni tushunarli tarzda yoritishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Natijada, talabalar o'z bilimlarini kengaytirib, o'qishdan zavq olishadi va o'z maqsadlariga muvaffaqiyatli erishadilar.

Mustaqil ta'lim, talabalar uchun o'z bilimlarini chuqurroq o'zlashtirish va o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini taqdim etadi. Virtual laboratoriyalar va masofaviy o'qish tizimlari, xususan, PhET simulyatsiyalari, talabalarga fizika fanida ilmiy tajribalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari, talabalar va o'qituvchilarga ta'limni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Biroq, mustaqil ta'lim jarayonida murakkab mavzularni tanlashda ehtiyotkorlik zarur. O'qituvchilar, talabalar uchun bilim darajasiga mos va qiziqarli mavzularni tanlashda ularning bilim darajasini va qiziqishlarini hisobga olishlari lozim. To'g'ri tanlangan mavzu o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, bu esa talabalarining muvaffaqiyatli ta'lim olishiga yordam beradi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'limning sifatini oshirish, talabalarga zarur resurslar, qo'llanmalar va virtual laboratoriyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zafar KHUSANOV, Ўқувчиларнинг мустақил ишлари тизимини такомиллаштириш омиллари, Жамият ва инновациялар, ISSN 2181-1415 , 516-522
2. Ismoilov Nodirjon Kodirjonovich Ravshanov Yo'ldoshali Ruzimurodovich, THE PHYSICS AVIARY PLATFORMASINING TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI, YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, ISSN: 3030-3494, 308- 312
3. Holiqova Dilnoza Sirojiddinovna, MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'QISH VA O'QITISH TIZIMI IMKONIYATLARI, World of Science, Volume-7, Issue-10, 186-190



4. Bozorova Aziza, Sayfullayeva Gulhayo, KREDIT–MODUL TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH, YANGI O'ZBEKISTON TALABALARI AXBOROTNOMASI, 24-28

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Husanov Zafar Jo'raqulovich

Navoiy davlat konchilik texnologiya universiteti,

Umumiy fizika kafedra mudiri,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O'zbekiston, Navoiy shahar

BO‘LAJAK MUHANDISLARDA INNOVATSION FIKRLASH VA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MOBIL TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI



Xuramova Farangiz Uchqun qizi

*Jizzax politexnika instituti dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya.

KIRISH: Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti shunday bosqichga yetdiki, u inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ushbu jarayon axborot oqimlarining keng tarqalishini ta'minlovchi va global axborot makonini shakllantiruvchi turli axborot texnologiyalarining rivoji bilan ajralib turadi.

Didaktika jarayonidagi har bir o'qitish usulini ta'lim amaliyotiga joriy etish, uning o'ziga xos jihatlari hamda ma'lum bir fan mazmunidan mustaqil tarzda hal etiladigan pedagogik vazifalarga ko'ra turlicha natija beradi. Shu bois, ta'lim muassasalarida mobil texnologiyalar asosida tashkil etiladigan o'qitish metodikasi tizimini ishlab chiqish zarurati vujudga kelmoqda. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini tashkil etishda mobil texnologiyalarga tayangan o'qitish yondashuvlari, xususan, auditoriya mashg'ulotlarida yangi o'quv mazmunini yetkazish usullari yoritib berilgan.

MAQSAD: Bo'lajak muhandislarda innovatsion fikrlash va tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish jarayonida mobil texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish, talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy va tadqiqotchilik kompetentligini oshirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot jarayonida muhandislik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan mobil o'quv texnologiyalari, elektron o'quv platformalar, raqamli resurslar hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etuvchi metodik materiallar asosiy tadqiqot obyekti sifatida foydalanildi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muhandis kadrlar tayyorlash jarayonida mobil o'quv texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. mobil texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish, mustaqil izlanishlarni qo'llab-quvvatlash, tezkor axborot almashinuvi va ijodiy muhitni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Mobil o'quv platformalar asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarda ilmiy tafakkur, tahliliy yondashuv, muammoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, raqamli kompetensiyalarini mustahkamlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ishlab

chiqilgan metodika muhandislik ta'limi tizimida talabalar tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: intellekt, fikrlash uslubi, aloqa, bulutli texnologiyalar, mobil ta'lim, interaktiv usul.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ МОБИЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ И ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Хурамова Фарангиз Учкуновна

*и.о.доцент, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
Джизакский политехнический институт*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Сегодня развитие общества достигло такого уровня, что оно глубоко проникает во все сферы человеческой деятельности. Этот процесс характеризуется развитием различных информационных технологий, обеспечивающих широкое распространение информационных потоков и формирующих глобальное информационное пространство. Внедрение каждого метода обучения в дидактическом процессе в образовательную практику дает разные результаты в зависимости от его специфических аспектов и педагогических задач, решаемых независимо от содержания конкретного предмета. Поэтому возникает необходимость разработки системы методики обучения, организованной на основе мобильных технологий в образовательных учреждениях. В данной статье освещены подходы к обучению, основанные на мобильных технологиях в организации учебного процесса в системе высшего образования, в частности, методы донесения нового учебного содержания в аудиторных занятиях.

ЦЕЛЬ: Разработка методики эффективного использования дидактических возможностей мобильных технологий в процессе формирования инновационного мышления и исследовательской компетентности у будущих инженеров, повышение их профессиональной и исследовательской компетентности путем развития у студентов интереса к научным исследованиям, творческого подхода и навыков решения проблем.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе исследования в качестве основного объекта исследования были использованы студенты, обучающиеся по направлению инженерии, мобильные образовательные технологии, используемые в учебном процессе, электронные образовательные платформы, цифровые ресурсы, а также методические материалы, организующие научно-исследовательскую деятельность.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Результаты исследования показывают, что целевое и системное использование мобильных образовательных технологий в процессе подготовки инженерных кадров является эффективным средством формирования научно-исследовательской деятельности студентов. с помощью мобильных технологий создается возможность индивидуализации учебного процесса, поддержки самостоятельных исследований, быстрого обмена информацией и формирования творческой среды. Учебный процесс, организованный на основе мобильных образовательных платформ, развивает у студентов научное мышление, аналитический подход, навыки поиска решений в проблемных ситуациях, что служит повышению их профессиональной подготовки, укреплению цифровых компетенций и повышению

интереса к научно-исследовательской деятельности. Таким образом, разработанная методика рекомендуется в качестве одного из эффективных направлений формирования исследовательской компетентности студентов в системе инженерного образования.

Ключевые слова: интеллект, стиль мышления, коммуникация, облачные технологии, мобильное обучение, интерактивный метод.

DIDACTIC CAPABILITIES OF MOBILE TECHNOLOGIES IN FORMING INNOVATIVE THINKING AND RESEARCH COMPETENCE IN FUTURE ENGINEERS

Khuramova Farangiz Uchkun qizi

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Jizzakh Polytechnic Institute*

Annatation.

INTRODUCTION: Today, the development of society has reached such a level that it is deeply penetrating all spheres of human activity. This process is characterized by the development of various information technologies that ensure the widespread dissemination of information flows and the formation of a global information space. The implementation of each teaching method in the didactic process into educational practice yields different results depending on its specific aspects and pedagogical tasks, which are solved independently of the content of a specific subject. Therefore, there is a need to develop a system of teaching methods organized based on mobile technologies in educational institutions. This article highlights mobile-based learning approaches in organizing the educational process in the higher education system, particularly the methods of delivering new educational content in classroom sessions.

THE GOAL: Developing a methodology for effectively using the didactic capabilities of mobile technologies in the process of forming innovative thinking and research competence in future engineers, increasing their professional and research competence by developing students' interest in scientific research, a creative approach, and problem-solving skills.

MATERIALS AND METHODS: In the research process, engineering students, mobile educational technologies used in the educational process, electronic educational platforms, digital resources, as well as methodological materials organizing research activities were used as the main object of research.

CONCLUSION: The research results show that the targeted and systematic use of mobile educational technologies in the process of training engineering personnel is an effective means of forming students' research activities. The educational process, organized on the basis of mobile educational platforms, develops students' scientific thinking, analytical approach, skills in finding solutions in problem situations, which serves to improve their professional training, strengthen digital competencies, and increase interest in research activities. Thus, the developed methodology is recommended as one of the effective directions for the formation of students' research competence in the engineering education system.

Keywords: intellect, thinking style, communication, cloud technologies, mobile learning, interactive method.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, xususan, mobil hamda bulutli texnologiyalar ta'lim tizimida o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Talabalarda tadqiqotchilik salohiyatini

shakllantirish jarayonini o'rganish davomida, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur pedagogik va tashkiliy shart-sharoitlar aniqlab olindi. Bo'lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va boshqarish jarayonlari talabalarning tadqiqot faoliyatini ilmiy asosda rejalashtirishni, shuningdek, didaktik tamoyillarni o'quv maqsad va vazifalariga uyg'un holda qo'llashni taqozo etadi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirish masalasi ta'lim jarayonining eng muhim komponentlaridan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan, mobil o'quv texnologiyalari (mobile learning) bu jarayonda yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Mobil texnologiyalar ta'limni individuallashtirish, moslashuvchanlik, interaktivlik va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi (Kukulska-Hulme, 2012; Sharipov, 2021).

J. Dewey (1938)[1] o'zining "Experience and Education" asarida ta'limni tajriba bilan bog'liq faol jarayon sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, talabaning faol ishtiroki va tahliliy fikrlashi — ilmiy izlanishning poydevoridir. D. Kolb[2] (1984) tomonidan ishlab chiqilgan tajribaga asoslangan o'rganish modeli (Experiential Learning Cycle) ham tadqiqot faoliyatining bosqichlarini — kuzatish, tajriba, refleksiya va nazariy umumlashtirishni — o'zida mujassam etadi. Bu model mobil texnologiyalar orqali yanada boyitilishi mumkin, chunki mobil vositalar vaqt va makon chegarasini yo'qotadi.

O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham mobil o'qitishning samaradorligi alohida e'tirof etilmoqda. M. Q. To'xtaboyev[3] (2022) mobil ilovalardan foydalangan holda talabalarning ilmiy topshiriqlarni mustaqil bajarish qobiliyati ortishini aniqlagan. D. G'anieva[4] (2023) esa mobil texnologiyalar asosidagi topshiriqlar talabalarning tahliliy fikrlashini kuchaytirishi, izlanish motivatsiyasini oshirishi haqida dalillar keltiradi.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlariga ko'ra (OECD, 2020; UNESCO, 2022), mobil texnologiyalar asosidagi o'qitish modeli talabalarda axborot izlash, tahlil qilish, umumlashtirish, eksperiment o'tkazish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samara bergan. Shu bilan birga, ayrim olimlar (Kukulska-Hulme, 2012; Laurillard, 2016) mobil o'qitish samaradorligi o'qituvchining metodik yondashuvida, topshiriqlarni to'g'ri loyihalashda namoyon bo'lishini ta'kidlashadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, mavjud adabiyotlarda ko'proq texnologik va tashkiliy jihatlar o'rganilgan, ammo mobil o'quv texnologiyalari asosida talabalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirish metodikasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois, mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich metodik modelni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'quv jarayonida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda didaktik tamoyillarni chuqur o'zlashtirish va o'quv jarayonini oldindan rejalashtira bilishlari lozim. Bu holat o'qituvchidan talabalarning o'zlashtirish mexanizmi va ta'lim tizimi modeli haqida aniq tasavvurga ega bo'lishni talab qiladi. Chunki mazkur model tadqiqotchilik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi, talabalar esa bu jarayonga qiziqish bildiradilar. Shu sababli, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi — talabalarda ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, ularni rag'batlantirish va faoliyatni muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Ta'lim va tarbiya jarayonlarini boshqarish nazariyasida turli xil yondashuvlar mavjud. Mobil texnologiyalar esa global tarmoqqa ulanishni ta'minlaydigan portativ qurilmalar va simsiz aloqalarga asoslangan texnologiya sifatida talqin qilinadi. Ular o'qitish metodikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi, ta'lim jarayonini maqsadli tashkil etish imkonini beradi.

Texnologik asos sifatida mobil vositalarga tayangan holda o'quv vazifalarini hal etish mobil ta'lim deb ataladi. Bu turdagi ta'lim masofaviy va elektron ta'limning zamonaviy shakli

bo'lib, o'qitishning o'zaro bog'liq usullar tizimini tashkil etadi. Mobil ta'limda didaktik vazifalarni yechish uchun auditoriya va mustaqil ishlarda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Interaktiv video usuli.

Bu usul talabalarda videomateriallar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi so'rovnoma, testlar, savollar yoki manbalarga havolalar orqali interaktiv videodarslarni yaratadi. Maqsad — o'quv jarayoniga qo'shimcha ta'limiy resurslarni kiritish va mashg'ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil etishdir. Talabalarda internetga ulanadigan mobil qurilma bo'lishi zarur.

2. Veb-kvest (WebQuest) usuli.

Bu o'yin asosidagi o'qitish shakli talabalarning motivatsiyasi va faolligini oshiradi. Internetga asoslangan kvestlar dars va mustaqil ishlarni samarali tashkil etadi. Maqsad — yangi mavzularni o'rganish va takrorlashni qiziqarli o'yin formatida amalga oshirish. O'qituvchi topshiriqlarni ishlab chiqadi, talabalar esa ularni mustaqil yoki jamoaviy bajaradilar.

3. Kengaytirilgan haqiqat (AR) usuli.

Bu usul o'quv materialini turli formatlarda — matn, video, audio yoki grafik shaklda taqdim etish imkonini beradi. Talabalar maxsus belgilar (taglar) orqali kerakli ma'lumotlarga kirishadi. Maqsad — ta'lim mazmunini boyitish va zamonaviylashtirishdir.

Mazkur usullar orqali o'quv mashg'ulotlari yanada interaktiv, jozibador va mazmunan boy shaklda o'tadi.

Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan talabalarda kasbiy tayyorgarlik, mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik qobiliyatini shakllantirish jarayonini boshqarish murakkab, ammo zarur bo'lgan pedagogik faoliyatdir. Olimlar ta'kidlaganidek, har qanday o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat yagona sikl sifatida kechadi. Oliy ta'lim o'qituvchisi bu bosqichlarni to'liq boshqarish tamoyillarini bilishi lozim.

Tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini boshqarish besh asosiy bosqichdan iborat:

1. Maqsad va vazifalarni belgilash — auditoriya va mustaqil ishlarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash.

2. Tashkiliy tizimni qayta ko'rib chiqish — ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish rejasini ishlab chiqish.

3. Rejani amalga oshirish — o'quv mashg'ulotlariga tadqiqot elementlarini kiritish.

4. Boshqaruv mexanizmini nazorat qilish — jarayonning borishini kuzatish va tahlil etish.

5. Natijalarni baholash — o'zlashtirish darajasini tahlil qilib, yangi takomillashtirish rejalarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mobil o'quv texnologiyalari talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Mobil ilovalar o'quv jarayonini individuallashtirish, mustaqil o'rganish va hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, mobil ta'lim muhitida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarda tahliliy va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi.

Mobil texnologiyalar yordamida o'tkazilgan mini-tadqiqotlar talabalarni ma'lumot izlash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon Kolbning tajribaga asoslangan o'rganish modeli bilan uyg'unlashadi. O'quvchilarning tadqiqotchilik motivatsiyasi va o'zlashtirish samaradorligi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori bo'lgani kuzatildi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mobil o'quv texnologiyalari asosida ilmiy-tadqiqot faoliyatini shakllantirish uch bosqichda — tayyorlov, tadqiqot-amaliy va refleksiv yakuniy bosqichlarda

amalga oshirilganda eng samarali natija beradi. Bu metodika talabalarda axborot izlash, tahlil qilish, refleksiya va ijodiy yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Dewey, J. (1938). Experience and education. New York: Macmillan.
2. Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
3. To'xtaboyev, M. Q. (2022). Mobil o'qitish texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish. Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 6(4), 61–69.
4. G'anieva, D. (2023). Mobil ta'lim vositalaridan foydalanish orqali talabalarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish. Oliy ta'limda innovatsiyalar jurnali, 5(2), 45–52.
5. Xuramova, F. U. (2024). Talabalar muhitida mobil texnologiyalardan foydalanish. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari, 3-son.
6. Xuramova, F. U. (2024). Mobil texnologiyalar yordamida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Ta'lim, fan va innovatsiya: ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, 2-son.
7. Xuramova, F. U. (2024). Bo'lajak muhandislarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar. Tashkent International Congress on Modern Sciences–III.
8. Eshonqulov, Sh. U., va Xuramova, F. U. (2024). Mobil texnologiyalardan foydalangan holda innovatsion o'qitish usullari. O'zbekiston rivojlanish taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni: Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari, Toshkent, 350–352-betlar.
9. Xuramova, F. U. Talabalarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini "Muhandislik dasturlari" fani vositasida rivojlantirishning mobil ilova dasturi. — Intellektual mulk agentligi guvohnomasi. — Toshkent, 22.08.2024. — № DGU 42024.
10. Guliev, A. A., va Xuramova, F. U. "Avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarida mobil texnologiyalardan foydalanish kompetentligini oshirish dasturi". — Intellektual mulk agentligi guvohnomasi. — Toshkent, 19.12.2023. — № DGU 202310495.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xuramova Farangiz Uchqun qizi

Jizzax politexnika instituti

"Kompyuter va dasturiy injiniring" kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.dPhD

Manzil: O'zbekiston, 130100, Jizzax shahri

farangiz0808@gmail.com

LOYIHA ASOSIDA O'QITISH (PROJECT-BASED LEARNING) ORQALI MUHANDISLIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH



Eshonqulov Sherzod Ummatovich

Jizzax politexnika instituti dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Bugungi kunda muhandislik ta'limi tezkor texnologik rivojlanish sharoitida sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Bo'lajak muhandislar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy va loyihalash kompetentligiga ham ega bo'lishlari talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning, PBL) metodikasi muhandislik ta'limida muhim o'rin tutadi. PBL talabalarga real muhandislik muammolarini hal qilish, ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Maqola loyiha asosida o'qitish metodining muhandislik ta'limidagi ahamiyatini yoritadi. Talabalar ijodiy va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, real muhandislik muammolarini hal etish orqali kompetentlikni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Loyiha asosida o'qitishning samaradorligi, baholash mezonlari va amaliy mashg'ulotlarga qo'llanilishi misollar bilan ko'rsatiladi.

MAQSAD: Loyiha asosida o'qitish metodini qo'llash orqali bo'lajak muhandislarning loyihalash kompetentligini shakllantirish va uning samaradorligini tahlil qilishdir. Maqolada talabalar ijodiy va mustaqil faoliyati, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlaridagi roliga alohida e'tibor qaratiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot materiallari sifatida qurulish muhandisligi fakulteti talabalari tomonidan bajarilgan loyihalar, laboratoriya ishlarining natijalari va amaliy mashg'ulotlar olinadi. Shuningdek, CAD dasturlari, simulyatsion va virtual muhit vositalari, hamda onlayn platformalardan foydalanish tajribasi tahlil qilindi. Talabalar 4 kishilik guruhlariga bo'linib, real muhandislik muammolarini hal qilishga yo'naltirildi. Kompetentlikni baholash uchun boshlang'ich va yakuniy indikatorlar belgilandi, ularning rivojlanishi kuzatildi. Tadqiqot metodlari sifatida loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) yondashuvi qo'llanildi. Eksperimental metod yordamida talabalar loyihalash ko'nikmalari va amaliy kompetentligidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Shuningdek, pedagogik kuzatuv va intervyular orqali talabalar faoliyati va qiyinchiliklari aniqlanib, ularni baholash jadvallari tuzildi. Natijalarni tahlil qilishda statistik va taqqoslash metodlari qo'llanilib, kompetentlik rivojlanishining samaradorligi aniqlashga harakat qilindi. Ushbu metodik yondashuv PBLning ta'lim jarayonidagi rolini va uning talabalar amaliy ko'nikmalariga ta'sirini ilmiy asosda o'rganishga imkon berdi.

XULOSA: Loyiha asosida o'qitish orqali muhandislik kompetentligini shakllantirish juda samarali ekanligi aniqlangan. Talabalar real muhandislik muammolarini hal qiladilar, ijodiy va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar, shuningdek, jamoaviy ishlashga o'rganadilar. CAD dasturlari va onlayn platformalardan foydalanish talabalar texnologik malakalarini mustahkamlaydi. PBL yondashuvi ta'lim jarayonini interfaol va natijaga

yo'naltirilgan qiladi. Kelgusida bu metodni boshqa muhandislik sohalariga kengaytirish, mentorlik tizimini kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni yanada faol qo'llash tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: loyiha asosida o'qitish, muhandislik kompetentligi, amaliy mashg'ulot, baholash, ijodiy faoliyat.

ПРОЕКТНОЕ ОБУЧЕНИЕ (PROJECT-BASED LEARNING) КАК СПОСОБ ФОРМИРОВАНИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Эшонкулов Шерзод Умматович

*Доцент, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
Джизакский политехнический институт*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В настоящее время инженерное образование сталкивается с существенными изменениями в условиях быстрого технологического развития. Будущие инженеры должны обладать не только теоретическими знаниями, но и практическими навыками проектирования и компетенциями. В этом контексте метод проектного обучения (Project-Based Learning, PBL) занимает важное место в инженерном образовании. PBL предоставляет студентам возможность решать реальные инженерные задачи, развивать творческое мышление и навыки самостоятельной работы. Статья раскрывает значение метода проектного обучения в инженерном образовании. Рассматриваются методы формирования компетенций студентов через развитие творческих и самостоятельных навыков, а также решение реальных инженерных проблем. Эффективность проектного обучения, критерии оценки и примеры применения в практических занятиях также представлены.

ЦЕЛЬ: Цель статьи – изучить и проанализировать эффективность применения метода проектного обучения для формирования проектных компетенций будущих инженеров. Особое внимание уделяется творческой и самостоятельной деятельности студентов, а также их роли в практических и лабораторных занятиях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В качестве материалов исследования использовались проекты студентов факультета строительного инжиниринга, результаты лабораторных работ и практических занятий. Анализировался опыт использования CAD-программ, симуляционных и виртуальных инструментов, а также онлайн-платформ. Студенты были разделены на группы по 4 человека и направлены на решение реальных инженерных задач. Для оценки компетентности были установлены начальные и конечные индикаторы, за динамикой которых наблюдали. В качестве методов исследования применялся метод проектного обучения (Project-Based Learning). С помощью экспериментального метода анализировались изменения проектных навыков и практических компетенций студентов. Кроме того, педагогическое наблюдение и интервью позволили выявить деятельность и трудности студентов, после чего составлены таблицы оценивания. Для анализа результатов применялись статистические и сравнительные методы, что позволило определить эффективность развития компетентности. Данный методический подход позволил научно изучить роль PBL в образовательном процессе и его влияние на практические навыки студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Выявлено, что проектное обучение является очень эффективным для формирования инженерных компетенций. Студенты решают реальные инженерные задачи, развивают творческое и самостоятельное мышление, а также учатся работать в команде. Использование CAD-программ и онлайн-платформ укрепляет

технологические навыки студентов. Метод PBL делает образовательный процесс интерактивным и ориентированным на результат. В будущем рекомендуется расширять применение данного метода на другие инженерные направления, усилить систему наставничества и активнее использовать цифровые технологии.

Ключевые слова: проектное обучение, инженерная компетентность, практическое занятие, оценка, творческая деятельность.

PROJECT-BASED LEARNING AS A MEANS OF DEVELOPING ENGINEERING COMPETENCE

Eshonkulov Sherzod Ummatovich

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,
Jizzakh Polytechnic Institute*

Annatation.

INTRODUCTION: Today, engineering education is undergoing significant changes under rapid technological development. Future engineers are required to possess not only theoretical knowledge but also practical and design competencies.

In this context, the project-based learning (Project-Based Learning, PBL) methodology plays an important role in engineering education. PBL provides students with the opportunity to solve real engineering problems, develop creative thinking, and enhance independent work skills. The article highlights the significance of project-based learning in engineering education. It analyzes methods for developing students' competencies through fostering creative and independent skills and solving real engineering problems. The effectiveness of project-based learning, assessment criteria, and examples of its application in practical classes are also presented.

THE GOAL: The aim of this article is to study and analyze the effectiveness of applying project-based learning to develop the design competencies of future engineers. Special attention is given to students' creative and independent activities, as well as their role in practical and laboratory classes.

MATERIALS AND METHODS: The research materials included projects completed by students of the Faculty of Civil Engineering, results of laboratory work, and practical classes. The study analyzed the use of CAD programs, simulation and virtual tools, as well as online platforms. Students were divided into groups of four and assigned to solve real engineering problems. Initial and final competency indicators were established to monitor progress. Project-based learning (PBL) was applied as the main research method. The experimental method was used to analyze changes in students' design skills and practical competencies. In addition, pedagogical observation and interviews helped identify students' activities and difficulties, which were then recorded in assessment tables. Statistical and comparative methods were applied to analyze the results, allowing for evaluation of the effectiveness of competency development. This methodological approach enabled a scientific study of PBL's role in the educational process and its impact on students' practical skills.

CONCLUSION: Project-based learning was found to be highly effective for developing engineering competencies. Students solve real engineering problems, develop creative and independent skills, and learn to work in teams. The use of CAD programs and online platforms strengthens students' technological skills. PBL makes the educational process interactive and results-oriented. In the future, it is recommended to expand the application of

this method to other engineering fields, strengthen the mentoring system, and more actively use digital technologies.

Keywords: project-based learning, engineering competence, practical class, assessment, creative activity.

Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning – PBL) zamonaviy muhandislik ta'limida talabalarni professional kompetentligini shakllantirishning samarali metodlaridan biridir. Ushbu metod talabalarni nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham yo'naltiradi [1]. Muhandislik ta'limida talabalar loyihalar orqali real muammolarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqishni o'rganadilar, bu esa ularning tahliliy fikrlash va ijodiy yondashuvini mustahkamlaydi [5].

PBL jarayonida talabalar mustaqil ishlashga rag'batlantiriladi va jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishga o'rganadilar. Loyiha asosida darslarni rejalashtirish talabalarni o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, PBL murakkab muhandislik tizimlarini tahlil qilish va muammolarga innovatsion yechimlar ishlab chiqishga o'rgatadi.

Bizning tajribalarimiz Jizzax politexnika institutining qurilish muhandisligi fakultetida olib borildi. Tadqiqotda talabalar ikki guruhga bo'lindi: birinchi guruh an'anaviy dars metodida, ikkinchi guruh esa PBL metodida o'qitildi. PBL guruhida talabalar loyiha mavzusini mustaqil tanlash, loyiha rejasi tuzish va amaliy sinovlar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, PBL guruhidagi talabalar muhandislik muammolarini hal qilishda an'anaviy guruhga nisbatan yuqori natija ko'rsatdi. Ularning ijodiy va amaliy ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Loyiha jarayonida talabalar mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rgandilar va ilmiy-tadqiqot faoliyatida faol ishtirok etdilar.

Talabalar bilimlarini real kontekstga tatbiq etish imkoniyatini oldilar. Ularning o'zaro hamkorligi va kommunikatsion ko'nikmalari rivojlandi. PBL jarayoni talabalarni real sanoat sharoitida ishlashga tayyorlaydi va ularni professional kompetentlikka ega qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Turli loyiha usullari, jumladan prototip yaratish, virtual simulyatsiya va laboratoriya eksperimentlari sinovdan o'tkazildi. Har bir loyiha bosqichi talabalarni muammolarni aniqlash, yechimlar ishlab chiqish va natijalarni baholash jarayonlariga jalb qildi. Bu esa ularning muhandislik kompetentligini kompleks rivojlantirishga xizmat qildi.

Loyiha asosida o'qitish jarayonida talabalar kreativ fikrlashga undaladi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini mustahkamlashdi. PBL guruhidagi talabalar loyiha yakunida innovatsion yechimlar ishlab chiqdi va ularning motivatsiyasi oshdi. Talabalar laboratoriya ishlarida va dasturiy simulyatsiyalarda faol ishtirok etdi, bu esa amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam berdi.

Shuningdek, PBL talabalarni loyiha boshqaruvi, vaqtni rejalashtirish va resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirdi. Jamoaviy ishlash orqali ularning liderlik va kommunikatsion qobiliyatlari shakllandi. Loyiha asosida o'qitish talabalarning bilimlarini real kontekstga tatbiq etishga imkon berdi, bu esa ularni professional faoliyatga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Talabalar muammolarni tahlil qilish, yechim ishlab chiqish va natijalarni baholash ko'nikmalarini egalladilar. Murabbiy loyiha jarayonida talabalarni yo'naltirdi va natijalarni baholadi, bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi.

Talabalar turli muhandislik sohalarida loyiha yaratish imkoniga ega bo'ldi, jumladan energetika tizimlari, qurilish materiallari va dasturiy ta'minot. PBL talabalarni o'z bilimlarini

jamoaviy loyihalarda sinab ko'rishga rag'batlantirdi va ularni muammolarni hal qilish jarayonida innovatsion yechimlar ishlab chiqishga o'rgatdi.

Loyiha asosida o'qitish talabalarining mustaqil fikrlashini, tahliliy ko'nikmalarini va amaliy bilimlarini bir vaqtda rivojlantiradi. Shu bilan birga, murakkab muhandislik tizimlarini tushunishga, prototiplar va eksperimentlar orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Talabalar loyiha jarayonida o'z-o'zini va jamoa a'zolarini baholash orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Umuman olganda, loyiha asosida o'qitish muhandislik ta'limida talabalarni professional va mustaqil faoliyatga tayyorlashda samarali vositadir.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, PBL orqali talabalar bilim, ko'nikma va kompetentliklarni kompleks rivojlantiradi, bu esa ularni real sanoat sharoitiga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bell, S. (2010). 21-asrda loyiha asosida o'qitish: kelajak ko'nikmalari. The Clearing House, 83(2), 39–43.
2. Blumenfeld, P. C., Soloway, E., Marx, R. W., Krajcik, J. S., Guzdial, M., & Palincsar, A. (1991). Loyiha asosida o'qitishni rag'batlantirish: ishni davom ettirish va o'qishni qo'llab-quvvatlash. Educational Psychologist, 26(3–4), 369–398.
3. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Muammo asosida o'qitish: talabalar nima o'rganadi va qanday o'rganadi? Educational Psychology Review, 16(3), 235–266.
4. Krajcik, J. S., & Blumenfeld, P. C. (2006). Loyiha asosida o'qitish. R. K. Sawyer (tahr.), The Cambridge Handbook of the Learning Sciences (b. 317–334). Cambridge University Press.
5. Mergendoller, J. R., Maxwell, N. L., & Bellisimo, Y. (2006). Muammo asosida o'qitish samaradorligi: o'quv usullari va talabalar xususiyatlarini solishtiruvchi tadqiqot. Interdisciplinary Journal of Problem-based Learning, 1(2), 49–69.
6. Thomas, J. W. (2000). Loyiha asosida o'qitish bo'yicha tadqiqotlar sharhi. The Autodesk Foundation.
7. Eshonqulov Sh.U. "Freymli o'qitish modelining mazmun jihati." Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti axborotlari, 2021, №7, 68–75-bet.
8. Eshonqulov Sh.U. "Freymlar texnologiyasini modellashtirishning pedagogik asoslari va muammoli o'qitish g'oyasi." Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ilmiy axborotlari, 2021, №9, 141–147-bet.
9. Эшонкулов Ш.У. "The Current State of Design and Development Challenges and Special Activities in the E-Learning Environment." Central Asian Journal of Mathematical Theory and Computer Science (CAJMTCS), 2021, Vol.2(9), 48–50 бет.
10. Eshonqulov Sh.U. "Elektron ta'lim muhitida fanni o'qitish mazmuni va muammolari." Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ilmiy axborotlari, 2021, №6, 54–61-bet.
11. Xuramova F.U. "Bo'lajak muhandislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish dasturini ishlab chiqish." Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. – 2024. – №2.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ehonqulov Sherzod Ummatovich

Jizzax politexnika instituti

"Kompyuter va dasturiy injiniring" kafedrasini mudiri, p.f.f.dPhD, dotsent

Manzil: O'zbekiston, 130100, Jizzax shahri

Sh.eshonqulov995@gmail.com

FIZIK JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHDA DASTURIY TA'MINOTLAR VA ULARNING FIZIKANI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

Xudoyeva Hulkar Qandiyorovna

*Toshkent Shahar Chilonzor tumani 201-umumiy
o'rta ta'lim maktabi o'qituvchi*

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada fizika fanini o'qitishda dasturiy modellashtirishning o'rni, uning ta'lim jarayonidagi afzalliklari va samaradorligi tahlil etilgan. Zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida PhET, Algodo, Crocodile Physics, GeoGebra kabi dasturiy vositalardan foydalanishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Fizik jarayonlarni modellashtirish orqali o'quvchilarda ilmiy tafakkur, tadqiqotchilik, tahliliy va kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

MAQSAD: Ushbu maqolaning maqsadi - fizik jarayonlarni modellashtirishda zamonaviy dasturiy ta'minotlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning o'qitish jarayonidagi samaradorligini aniqlash va fizikani o'qitishda interfaol, vizual va amaliy yondashuvlarni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Shuningdek, maqolada kompyuter modellari yordamida o'quvchilarda fizik tafakkurni rivojlantirish, tajribalarni virtual muhitda amalga oshirish va ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: *Tadqiqotchilik kompetensiyasi-* Fizik jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish va modellashtirishda ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanish, muammoni mustaqil aniqlash va yechimini izlab topish, natijalarni tahlil qilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati – Fizik hodisa va jarayonlarni o'rganishda ilmiy muammo qo'yish va taxmin (gipoteza) ilgari surish, fizik jarayonlarni dasturiy vositalar yordamida modellashtirish (PhET, COMSOL, Algodo va boshqalar) orqali tajriba o'tkazish.

XULOSA: Fizik jarayonlarni dasturiy ta'minot yordamida modellashtirish - fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuvdir. Bu nafaqat darsni ko'rgazmali qiladi, balki o'quvchilarda ilmiy tafakkur, mustaqil izlanish va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Raqamli ta'lim sharoitida modellashtirish vositalaridan keng foydalanish o'qituvchini yangi rolga — ta'lim jarayonining tashkilotchisi va yo'naltiruvchisiga aylantiradi. Shunday ekan, fizika o'qituvchilari uchun dasturiy ta'minotlardan foydalanish bo'yicha malaka oshirish, o'zbek tilidagi modellarni yaratish va ulardan darslarda samarali foydalanish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: fizika ta'limi, modellashtirish, dasturiy ta'minot, simulyatsiya, raqamli ta'lim, interfaol o'qitish, virtual tajriba.

ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ДЛЯ МОДЕЛИРОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ ФИЗИКИ

Худоева Хулкар Кандиёровна

*Учитель средней школы №201 Чиланзорского
района города Ташкента*

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется роль программного моделирования в обучении физике, его преимущества и эффективность в образовательном процессе. Отмечена научно-теоретическая и практическая значимость использования таких

программных средств, как PhET, Algodoo, Crocodile Physics, GeoGebra, в современном цифровом образовании. Показаны пути развития научного мышления, исследовательских, аналитических и творческих компетенций студентов посредством моделирования физических процессов.

ЦЕЛЬ: Целью данной статьи является анализ возможностей использования современных программных средств для моделирования физических процессов, определение их эффективности в образовательном процессе и выделение их значения в формировании интерактивных, визуальных и практических подходов к обучению физике. В статье также рассматриваются возможности развития физического мышления студентов с помощью компьютерных моделей, проведения экспериментов в виртуальной среде и формирования навыков научного исследования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Исследовательская компетентность – Способность использовать научно-методические подходы при изучении, анализе и моделировании физических процессов, самостоятельно выявлять проблему и находить решение, анализировать полученные результаты и применять их на практике – Ставить научную проблему и выдвигать гипотезу при изучении физических явлений и процессов, проводить эксперименты посредством моделирования физических процессов с использованием программных средств (PhET, COMSOL, Algodoo и др.).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Программное моделирование физических процессов – это инновационный подход к обучению физике. Оно не только делает урок более наглядным, но и формирует у учащихся научное мышление, самостоятельное исследовательское и творческое мышление. Широкое использование средств моделирования в цифровом образовании трансформирует учителя в новую роль – организатора и проводника образовательного процесса. Поэтому повышение квалификации учителей физики в использовании программного обеспечения, создании моделей на узбекском языке и их эффективном использовании на уроках остается актуальной проблемой.

Ключевые слова: физическое образование, моделирование, программное обеспечение, имитация, цифровое обучение, интерактивное обучение, виртуальный опыт.

SOFTWARE FOR MODELING PHYSICAL PROCESSES AND THEIR IMPORTANCE IN TEACHING PHYSICS

Khudoyeva Hulkar Kandiyorovna
Teacher of Secondary School No. 201,
Chilonzor District, Tashkent City

Annatation.

INTRODUCTION: The article analyzes the role of software modeling in teaching physics, its advantages and effectiveness in the educational process. The scientific, theoretical and practical significance of using software tools such as PhET, Algodoo, Crocodile Physics, GeoGebra in modern digital education is highlighted. Ways to develop scientific thinking, research, analytical and creative competencies in students through modeling physical processes are shown.

THE GOAL: The purpose of this article is to analyze the possibilities of using modern software in modeling physical processes, determine their effectiveness in the educational process and highlight their importance in the formation of interactive, visual and practical approaches to teaching physics. The article also considers the possibilities of developing

physical thinking in students using computer models, conducting experiments in a virtual environment and forming scientific research skills.

MATERIALS AND METHODS: Research competence - The ability to use scientific and methodological approaches in the study, analysis and modeling of physical processes, independently identify the problem and find a solution, analyze the results and apply them in practice - To pose a scientific problem and put forward a hypothesis in the study of physical phenomena and processes, conduct experiments through modeling of physical processes using software tools (PhET, COMSOL, Algodoo, etc.).

CONCLUSION: Software modeling of physical processes is an innovative approach to teaching physics. It not only makes the lesson more visual, but also forms scientific thinking, independent research and creative thinking in students. The widespread use of modeling tools in digital education transforms the teacher into a new role - the organizer and guide of the educational process. Therefore, improving the skills of physics teachers in the use of software, creating models in the Uzbek language and using them effectively in lessons remains a pressing issue.

Keywords: physics education, modeling, software, simulation, digital learning, interactive learning, virtual experience.

XXI asrda ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi natijasida fanlarni o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, fizika fanini o'qitishda zamonaviy dasturiy ta'minotlardan foydalanish o'quvchilarning bilimini chuqurlashtirish, mavzularni ko'rgazmali tarzda tushuntirish va ularni faol o'quvchi sifatida jarayonga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PF-4699-son Farmoni - "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida, Ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;

o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;

axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish;

Fizika o'z tabiatiga ko'ra tajribaga asoslangan fan bo'lib, ko'plab hodisalarni bevosita kuzatish yoki laboratoriya sharoitida amalga oshirish har doim ham mumkin emas. Shu bois, dasturiy modellashtirish o'qituvchiga real sharoitda tajriba o'tkazishni imkonsiz qiluvchi hodisalarni virtual muhitda namoyish etish imkonini beradi.

Fizik jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari

Modellashtirish - bu real ob'ekt yoki hodisaning matematik yoki kompyuter modeli orqali uning xatti-harakatini tahlil qilish jarayonidir. Fizika ta'limida modellashtirish nazariya va amaliyot o'rtasidagi ko'priq bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan modellashtirish:

abstrakt tushunchalarni vizual shaklda ko'rsatadi;

o'quvchining faol fikrlashini rag'batlantiradi;

hodisalar orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini ochib beradi.

Raqamli modellar - bu nafaqat ta'limni jonlantiruvchi vosita, balki tadqiqotchilik metodining o'quv jarayoniga integratsiyasidir. Ular orqali o'quvchi o'rganilayotgan jarayonni o'zi boshqaradi, tahlil qiladi, o'z gipotezasini sinaydi va xulosa chiqaradi.

Fizika ta'limida qo'llaniladigan asosiy dasturiy ta'minotlar

Zamonaviy fizika o'qitish amaliyotida turli xil dasturiy vositalar keng qo'llaniladi. 1-jadvalda eng samarali modellashtirish dasturlari keltiriladi.

1-jadval

DASTUR NOMI	ASOSIY IMKONIYATLAR	QO'LLANILADIGAN BO'LIMLAR
PhET Interactive Simulations (Kolorado universiteti)	Interaktiv tajribalar, o'zgaruvchilarni boshqarish, o'zbek tilidagi interfeys mavjud	Mexanika, elektr, to'lqinlar, optika, issiqlik hodisalari
Crocodile Physics	Virtual laboratoriya muhiti, natijalarni real vaqt rejimida ko'rish	Elektr, magnit, mexanika
Algodo	2D mexanik hodisalarni jonli modellashtirish	Harakat, to'qnashuv, energiya saqlanishi
GeoGebra	Grafik modellashtirish, matematik hisoblash	Kinematika, Kepler qonunlari, optika
Comsol Multiphysics	Issiqlik, elektromagnit va mexanik tizimlarni kompleks modellashtirish	Yuqori sinflar va oliy bosqichlarda

Bu dasturlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, dars jarayonini interfaol, ko'rgazmali va qiziqarli shaklga keltiradi.

Fizikani o'qitishda dasturiy modellashtirishning didaktik ahamiyati.

Dasturiy modellar o'quv jarayoniga quyidagi didaktik imkoniyatlarni olib kiradi:

1. *Ko'rgazmalilik tamoyilini* kuchaytiradi - o'quvchi murakkab hodisani ko'z bilan ko'radi.
2. *Faollikni oshiradi* - o'quvchi parametrlarni o'zgartirib, natijalarni tahlil qiladi.
3. *Muammoli o'qitishni qo'llab-quvvatlaydi* - model asosida savol qo'yish va javob topish jarayoni amalga oshadi.
4. *Tadqiqotchilik faoliyatini* rivojlantiradi - o'quvchi ilmiy izlanish olib boradi.
5. *Tajriba o'tkazishning xavfsiz va iqtisodiy shaklini* yaratadi.

Masalan, 10–11-sinf darslarida Rezerford tajribasini modellashtirish orqali atom tuzilishi nazariyasini ko'rgazmali tarzda tushuntirish yoki Kepler qonunlarini PhET va GeoGebra dasturlarida modellashtirib, sayyoralarning harakat qonuniyatlarini tahlil qilish mumkin.

Dasturiy modellashtirishning o'quvchilarda shakllantiradigan kompetensiyalari

Fizik jarayonlarni dasturiy vositalar yordamida modellashtirish jarayonida o'quvchilarda quyidagi **kompetensiyalar** rivojlanadi:

Fizik tafakkur kompetensiyasi - hodisalarni mantiqan tahlil qilish, qonuniyatlarni izlash;
Axborot texnologiyalari kompetensiyasi - dasturlar bilan ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish;
Tadqiqotchilik kompetensiyasi - gipoteza yaratish va modellashtirish orqali sinash;
Kreativ kompetensiya - yangi model, ssenariy yoki tajriba shakllarini ishlab chiqish;
Kommunikativ kompetensiya - jamoada ishlash, natijalarni taqdim etish.

Amaliy joriy etish tajribasi

Dasturiy modellashtirishning ta'limiy samaradorligi bir qator tadqiqotlar va tajriba darslari orqali isbotlangan. Masalan, maktablarda o'tkazilgan amaliyotlar shuni ko'rsatadiki:

PhET simulyatsiyalaridan foydalangan o'quvchilar dars mavzusini 20–30% tezroq o'zlashtirgan;

Darsga nisbatan qiziqish darajasi 40% gacha oshgan;

O'quvchilarning mustaqil tahlil qilish ko'nikmalari sezilarli yaxshilangan.

Shuningdek, o'qituvchilarning o'zi uchun ham bu vositalar darsni rejalashtirish va nazoratni soddalashtirish, vaqtni tejash hamda dars samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ergashev, N. *Fizika ta'limida modellashtirishning pedagogik asoslari*. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. - 164 b.
2. Abduqodirov, A., & Yo'ldoshev, J. *Ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari*. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021- 210 b.
3. Wieman, C. E., & Perkins, K. K. *Simulations that enhance learning in physics*. - *Science*, 2006, Vol. 322(5902), pp. 682–683.
4. Hestenes, D. *Modeling theory for physics instruction*. - *American Journal of Physics*, 1996, Vol. 55(5), pp. 440–454.
5. Halliday, D., Resnick, R., & Walker, J. *Fundamentals of Physics*. - 12th Edition. - New York: Wiley, 2021. - 1256 p.
6. Gilbert, J. K. *Visualization in Science Education*. — Springer, 2008. - 245 p.
7. Qosimov, U. *Fizika darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish*. - Buxoro: BDU nashriyoti, 2020. - 132 b.
8. PhET Interactive Simulations. - Kolorado Universiteti. <https://phet.colorado.edu> (murojaat sanasi: 14.10.2025).
9. Niyozov, M. *Raqamli ta'lim va fizika o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish*. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. - 188 b.
10. Pressman, R. S. *Software Engineering: A Practitioner's Approach*. - 8th Edition. - McGraw-Hill Education, 2014. - 832 p.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PF-4699-son Farmoni

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xudoyeva Hulkar Qandiyorovna

Toshkent Shahar Chilonzor tumani 201-umumiy

o'rta ta'lim maktabi o'qituvchi

Manzil: O'zbekiston, Toshkent Shahar Chilonzor tumani

201-maktab Shosh 6-A ko'chasi

Khulkar-83@mail.ru

MILLIY UYG'ONISHDAN INTELLEKTUAL RENESSANS GACHA: JADIDLAR ORZUSI VA ZAMONAVIY INSON KAPITALI KONSEPSIYASI



Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

o'qituvchisi



Yuldasheva Marjona Muxammad qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida XX asr boshlarida kechgan Jadidchilik harakatlari natijasida yuzaga kelgan ta'lim-tarbiya islohotlari, ziyoli ma'rifatparvarlarning pedagogik qarashlari, asosiy g'oyalari va ularning bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek yangi usul maktablari ochilishi, jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklar hamda ularning xalqni milliy o'zlikni anglatishga qaratilgan sa'y-harakatlari to'g'risida tadqiq qilinadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida Jadidlar deb atalgan ma'rifatparvar ziyolilar xalqni qoloqlikdan, ilmsizlikdan, jaholatdan qutqarish uchun kurash olib borganlar. Va bu XIX-XX asr Turkiston tarixiga yangi davr – ma'rifat va uyg'onish davri degan nomlar ostida bitildi. Bu davrning yorqin sahifalarini ma'rifatparvar ziyolilar tashkil etishdi. O'z davrida dunyoning ilg'or davlatlaridan ko'p jihatdan ortda qolgan Turkiston xalqlarini bo'lajak fojialardan ogoh etish, jamiyat hayotini inqilobiy – zo'rlik yo'li bilan emas, balki tadrijiy – ma'rifiy yo'l bilan ijobiy tomonga o'zgartirish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi, kurash usuli edi. Bu yo'lda ular o'zlarida bor barcha imkoniyatlardan – uy-joylari, shaxsiy mablag'lari, teatr, kutubxona-darsliklardan foydalandilar. Avval chor hukumati keyin esa qizil imperiya, o'z vijdonlari va xalqini sotgan ulamolar tomonidan xalqqa o'tkazilgan tazyiqlarga jim qarab tura olmadilar va jadid bobolarimiz xalqni ilmga, ma'rifatga, va necha asrlik tariximizga nazar solgan holda milliy o'zlikka chorladilar. Ular ta'lim tizimini yangilashni tushunib, ta'lim tizimini tanqid qildilar.

Prezidentimiz Murojaatnomada alohida ta'kidlaganidek: «Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur». Bu fikrlarning har bir jumlariga diqqat qaratar ekanmiz rostan ham inson erki, qadr-qimmat, Vatanni sevish ardoqlash, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat, milliy o'zlikni xalq ongiga singdirish bugungi kunimizning eng dolzarb masalasiga aylanib ulgurdi. Har birimiz o'zimizni va albatta ertangi kunimiz istiqbollari

bo'lmish yosh avlodlarni jadid ma'rifatparvarlarimiz yo'lidan borishga ilmni ardoqlab Vatanni sevishga o'rgatishimiz zarur, ular yoshlar uchun yaxshi ibrat namuna bo'la oladilar.

MATERIALLAR VA METODLAR: “O'tgan asrning 30-yillarida dunyoga kelgan avlod bilan hozir shakllanib borayotgan avlod o'rtasida yer bilan osmonchalik farq bor. Bu avlod Ikkinchi jahon urushining tahlikali yillariyu, urushdan keyingi davr mashaqqatlarini boshidan kechirdi. 50-60-yillarda esa “zulm saltanati”da yashagani va yashayotganini tushunib, “g'urur” nimayu, “iztirob” nima ekanligini chuqur angladi. Shuning uchun ham bu avlod abadiy haqiqatlar va abadiy qadriyatlarning qadriga yetadi. Shu haqiqatlar va shu qadriyatlarning oyoq osti bo'lmasligini istab, istabgina qolmay, qo'lidan kelganicha ularni ardoqlab, himoyalab yashashga urinadi.” Bunday yashashni xalqqa o'rgatgan va xalqni shu yo'lga boshlagan bu ma'rifatparvar jadidlarimiz edilar. Xalqni bu o'yg'a boshlash, mustaqillik uchun harakat qilish va ilm-ma'rifatga chorlash har qancha oson kechmagan bo'lsa ham ammo ular ozodlik uchun harakat qildilar. Bugungi jamiyatni barpo etish bu qachonlardir eng katta ushalmas orzu bo'lib ko'ringan bo'lsada, ammo bu kunlarga yetishish oson kechmadi, qanchadan-qancha qurbonliklarni talab etdi.

“Sovet davrida insoniyat tarixida shu vaqtgacha ro'y bermagan voqealar sodir etildi. O'z xalqining erkin yashashini, vatanining ozod va mustaqil bo'lishini istagan xalqlarning peshqadam farzandlari “millatchilar” deb ataldi. “Ishchi”, “hasharchi”, “ketmonchi” singari bu beozor so'zning rangi-ro'yi shu qadar o'zgartirildiki, “millatchi” deganda boshqa millatni tan olmaydigan, boshqa millatga mansub kishilarning og'izlaridagi luqmai halolni ham olib qo'yadigan kimsalar tushunila boshlandi.

Keyinchalik ular manglayiga “xalq dushmani” tamg'asi bosildi, so'ng otib tashlandi, nihoyat, asarlarini o'qish, nomlarini tilga olish tamomila ta'qiqlandi. Shu tarzda XX asr o'zbek adabiyotining buyuk namoyandalari Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi yozuvchilar ijodi o'zbek adabiyoti tarixidan chiqarib tashlandi, asarlarining nashr etilishiga ruxsat berilmadi. Dastlab Behbudiy bilan Qodiriyning, keyin Fitrat bilan Cho'lponning ijodkor sifatida oqlanishi uchun qanchadan-qancha nayzalarni sindirish, qanchadan-qancha majlislar, bahs va munozaralar qilish lozim bo'ldi. Ajablanarli tomoni shundaki, bu buyuk jabrdiydalarning oqlanishiga Moskvadagi mafkurachilar emas, o'zimizdagi nonko'rlar tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatishdi.” Afsuski millatimizning eng og'riqli nuqtasi bu ziyolilarimizni sotgan sotqinlar o'zga millat emas, balki xalq ichidan chiqqan, tuzini yeb tuzlug'iga tupurgan, mehrobdagi chayonlardan edilar. Ular shu qadar toshbag'ir va bechorahol insonlar ediki, o'z Vatanlarini, millatlarini seva olmadilar, xiyonat qildilar. Ular bechoraligini sababi shunda ediki, inson bo'lib lekin insoniy tuyg'ularni egallay olmagan, sevish, ardoqlashni bila olmagan kambag'al, xudbinlar edilar.

Yurtimizning mashhur olimlardan biri Naim Karimov bu davrlarni “Hasratli tarix” deb ataydi va quyidagilarni qayd etadi: “Mening to'liq bo'lmagan ro'yxatimda otib tashlanganlarning orasida Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Otajon Hoshimov, Ziyosaid, katta tilshunos o'zbek olimi G'ozolim Yunusov, Mo'min Usmonov, Muhammad Hasanov, Qosim Sorokin, Ziya Gimadinov kabi o'nlab insonlar bor edi. Bularning hammasi o'zbek adabiyotining, o'zbek madaniyatining yirik namoyandalari bo'lgan. Ularning birortasi ustidan sud jarayoni bo'lmagan. Besh minutning ichida so'roq qilingan, so'rog'iga bergan javoblari asosida uni xalq dushmani ekanligi “isbot qilingan”. Sho'ro hukumati har qanaqa demokratiya normalarini yig'ishtirib qo'yib, O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda olib borgan siyosatida nihoyatda vaxshiy bir tuzumni yaratgan davlat sifatida ish ko'rganligini va o'zbek xalqining eng ilg'or ziyolilarini qirib tashlaganini aytmoqchiman”

“Boshidan o'tkazgan qiyinchiliklarini, to'g'rirog'i, xo'rliklarini eslash insonni yana bir karra og'ir azobga ro'baro' qiladi. Uni yozish esa... Qatag'onlik davri tasviri, undan ham og'iri



- o‘zining «xalq dushmani» deb ayblanishi haqida yozish, mahbusligini eslash, qamoq voqealari, lager hayoti, so‘zsizlik... bularning haqqoniy tasviri”

“Seni kimliging shu bugundan boshlab yelkangga yozilgan raqam bilan yuritiladi, bu seni inson nomi bilan atashga ham munosib ko‘rmaslik, odam mumkin, chidaysan, ammo sening insonliging, sening qalbingga bosilgan haqorat tamg‘asini kotarish, unga chidash!.. Qaysi gunohimga, qaysi yozuv qilmishimga axir bu haqoratlar! Qaysi axir!!! Sen har qanday jismoniy mashaqqat, har qanday ruhiy haqoratlarga chidashga mahkumsan! Otilmay qolgan tirik murdalar deyilishining ma’nosi ham axir shunda emasmi?!” mana bu har bir satrni o‘qir ekanmiz beihitoyor inson ko‘ziga yosh toladi. Axir o‘zini inson deb atagan mavjudod shu kabi qabihliklarga borishi mumkinmi? Inson zotini ham shu qadar tahqirlash mumkinmi? Hattoki hayvonlarga ham shu darajada muomila qilinmaydiku. Bu jumalarni o‘qiymiz, faxriylarimiz bilan suhbatlashamiz va o‘sha davr tuzumini eslar ekanmiz har bir o‘zini inson deb bilganlar ko‘nglida, qalbining tub-tubidan davr tuzumidan nafratlanadi va lanatlar o‘qiydi.

XULOSA. O‘tgan asr Turkiston zahirida xalq tafakkurini uyg‘otishga, millatni najot toptirishga, xalqni Vatanni mustaqillikka chorlashga harakat qilgan ulug‘ ma‘rifatparvarlar harakati tarix zarvaraqalarizga bitildi. Jadidlar xalq uchun, millat uchun – yangi darsliklar, yangi maktablar joriy etdilar. Ular “Yangi maktab, yangi fikr, yangi inson” g‘oyasini ilgari surdilar. Xalqni ozodlik, erk, hurlikka, ilm va ma‘rifatga, milliy o‘zlikka chorladilar, mustamlakaga qarshi turishga unadilar, ular qo‘llariga qurol ko‘tarmadilar balki, ularning quroli – ma‘rifat edi. Ular xalqni ma‘naviy uyg‘onishga chorlab kurashdilar

Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston”ning asosiy g‘oyasi ham Jadidlar orzusidagidek: millatni bilimli, erkin fikrli, vatanparvar avlod sifatida tarbiyalash. Ularning asosiy g‘oyasi va shiori “Yangi maktab, yangi fikr, yangi inson” degan shior har bir davr uchun global muammo bo‘lib kelmoqda va bugunning ham dolzarb masalasi bo‘lib, yoshlarni erkin fikrlaydigan, mustaqil va Vatanparvar qilib tarbiyalash juda ham muhimdir. Bu tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish va ularni ilmga ma‘rifatga erkin fikr va sadoqatga o‘rgatuish, Vatanga mehr ruhida tarbiyalash – pedagoglarning muqaddas burchidir.

Kalit so‘zlar: Jadid, Pedagogika, Jadidchilik harakatlari, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, yangi fikr, taraqqiyot, jaholat, bolsheviklar, ilm, ma‘rifat, muhabbat, Vatan, sadoqat, millat, ta‘lim-tarbiya, qatag‘on, qatag‘onlik yillari.

ОТ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРОБУЖДЕНИЯ К ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМУ ВОЗРОЖДЕНИЮ: МЕЧТА ДЖАДИДОВ И СОВРЕМЕННАЯ КОНЦЕПЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Халилова Шахло Равшановна

Преподаватель кафедры педагогики и психологии Азиатского международного университета

Юлдашева Марджона Мухаммадовна

*Азиатский международный университет
Студент педагогического факультета*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируются образовательные реформы, проведённые в результате движения джадидов в Туркестане в начале XX века, педагогические взгляды просветителей, их основные идеи и значение в современном образовании. Также рассматривается открытие школ нового образца, учебники, созданные джадидами, и их деятельность по формированию у народа понимания своей национальной идентичности.

В конце XIX – начале XX веков просвещённые интеллигенты Туркестана, называемые джадидами, боролись за спасение народа от отсталости, невежества и неграмотности. И этот XIX-XX век вписан в историю Туркестана как новая эпоха – эпоха просвещения и возрождения. Яркие страницы этой эпохи были созданы просвещёнными интеллигентами. Главной целью и методом борьбы джадидского движения было предупредить народ Туркестана, во многом отстававший в своё время от передовых стран мира, о грядущих трагедиях, изменить жизнь общества в положительную сторону не революционным, насильственным, а постепенным, воспитательным путём. На этом пути они использовали все имеющиеся у них возможности – свои дома, личные средства, театр, библиотеку, учебники. Они не могли молчать о притеснениях народа царским правительством, а затем и красной империей, учёными, продавшими свою совесть и народ, и наши предки-джадиды призывали народ к национальному самосознанию, обращаясь к науке, образованию, к нашей многовековой истории.

Они понимали необходимость обновления системы образования и критиковали её. Как подчеркнул наш Президент в своем Послании: «Мы должны изучать нашу древнюю и богатую историю, особенно деятельность наших предков, которые в тяжелейших условиях смело отстаивали идеалы науки и просвещения, свободу человека, свободу народа, любовь и преданность Родине, национальные ценности. Их мужественная борьба и самопожертвование во имя великих целей вдохновят всех нас на строительство Нового Узбекистана». Прежде всего, она должна служить настоящей школой примера для нашей молодёжи». Внимательно вчитываясь в каждое предложение этих размышлений, мы видим, что свобода человека, достоинство, любовь к Родине, любовь и верность национальным ценностям, воспитание национальной идентичности в сознании народа стали самыми насущными вопросами нашего времени. Каждый из нас должен научить себя и, конечно же, молодые поколения, которые являются перспективой нашего будущего, следовать по пути наших новых просветителей, любить Родину, ценить знания, которые могут быть хорошим примером для молодёжи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: «Существует огромная разница между поколением, родившимся в 1930-е годы, и поколением, которое формируется сейчас. Это поколение пережило опасные годы Второй мировой войны и тяготы послевоенного периода. В 1950-е и 1960-е годы, осознавая, что оно жило и живёт в «царстве угнетения», оно глубоко осознало, что такое «гордыня» и «страдание». Вот почему это поколение ценит вечные истины и вечные ценности. Оно не только хочет и жаждет, чтобы эти истины и ценности не попирались, но и старается жить, почитая и защищая их настолько, насколько это возможно». Именно наши просвещённые джадиды научили народ жить так и направили народ на этот путь. Как бы ни было трудно заставить людей задуматься об этом, стремиться к независимости, призывать к знаниям и просвещению, они работали ради свободы. Построение современного общества когда-то казалось величайшей недостижимой мечтой, но достичь этого было непросто и потребовало многих жертв.

«В советское время в истории человечества произошли беспрецедентные события. Ведущих детей народов, которые хотели, чтобы их народ жил свободно, чтобы их Родина была свободной и независимой, называли «националистами». Значение таких безобидных слов, как «рабочий», «хашарчи», «кетмончи», было настолько изменено, что «националистом» стали называть тех, кто не признавал другие нации и принимал даже малейший укус из уст людей других наций. Позже их клеймили «врагами народа», затем расстреливали, и, наконец, полностью запрещали читать их произведения и упоминать их имена. Таким образом, произведения таких великих представителей узбекской литературы XX века, как Бехбудий, Абдулла Кадыри, Фитрат и Чулпан, были исключены

из истории узбекской литературы, а их произведения не допускались к публикации. Сначала Бехбудий и Кадыри, затем Фитрат и Чтобы оправдать Чолпан как творца Сколько копий пришлось сломать, сколько встреч, споров и дискуссий провести. Удивительно, что не идеологи в Москве, а неблагодарные среди нас яростно сопротивлялись оправданию этих великих жертв. К сожалению, самое болезненное для нашей страны то, что предатели, предавшие нашу интеллигенцию, были не из другой нации, а из самого народа, который съел соль и выплюнул её, как скорпионы на алтаре. Они были настолько черствы и жалки, что не могли любить свою родину и народ, они предали их.

Причина их несчастий заключалась в том, что они были бедными, эгоистичными людьми, которые, хотя и были людьми, не могли обладать человеческими чувствами, не могли любить и ценить. Один из известных отечественных учёных, Наим Каримов, называет эти периоды «Тоскующей историей» и отмечает: «В моём неполном списке, среди расстрелянных, значатся такие люди, как Чолпон, Абдулла Кадыри, Фитрат, Отажон Хошимов, Зиё Саид, великий узбекский лингвист Гозиолим Юнусов, Момин Усманов, Мухаммад Хасанов, Косим Сорокин, Зия Гимадинов. Десятки людей. Все они были крупными деятелями узбекской литературы и культуры. Ни один из них не предстал перед судом. Их допрашивали в течение пяти минут, и на основании их ответов они были «доказаны» как враги народа. Хочу сказать, что советская власть, отказавшись от всех демократических норм, создала крайне варварский режим в своей политике в Средней Азии, и в Узбекистане в частности, и истребила наиболее передовую интеллигенцию узбекского народа». «Воспоминание о тяготах, вернее, об унижениях, вновь доводит человека до тяжких страданий. Писать об этом... Описание эпохи репрессий, и ещё труднее – писать о том, как его обвиняли в том, что он «враг народа», вспоминать своё заключение, тюремные события, лагерную жизнь, молчание... правдивое описание всего этого».

«С сегодняшнего дня твоя личность будет отмечена номером на плече, это даже не признание тебя достойным называться человеком, человеком, ты можешь это вынести, а твоя человечность, клеймо оскорблений, запечатлённое в твоей душе, – вынести это!.. Какой грех я совершил, что я написал, эти оскорбления!.. Что!!! Ты обречён терпеть любые физические лишения, любые моральные оскорбления! Быть названным живыми трупами, которых не расстреляли. Разве не это значит?!» При чтении каждой строки на глаза добродушного человека наворачиваются слёзы. В конце концов, может ли существо, именующее себя человеком, совершить такие зверства? Неужели род человеческий может быть так унижен? Даже с животными не обращаются так. Когда мы читаем эти строки, разговариваем с нашими ветеранами и вспоминаем режим той эпохи, каждый человек, считающий себя человеком, от всего сердца ненавидит и проклинает режим той эпохи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Великое движение просветителей, пытавшихся пробудить мышление народа, спасти нацию и призвать народ и Родину к независимости в глубине Туркестана в прошлом веке, вписано в нашу историю. Джадиды создали новые учебники и новые школы для народа, для нации. Они выдвинули идею «Новой школы, новой идеи, нового человека». Они принесли народу свободу, свободу. Они призывали к свободе, науке и просвещению, национальному самосознанию. Призванные противостоять колониализму, они не брались за оружие, но их оружием было просвещение. Они призывали к духовному пробуждению народа и боролись.

Сегодня главная идея «Нового Узбекистана» совпадает с мечтой джадидов: воспитать нацию образованным, свободомыслящим, патриотичным поколением. Их главная идея и лозунг «Новая школа, новая мысль, новый человек» были глобальной

проблемой для каждой эпохи и остаются актуальными и сегодня. Воспитание молодёжи свободомыслящей, независимой и патриотичной — святая обязанность педагогов — привить эти понятия молодёжи, воспитать её свободомыслящей, преданной науке, просвещению и любви к Родине.

Ключевые слова: джадидизм, педагогика, джадидские движения, Абдулла Авлони, Чолпон, новые идеи, прогресс, невежество, Большевики, наука, просвещение, любовь, Родина, верность, нация, образование, репрессии, годы репрессий.

FROM NATIONAL AWAKENING TO INTELLECTUAL RENAISSANCE: THE DREAM OF THE JADIDS AND THE MODERN CONCEPT OF HUMAN CAPITAL

Khalilova Shakhlo Ravshanovna

*Lecturer, Department of Pedagogy and
Psychology, Asian International University*

Yuldasheva Marjona Muhammad qizi

*Asian International University
Student of Pedagogy*

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the educational reforms that occurred as a result of the Jadid movement in Turkestan at the beginning of the 20th century, the pedagogical views of the intellectual enlighteners, their main ideas, and their significance in modern education today. It also examines the opening of new-style schools, textbooks created by the Jadids, and their efforts to make the people understand their national identity.

In the late 19th and early 20th centuries, enlightened intellectuals called Jadids in Turkestan fought to save the people from backwardness, ignorance, and ignorance. And this 19th-20th century was written in the history of Turkestan under the names of a new era - the era of enlightenment and revival. The bright pages of this era were created by enlightened intellectuals. The main goal and method of struggle of the Jadid movement was to warn the people of Turkestan, who in their time lagged behind the advanced countries of the world in many ways, about the upcoming tragedies, to change the life of society in a positive direction not by revolutionary - force, but by gradual - educational way. On this path, they used all the opportunities they had - their homes, personal funds, theater, library and textbooks. They could not remain silent about the oppression inflicted on the people by the tsarist government, and then by the red empire, by the scholars who sold their conscience and people, and our Jadid ancestors called on the people to national identity, looking to science, education, and our centuries-old history. They understood the need to renew the education system and criticized the education system.

As our President emphasized in his Address: "We must study our ancient and rich history, especially the activities of our forefathers, who, in extremely difficult circumstances, boldly promoted the ideals of science and enlightenment, human freedom, people's freedom, love and devotion to the Motherland and national values. Their courageous struggle and self-sacrifice for the sake of great goals will inspire all of us in building a New Uzbekistan, First of all, it must serve as a true school of example for our youth. " Paying attention to each sentence of these thoughts, we can see that human freedom, dignity, love for the Motherland, love and loyalty to national values, and instilling national identity in the minds of the people have become the most urgent issues of our time. Each of us must teach ourselves and, of course, the young generations, who are the prospects of our future, to follow the path of our new

enlighteners, to love the Motherland by valuing knowledge, who can be a good example for the youth.

MATERIALS AND METHODS: "There is a huge difference between the generation that was born in the 1930s and the generation that is being formed now. This generation experienced the dangerous years of World War II and the hardships of the post-war period. In the 1950s and 1960s, realizing that it had lived and is living in the "reign of oppression", it deeply understood what "pride" and "suffering" are. That is why this generation appreciates eternal truths and eternal values. It not only wants and desires that these truths and values not be trampled upon, but also tries to live by honoring and protecting them as much as it can." It was our enlightened Jadids who taught the people to live like this and started the people on this path. No matter how difficult it was to start the people thinking about this, to work for independence, and to call for knowledge and enlightenment, they worked for freedom. Building today's society once seemed like the greatest unattainable dream, but reaching these days was not easy, and it required many sacrifices.

"In the Soviet era, unprecedented events occurred in the history of mankind. The leading children of the peoples who wanted their people to live freely, their homeland to be free and independent were called "nationalists".

The meaning of this harmless word like "worker", "hasharchi", "ketmonchi" was changed so much that "nationalist" began to mean those who did not recognize other nations and took even the slightest bite from the mouths of people of other nations. Later, they were branded "enemy of the people", then shot, and finally, it was completely forbidden to read their works and mention their names.

In this way, the works of such great representatives of 20th century Uzbek literature as Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, and Chulpon were excluded from the history of Uzbek literature, and their works were not allowed to be published. First, Behbudiy and Qodiriy, then Fitrat and To justify Cholpon as a creator "How many spears had to be broken, how many meetings, debates and discussions had to be held. The amazing thing is that it was not the ideologists in Moscow, but the ungrateful among us who resisted the vindication of these great victims tooth and nail." Unfortunately, the most painful point of our nation is that the traitors who betrayed our intellectuals were not from another nation, but from within the people, who had eaten the salt and spit it out, like scorpions on the altar. They were so callous and miserable that they could not love their homeland and nation, they betrayed it. The reason for their misery was that they were poor, selfish people who, although they were human, could not possess human feelings, could not love and appreciate.

One of the famous scientists of our country, Naim Karimov, calls these periods "Longing History" and notes the following: "In my incomplete list, among those who were shot, there are such people as Cholpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Otajon Hoshimov, Ziyo Said, the great Uzbek linguist G'ozolim Yunusov, Momin Usmanov, Muhammad Hasanov, Qosim Sorokin, Ziya Gimadinov There were dozens of people. All of them were major figures of Uzbek literature and culture. None of them were tried. They were interrogated within five minutes, and based on their answers, they were "proven" to be enemies of the people. I want to say that the Soviet government, having abandoned all democratic norms, created an extremely barbaric regime in its policy in Central Asia, and in Uzbekistan in particular, and exterminated the most advanced intellectuals of the Uzbek people."

"Remembering the hardships, or rather, the humiliations, once again brings a person to severe suffering. Writing it... A description of the era of repression, and even more difficult - writing about being accused of being an "enemy of the people", remembering his imprisonment, prison events, camp life, silence... a true description of all this", "Your identity will be marked

by a number on your shoulder from today, this is not even considering you worthy of being called a human being, a human being, you can bear it, but your humanity, the mark of insults imprinted on your soul, to bear it!.. What sin have I committed, what writing have I done, these insults!.. What!!! You are condemned to endure any physical hardship, any mental insults! Of being called living corpses that were not shot Isn't that what it means?!" As we read each line, tears well up in the eyes of a good-natured person. After all, can a creature that calls itself a human being commit such atrocities? Can the human race be so humiliated? Even animals are not treated to this extent. When we read these sentences, talk to our veterans, and remember the regime of that era, every person who considers himself a human being hates and curses the regime of that era from the bottom of his heart.

CONCLUSION. The great movement of enlighteners who tried to awaken the thinking of the people, save the nation, and call the people and the Motherland to independence in the depths of Turkestan in the last century has been written in our history. The Jadids introduced new textbooks and new schools for the people, for the nation. They put forward the idea of "A new school, a new idea, a new person." They brought the people freedom, freedom, They called for freedom, science and enlightenment, national identity, they urged to resist colonialism, they did not take up arms, but their weapon was enlightenment. They called for the spiritual awakening of the people and fought

Today, the main idea of "New Uzbekistan" is the same as the dream of the Jadids: to educate the nation as an educated, free-thinking, patriotic generation. Their main idea and slogan "New school, new thought, new person" has been a global problem for every era and is still an urgent issue today, and it is very important to educate young people as free-thinking, independent and patriotic. It is the sacred duty of educators to instill these concepts in the minds of young people and teach them to be free-thinking and devoted to science, enlightenment, and love for the Motherland.

Keywords: Jadid, Pedagogy, Jadid movements, Abdulla Avloni, Cholpon, new ideas, progress, ignorance, Bolsheviks, science, enlightenment, love, Motherland, loyalty, nation, education, repression, years of repression.

Turkistondagi jadid (jadid soʻzi arabcha «yangi usul», «yangilik» demakdir) maktablarining yuzaga kelishi mashhur qrim tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bogʻliqdir.²⁶ Lekin bu tushuncha shunchaki lugʻatdagi «yangi» degan soʻz emas, balki «yangi tafakkur», «yangi dunyo», «yangi maktab», «yangi fikr» va «yangi inson» degan tushunchalarni oʻzida mujassam etadigan keng tarmoqli tushunchadir. Ana shu tushunchalarni oʻzlarida mujassamlashtirgan holda jadidlar «yangi maktab, yangi fikr, yangi inson» shiori ostida faoliyat olib bordilar. «Gaspirali «usuli jadid» bilan oʻqitishning qoidalarini quyidagicha tushuntiradi: butun alifboni birdan oʻrgatish ogʻir. Ibtido (boshda) uch, besh harf oʻrgatib borish (yengil)dur. ... birinchi darsdan shogirdlarga yozishni boshlamaslik darkor. Darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratilib oʻrgatilishi lozim. Oʻquvchi bir darsni oʻzlashtirmaguncha ikkinchisiga oʻtilmasligi kerak.»²⁷

Ismoilbek Gaspirali oʻzi tashkil qilgan maktab uchun bir qator darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari ham yaratdi. Uning yangi usuldagi maktab hayotiga bagʻishlangan asarlari jumlasiga: «Hoʻjai Sibyon» («Bolalar muallimi»), «Qirsati turki», «Rahbari muallimin» kabi

²⁶ Izbullayeva. G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSNIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 268-bet

²⁷ Izbullayeva. G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSNIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 269-bet



268 darslik va o'quv qo'llanmalarini kiritisa bo'ladi. Gaspiralining ushbu asarlari o'quv jarayonini tashkil etish, darsliklarga qo'yiladigan talablar, musulmon o'quv adabiyotida qo'llaniladigan didaktik va metodik ko'rsatmalar bilan jadid maktablari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi.²⁸ Bu kabi maktablar yaratilishi va bunday darsliklarning chop etilishi boshqa ziyolilar uchun motivatsiya bo'ldi.

Shunday tushunchalar borki, ularning nomini eshitganingizdayoq borlig'ingizni iliq va yoqimli hislar chulg'ab oladi. Agar ular bo'lmaganda hayot zulmatdan, tirikchilik vahshiyona kun o'tkazmoqdan iborat bo'lib qolar edi. Muhabbat, sadoqat, xayrihohlik, oliyjanoblik kabilar hayotga nur, umrga mazmun baxsh etadi. Insonning sharaflari mavqeida ularning o'rni alohida. Muhabbatning qamrovi keng. Vatanga muhabbat, xalqqa muhabbat, do'stga muhabbat, yorga muhabbat.... Lekin uning mazmunida bir narsa juda aniq. Muhabbat – kimgadir, nimagadir chanqoq bir intilish, uni o'zining jon-tani deb bilish, butun borlig'ini unga baxshida etish tuyg'usi bilan yonish, uni baxtiyor va shodon etmoqqa bo'lgan buyuk ishtiyoq. U sahroni bo'stonga aylantira oladi, toshdan gul undiradi.

Abdulla Avloniy "Muhabbat" degan tushunchaga shunday ta'rif beradi: "Muhabbat deb bir narsani suymakni aytilur. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yasharlar. Har bir ishni muhabbat orqasidan ishlarlar. Muhabbatsiz kishilar hech bir ishni ishlamakg'a g'ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne'matlaridan lazzat ololmas. Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa ishtaho ila o'qumasa, maqsadga yetolmas. Yer yuzidagi insonlarni urushma-taloshmalarga qovushdirg'on, siynalarini dushman o'qig'a nishona qiladurgon narsa din va millatlarining, Vatan va davlatlarining muhabbatidir. Kishini(ng) kecha va Kunduz qul kabi mehnat va mashaqqatlariga ko'krak berub ishlatadurgon narsa Vatan va bola-chaqalarining mehr-u muhabbat emasmi?"²⁹ degan satrlarni bitar ekan Abdulla Avloniy isonni hayotga bo'lab turgan, va bu hayotdagi har birimizni zarracha umid bilan hayot mashaqqatlariga dosh bera olishimizga ko'maklasha olgan bu Muhabbat ekanini ta'kidlaydi. Mana shu sababdan ham Jadid bobolarimiz qalbida tug'yon urgan g'alayonlar, xalq taqdiriga shunchaki ko'z yuma olmay, ular uchun o'zlaridagi bor resurslardan foydalanishgan, bu yo'lda ziyolilarimiz o'z jonlarini ham fido qilishgan mana shu ularning Vatanlari, xalqlariga bo'lgan muhabbatlarini namoyon etadi. Huddi mana shu kichik satrlarga yozilgan Muhabbat deb atalmish o'zi esa ulkan ma'nolarga sabab bo'la oladigan tushuncha jadid bobolarimizga umid baxshida etdi va ular "yangi maktab"lar qurishga insonlarni ilm-ma'rifatli qilishga, xalqni qora mehnatdan qutqarishga, o'zgalar qo'lida sarson bo'lmaslikka undadilar. Ular "yangi O'zbekiston"ni kashf etish uchun birlashdilar.

A.Avloniy 1906-yildayoq Mirobid mahallasida yangi usuldagi maktab ochadi. Uning bu maktabida diniy bilimlar bilan bir qatorda bir qator amaliy fanlardan ham saboq berilardi. A.Avloniy bolalarning axloqiy tarbiyasiga alohida e'tibor beradi va shu sababdan o'z maktabida «axloq» darsini o'ta boshlaydi. Avloniy Turkiston maktablarida axloq-odob to'g'risidagi bilimlar berilishi lozimligini quyidagicha tushuntiradi: «... Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilishi mukammal «axloq» kitobining yo'qligi ofrodi millatining shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi o'zim muallimlar jumlasidan bo'lganligimdan manga ham ochiq ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram shayx Sa'diy usulida yozmoqni, 271 garchi og'ir ish bo'lsa-da, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni orodin ko'tarmakni munosib ko'rdim».³⁰ Mana shu tariqa "Turkiy Guliston yoxud axloq» nomli ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan qimmatbaho asar 1913-yilda dunyo

²⁸ Izbullayeva, G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSLIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 269-bet

²⁹ Abdulla Avloniy. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2022. 53-bet

³⁰ Izbullayeva, G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSLIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 272-bet

yuzini ko'radi. "A.Avloniy tarbiya sarlavhasi ostida tarbiya turlariga alohida to'xtalib, tarbiyani to'rt turga bo'ladi: tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi (aqliy tarbiya), axloq tarbiyasi."³¹ Mana bu 4 tarbiyani Avloniy yoritar ekan, tarbiya avvalo bola tug'ulgan kundan boshlab berilmog'i darkor deydi. Bolaga tarbiya bermoq uchun avvalo ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanishi zarur degan fikrlarni ilgari suradi.

Inson uchun yolg'izlik - eng og'ir jazo. So'qqabosh hech qachon baxtiyor bo'lgan emas. Bir qo'ldan sado chiqanmi axir? Yolg'iz kishining hayoti g'amdangina iborat. Toq kishining maishat uyi vayron, butun bir uyni yagona ustun ko'tarib turganini kim ko'rgan? Burgutning bir qanoti sinib, qancha tez uchmasin, hayoti lahzadan oshmaydi.³² Abdulla avloniy ta'kidlagan mana bu satrlarga diqqat qilar ekanmiz, agar xalq birlashmasa, bir yoqadan bosh chiqarmasa bir inson qanchalar ojiz bo'lishi va osno yengilishi haqida tushunishimiz mumkin bo'ladi. "Yangi fikr" g'oyasini ziyolilarimiz xalq ongiga singdirishga harakat qildilar. Xo'sh "yangi fikr" nima edi? Avvalo qotib qolgan tushunchalardan yiroqlashish, nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlardan ham bohabar bo'lish demakdir. Janubiy Afrikadagi Stellenbosh universitetiga kirish eshigi oldidagi yozuv: Har qanday davlatni yo'q qilish uchun atom bombasi yoki uzoq masofaga uchuvchi raketalaridan foydalanish shart emas, faqat ta'lim sifatini pasaytirish va talabalarga imtihonlarda ko'chirish imkonini berish kerak. Bemorlar ana shunday shifokorlar qo'lida o'lishadi; Binolar bunday muhandislar qo'li bilan vayron bo'ladi; Bunday iqtisodchi va hisobchilarning qo'lidan pul yo'qoladi; Bunday advokat va sudyalari qo'lida adolat yo'qoladi. Ta'limning qulashi millatning yemirilishidir. Har bir millatning ojiz tomoni uning ta'limini, o'zligini, o'tmishini unuttirishdir. Bolsheviklar siyosati mana shu tartibda avvalo Turkiston xalqini ta'lim tizimini yo'q qilish va o'tmishini unuttirib, omi xalq qilish edi. Bu yo'lda minglab ilm-ma'rifatli ziyolilarimiz qurbonlik keltirishdi.

"A.Avloniy o'z zamondoshlari orasida pedagogika fanini birinchi bo'lib tilga olgan va o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida pedagogika «Pedagogiya» – bola tarbiyasining fani demakdir, deb to'g'ri ta'rif bera olgan buyuk pedagog hamdir. Shu jihatdan ham uni o'zbek pedagogikasi taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'targan olimlar qatoriga kiritisa bo'ladi."³³ Shu sababdan ham Avloniy buyuk Pedagog deya ayta olamiz.

Avloniy erk va ozodlikni har narsadan baland tutarkan, unga olib boradigan birdab-bir yo'l deb ilm ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatani, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o'ylagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Ilm-fanni egallashga ozgina bo'lsin xalaqit berishi mumkin bo'lgan har qanday tartiblar, shu jumladan eski o'qitish usuli keskin tanqid qilindi...³⁴

"«Usuli qadimiylar» yoqlab chiqqan eskicha o'qitish maktablaridan ham hozirgi davrimiz uchun progressiv bo'lgan g'oyalarni olsa bo'ladi. Bulardan biri o'qitishda qat'iylik tamoyiliga rioya qilishdir. Eski maktablarda bola biror bilimni mukammal o'rganib olmaguncha sinfdan sinfga ko'chirilmas edi. Eskicha o'qitishda bo'lgani kabi o'quv jarayonida qat'iylik tamoyilining yo'lga qo'yilishi zamonaviy maktablarimiz uchun ham juda zarurdir"³⁵ An'anaviy dars tizimining mana bu jihatlari foydali bo'lgan desak adashmaymiz.

Ziyoli-ma'rifatparvarlarimiz "yangi dunyo" barpo etishda barcha yo'llardan foydalandilar. Nafaqat maktab balki, siyosatga ham o'zgartirish kiritishga urundilar ammo bu yo'l

³¹ Izbullayeva. G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSLIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 272-bet

³² Abdulla Avloniy. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2022. 56-bet

³³ Izbullayeva. G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSLIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 272-bet

³⁴ Abdulla Avloniy. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2022. 146-bet

³⁵ Izbullayeva. G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSLIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 276-bet

ko'plarning hayotini qurbon qilishni talab etdi. Siyosiy kurash maydonidagi jadidlarning o'zgargan taktikasi haqida Hamid Olimjon: "Siyosat bobidan surilib chiqqan, Fevral inqilobi davridagi jonsarak urinishlari xayolga aylangan o'bek burjua ziyolilari butun kuchini madaniy-adabi maydonga tashladi. Ular, taxminan, butun gazeta va jurnallarga o'rnashib oldilar.

Maktab-maorifining asosiy shaxobchalari ularning qo'lida qoldi. Adabiy maydon va adbiy shaxobchalarga o'z changallari solib, millatchilik mafkurasiga xizmat qildirdilar" deb yozgan edi.³⁶ Rostdan ham ziyolilarni davlat qancha qistab har tomonlama qanotlarini kesib, ularni jim turishga undasa ham ammo ular o'z yo'llaridan to'xtamadilar. Bu yo'ldan also qaytmasdan Yangi jamiyat barbo etishga mahkam bel bogg'ladilar.

Cho'lpon ziroat va dehqonchilik haqidagi maqolasida: "Har kuni gazetalarda "faloniylar sindi", "Faloniylar vekseli protest bo'ldi, do'konlari pechatlandi" deganga O'xshash qo'rqinchilik xabarlarini o'qub eshitmoqda va ko'rib bilmoqda bo'lsak ham, ammo ibratlanmaymiz. Sababini hech tekshirmaymiz. Yolg'uz "bozor kasod" deb o'tabermiz. Ammo bozorni kasodlig'iga nima sabab ekanligini tekshirmaymiz", deya yozadi³⁷ Cho'lpon millatdoshlarining iqtisodiy bilimlarni egallashini, ajnabiy korchalonlar bilan raqobat qila oladigan tadbirkor-u tujjorlar yetishishini orzulaydi.³⁸

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday deydilar "Barchamizga ayonki "Tilda, Fikrda, Ishda-Birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li - bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda deb bildilar" afsuski o'sha davrdagi mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum bu ulug'vor maqsadlarni amlaga oshirishga yo'l bermadi, shu boisdan Xalqimiz ozodligi va Vatan ravnaqi yo'id aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirishga alohida e'tibor berilmoqda³⁹ bugungi "Yangi O'zbekiston"ni qurish, bugungi Istiqbolga, mustaqillik va erkka erishish oson bo'lmadi va albatta minglab insonlar taqdiri shu yo'l uchun, shu ravnaq uchun tikildi. Albatta yoshlarga Jadidlar hayotini o'rgatish va ularni ibrat-namuna sifatida olish bizni ko'zlagan maqsadlarimizga albatta tezroq eltadi.

Dunyoning birinchi jahongiri nomini olgan Iskandarning bir gapi bore di: "agar bir millatni yo'q qilmoqchi bo'lsang, uning tarixini yo'q qil. Chunki o'z tarixini bilmagan, milliy o'zligini anglamagan xalqni yer yuzidan yo'q qilish oson" deb bejiz aytмага. Ular huddi manqurt kabi bo'ladilar. Ularni ongini egallash oson kichadi. Shu satrlar Chor Rossiyasining Asosiy shiori edi, shu sababdan ham Turkistonni tarixini yo'qotishga va ilmli-ziyolilarni yo'q qilishga, surgun etishga jon jahdlari bilan intilib kurash olib bordilar. «Kishining aqli hur bo'lmaydi ekan, uning yurti hurriyatga ega bo'lolmaydi, erisholmaydi. Chunki zehnlardagi qullik vatanlardagi qullikdan ko'ra xatarliroqdir» "Jadid maktablarida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari milliy maktabimizni yaratish va unda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishda bo'lajak o'qituvchilarimiz uchun dasturulamal vazifasini o'tashi mumkin.

O'ylaymizki, xuddi jadid maktablarida bo'lgani kabi zamonaviy maktablarimizda dunyoviy fanlar bilan birgalikda islom dinining asoslarini ham o'rgatishni yo'lga qo'yish, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda jadidlar ilgari surgan g'oyalar – milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz, milliy urf odatlarimiz, xalq pedagogikasiga tayanib ish ko'rish, bolalarning qiziqish va layoqatlarini o'rganib, ularga sodda va tushunarli bo'lgan bilimlar berish, ta'lim jarayonini bolalarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish, o'qitishda ko'rgazmalilikka va tabiatga bo'ladigan ekskursiyalarga tayanib ish ko'rish, iqtidorli bolalarni

³⁶ Olimjon H. Asarlar. Besh jildlik. 5-jild. – Toshkent, 1972. 111- bet

³⁷ Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. // Sadoyi Farg'ona. – 1914. – 30-aprel.

³⁸ Abdulhamid Cho'lpon. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent. Yoshlar nashriyoti uyi. 2022. 49-bet

³⁹ "Tarjimon" g, 1906-yil, 69-son. –B .112.



tanlab olib, ularga qo‘shimcha ravishda bilimlar berib borish, milliyligimizni aks ettiruvchi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratish bo‘lajak o‘qituvchiga samarali pedagogik faoliyat ko‘rsatishda katta yordam beradi.”⁴⁰

Bugungi ta‘lim tizimimizni Jadidchilik g‘oyalari bilan birga boyitish bolalarga yangicha o‘quv uslubiy yondashuvni beradi. Bolalar bilan ta‘lim tizimida differensial va integrativ yondashuvlar orqali ta‘limni olib borish orqali ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar orqali biz zamonaviy jamiyat va yangi Renessansni barpo eta olamiz, huddi jadidlarimiz orzusidek.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
2. Izbullayeva. G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSLIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI
3. Shukrullo “Kafansiz ko‘milganlar”- «Yangi asr avlodi» \2020-y.
4. Abdulla Avloniy. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2022.
5. Olimjon H. Asarlar. Besh jildlik. 5-jild. – Toshkent, 1972.
6. Cho‘lpon. Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik. // Sadoyi Farg‘ona. – 1914.
7. Abdulhamid Cho‘lpon. Yoshlar ishlari agentligi. Toshkent. Yoshlar nashriyoti uyi. 2022.
8. “Tarjimon”g , 1906-yil, 69-son. –B .112.
9. “Yoshlik” jurnali, 2014 yil, 6-son.
10. N. Karimov Qatag‘on qurbonlari. – Toshkent, 2015.

MUALLIF HAQIDA MA‘LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrasi o‘qituvchisi.

Yuldasheva Marjona Muxammad qizi

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika yo‘nalishi talabasi
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

⁴⁰ Izbullayeva. G. PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI I QISM DARSLIK. BUXORO – 2022 «DURDONA» NASHRIYOTI 277-bet

DETERMINING THE MANAGEMENT AND EFFECTIVENESS OF JUDO TRAINING ORGANIZED FOR YOUTH



Feruz Sayidov

*Teacher, Department of Theory and Methods of Physical Culture,
Bukhara State Pedagogical Institute,*

ABSTRACT: The article formulates conclusions on the organization of the judo section, makes a comprehensive assessment of general and special preparedness, competitive activity, and also substantiates the reliability of rating points for the general sports activity of students.

KEY WORDS: General physical training, special physical training, competitive activity, sports activity, evaluation criteria, pedagogical assessment, absolute value, reliability of the results of the difference.

AIM: Organization and Evaluation of the Effectiveness of the Student Judo Section

OBJECTIVE: To study the features of organizing a student judo sports section and to evaluate its effectiveness in developing students' physical fitness, athletic skills, and personal qualities.

MATERIALS AND METHODS: The study applied methods of pedagogical observation, questionnaires, physical fitness testing, as well as analysis of section documentation and students' sports results. The research base included students engaged in the judo section of the pedagogical university.

CONCLUSION: The organization of a judo section in the student environment contributes to the formation of stable motivation for sports, the development of physical and volitional qualities, and the increase of social activity and cohesion. A comprehensive evaluation of the section's effectiveness demonstrates its positive impact on both educational and developmental processes.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПОДГОТОВКИ ДЗЮДО ДЛЯ МОЛОДЕЖИ

Феруз Сайидов

*Преподаватель кафедры теории и методики физической культуры
Бухарского государственного педагогического института,*

АННОТАЦИЯ: В статье сформулированы выводы по организации секции дзюдо, произведено комплексная оценка общей и специальной подготовленности, соревновательной деятельности, а также обосновано достоверность рейтинговых баллов по общей спортивной деятельности студентов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, соревновательная деятельность, спортивная деятельность,

критерия оценки, педагогическая оценка, абсолютная величина, достоверность результатов различия.

ЦЕЛЬ: Изучить особенности организации студенческой спортивной секции дзюдо и провести оценку её эффективности в развитии физической подготовки, спортивных навыков и личностных качеств студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В исследовании использованы методы педагогического наблюдения, анкетирования, тестирования физической подготовленности, а также анализ документации секции и спортивных результатов студентов. В качестве базы исследования рассматривались студенты, занимающиеся в секции дзюдо педагогического вуза.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Организация секции дзюдо в студенческой среде способствует формированию устойчивой мотивации к занятиям спортом, развитию физических и волевых качеств, повышению уровня социальной активности и сплочённости. Комплексная оценка эффективности работы секции показывает её положительное влияние на образовательный и воспитательный процесс.

The issues of popularizing sports activities and increasing their effectiveness through the proper organization of students' free time in various educational fields within higher educational institutions of our republic are considered among the priority tasks of professors and teachers [1,4,5]. Due to the sharp rise in competition in judo, separate experimental studies aimed at planning UJT and MJT processes of athletes and enhancing the effectiveness of competitive performance can be observed [2,3].

tarbiyalanadilar. Sport musobaqalari ularni sog'lom raqobat, adolat, halollik va do'stlik qadriyatlariga o'rgatadi. Bu esa yoshlarning kelgusida ham jamiyatning faol, mas'uliyatli va yetuk a'zolari bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi. Qadimiy davrlardan meros bo'lib kelayotgan sport va jismoniy tarbiya qadriyatlarini zamonaviy ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirish orqali biz nafaqat jismonan baquvvat, balki ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk va vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Har bir oila – sport bilan" dasturi to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2020.
2. Xodjayev R.X., Mamatqulov A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. Matyoqubov B. Sport pedagogikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
4. Qodirov A., Usmonxo'jayev M. Jismoniy tarbiya va sport asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Platon. Gosudarstvo (Davlat). – Moskva: Nauka, 1994.
6. Ibn Sino A.A. Tib qonunlari (Al-Qonun fi't-tibb). – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1980.
7. World Health Organization (WHO). Global Action Plan on Physical Activity 2018–2030: More Active People for a Healthier World. – Geneva: WHO Press, 2018.

IMOM AL-BUXORIY MEROSI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI



Yodgorova Go'zal Olim qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada buyuk muhaddis **Imom al-Buxoriy**ning ilmiy merosi, uning hadis ilmidagi beqiyos xizmatlari hamda asarlarining tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda “Al-Jomi’ as-Sahih” asarining tuzilishi, unda keltirilgan hadislarining ishonchliligi, Imom al-Buxoriyning ilmiy uslubi va metodologiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, hadislar orqali shakllangan axloqiy qadriyatlar — halollik, adolat, mehr-shafqat, ota-ona hurmati, ilimga rag‘bat, jamiyatda tinchlik va totuvlikni qaror toptirish kabi fazilatlarning tarbiyaviy jihatlari ochib beriladi. Ish natijasida Imom al-Buxoriy merosining nafaqat diniy, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi o‘rni muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

MAQSAD: Imom al-Buxoriy merosi va uning tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: “Al-Adab al-Mufrad”ning tarbiyaviy xazinasibu asarda 1300 dan ortiq axloqiy hadis mavjud bo‘lib, undagi mavzular: oilaviy munosabatlar, odob-axloq, insoniylik va mehr-shafqat, qo‘shnichilik, mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik, dushmanlikni tark etish, yaxshilik qilish kabi keng bo‘limlarni qamrab oladi.

XULOSA: Imom al-Buxoriyning boy ilmiy merosi, ayniqsa, “Sahih al-Buxoriy” asari asrlar davomida islom madaniyati va musulmon jamiyatlarining ma’naviy asoslarini mustahkamlab kelmoqda. Uning hadis ilmidagi noyob xizmatlari, ilmiy halolligi, axloqiy qarashlari nafaqat diniy doirada, balki pedagogika va tarbiya sohalarida ham bebaho ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham al-Buxoriy merosi barkamol avlod tarbiyasida, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya, boshlang‘ich sinf, al-Buxoriy merosi, dars, tarbiya, axloqiy qadriyatlar, halollik, o‘rganish bilimi, darslik, uslubiy, ijodiy, ifodali, ta’lim, tadqiqot, odob-axloq, yoshlar tarbiyasi, muhaddislik maktabi.

НАСЛЕДИЕ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ И ЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Ёдгорова Гузал Олимовна

Магистрант Бухарского государственного педагогического института

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматривается научное наследие выдающегося хадисоведа имама аль-Бухари, его беспрецедентный вклад в хадисоведение и воспитательное значение его трудов. В исследовании анализируются структура труда «Аль-Джами’ ас-Сахих», достоверность содержащихся в нем хадисов, научный метод и методология имама аль-Бухари. Также раскрываются воспитательные аспекты моральных ценностей, формируемых посредством хадисов, — честности,

справедливости, доброты, уважения к родителям, поощрения знаний, установления мира и согласия в обществе. В результате работы обосновывается, что наследие имама аль-Бухари играет важную роль не только в процессе религиозного, но и в процессе духовно-нравственного воспитания.

ЦЕЛЬ: Научный анализ наследия имама аль-Бухари и его образовательного значения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Образовательное сокровище «Аль-Адаб аль-Муфрад» – этот труд содержит более 1300 нравственных хадисов, охватывающих широкий круг тем, таких как: семейные отношения, этикет, гуманность и сострадание, добрососедство, трудолюбие, гостеприимство, отказ от враждебности и добрые дела.

ВЫВОД: Богатое научное наследие имама аль-Бухари, особенно труд «Сахих аль-Бухари», на протяжении веков укрепляло духовные основы исламской культуры и мусульманских обществ. Его уникальные заслуги в хадисоведении, научная честность и моральные взгляды имеют неопределимое значение не только в религиозной сфере, но и в области педагогики и образования. И сегодня наследие аль-Бухари служит важным источником для воспитания гармоничного поколения и формирования духовно-нравственных ценностей.

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, начальная школа, наследие аль-Бухари, урок, образование, моральные ценности, честность, знание учения, учебник, методический, творческий, выразительный, образование, исследование, этика, воспитание молодежи, школа хадисов.

THE LEGACY OF IMAM AL-BUKHARI AND ITS EDUCATIONAL SIGNIFICANCE

Yodgorova Guzal Olim qizi

Master's student of Bukhara State Pedagogical Institute

Annatation.

INTRODUCTION: The article discusses the scientific legacy of the great hadith scholar Imam al-Bukhari, his unparalleled contributions to the science of hadith, and the educational significance of his works. The study analyzes the structure of the work “Al-Jami’ as-Sahih”, the reliability of the hadiths contained in it, and Imam al-Bukhari’s scientific method and methodology. It also reveals the educational aspects of the moral values formed through hadiths - honesty, justice, kindness, respect for parents, encouragement of knowledge, and the establishment of peace and harmony in society. As a result of the work, it is substantiated that the role of Imam al-Bukhari’s legacy is an important factor not only in the process of religious, but also in the process of spiritual and moral education.

THE GOAL: Scientific analysis of the legacy of Imam al-Bukhari and its educational significance

MATERIALS AND METHODS: The educational treasure of “Al-Adab al-Mufrad” - this work contains more than 1,300 moral hadiths, covering a wide range of topics such as: family relations, etiquette, humanity and compassion, neighborliness, hard work, hospitality, abandoning hostility, and doing good.

CONCLUSION: The rich scientific legacy of Imam al-Bukhari, especially the work “Sahih al-Bukhari”, has been strengthening the spiritual foundations of Islamic culture and Muslim societies for centuries. His unique services in the science of hadith, scientific honesty, and moral views are of invaluable importance not only in the religious sphere, but also in the

fields of pedagogy and education. Even today, al-Bukhari's legacy serves as an important source in the upbringing of a harmonious generation and the formation of spiritual and moral values.

Keywords: spiritual and moral education, primary school, al-Bukhari's legacy, lesson, education, moral values, honesty, knowledge of learning, textbook, methodological, creative, expressive, education, research, ethics, youth education, hadith school.

Imom al-Buxoriyning merosi nihoyatda ulkan, rang-barang va ko'p qirrali bo'lib, u faqat hadis ilmi bilan chegaralanib qolmaydi. Uning merosi ilmiy metodologiya, axloq, ta'lim-tarbiya, tarix, fiqh va ma'naviyat kabi ko'plab sohalarni o'z ichiga oladi. Islom ilm-fanimiz tarixida hadis ilmi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk muhaddis **Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy** (810–870) nomi yuksak hurmat bilan tilga olinmoqda. Uning ilmiy merosi, ayniqsa, “Al-Jome’ as-sahih” asari nafaqat diniy manba, balki inson ma'naviy tarbiyasida bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Imom al-Buxoriyning ilmga ixlosi, sidqidildan izlanishi va haqqoniylikka sodiqligi uni nafaqat musulmon olamida, balki jahon ilm-madaniyati tarixida ham yuksak maqomga olib chiqdi va dunyo taniydigan insonga aylantirdi. Imom al-Buxoriy 810-yilda Buxoro shahrida ilm ahli, ziyoli insonlar oilasida tug'ilgan. Yoshligidan hadis yodlashga qiziqib, o'n yoshida allaqachon ustozlarini tuzatadigan darajaga yetgan. U Yaqin Sharqning ko'plab shaharlarida — Makka, Madina, Bag'dod, Basra, Dimashq va boshqalarda yashab, hadis ilmining eng yirik allomalaridan ta'lim olib ilmini yanada yuksaltirgan. Al-Buxoriyning ilmiy ishlari orasida eng mashhuri “Al-Jome’ as-sahih” bo'lib, bu kitob islom ilmi tarixida eng ishonchli hadislar to'plami sifatida e'tirof etilgan. U hadislarini jamlash jarayonida 600 mingga yaqin rivoyatni ko'rgan, biroq ulardan faqat eng sahihlarini tanlab, 7000 ga yaqinini (takrorlari bilan) kitobga kiritgan. Bu kitob 97 bobdan iboratdir. Kitobda aqida, ibodat, muomala, axloq, ijtimoiy hayotga oid barcha masalalar jamlangan. Bu kitob Imom al-Buxoriyning eng ulkan asari va islom olamining eng ishonchli manbalaridan biridir. Asarda aqida, fikr, axloq, muomala, ibodat, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga oid eng muhim hadislar jamlangan. Uning o'ta puxta ilmiy tanlovi sababli bu kitob Qur'ondan keyingi eng ishonchli manba sifatida baholanadi.

Al-Buxoriy o'z asarlarida ilm talab qiluvchi kishi uchun adab, poklik, halollik, izchillik, sabr kabi sifatlarni asos qilib ko'rsatadi. Uning fikricha, ilm faqat qunt va ixlos bilan egallanadi. Al-Buxoriy jamlagan hadislar insoniy fazilatlar — adolat, to'g'rilik, mehr-shafqat, bag'rikenglik, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi. Hadislar orqali inson o'z xatti-harakatlaridagi poklik, odob-axloq, halollik, mas'uliyat tuyg'ularini o'rganadi. Masalan, “Amallar niyatga bog'liq” hadisi insonni barcha ishida halollikka undaydi. Al-Buxoriy keltirgan hadislar oilada mehr, hurmat, mas'uliyat, farzand tarbiyasi va o'zaro totuvlikning muhimligini targ'ib qiladi. Bu qadriyatlar bugungi jamiyatda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Imom al-Buxoriy ta'kidlagan ilmga intilish, ustozga hurmat, sabr-toqat, qat'iyat bugungi yoshlar uchun ham ibratdir. U keltirgan hadislar yoshlarga maqsadga intilish, vaqtni qadrlash, yaxshi xulq egasi bo'lish kabi sifatlarni o'rgatadi. Uning asarlarida insonlar o'rtasidagi adolat, halollik, muomala madaniyati, o'zaro yordam, jamiyat tinchligi kabi masalalar keng yoritilgan. Bu qadriyatlar har qanday zamonda barqaror jamiyat asosini tashkil etadi. Imom al-Buxoriyning hadislarini tekshirishda qo'llagan metodlari — isnodning to'liqligi, roviylarning adolati, matnning haqqoniyligi — bugungi ilmiy tadqiqotlar uchun ham uslubi

namuna hisoblanadi. Uning ilmiy halolligi, haqqoniylikka sodiqligi har bir tadqiqotchi uchun ibratdir. Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi yutuqlari faqat “Sahih” bilan cheklanmaydi. U yozgan yana bir qancha asarlar ham katta ahamiyatga ega: “At-Tarix al-Kabir” — muhaddislar tarjimai hollari bo’yicha eng ilk va eng yirik manbalardan biri. Unda 40 mingdan ortiq roviy haqida ma’lumot bor. “At-Tarix al-Awsat”, “At-Tarix as-Sag’ir”, “Al-Adab al-Mufrad” — odob-axloqqa oid mustaqil hadislar to’plami. “Kitobal-Kunno va al-Asmo”, “Al-Ilal” — zaif hadislar sabablari haqida, “Xalq af’al-ibod” — aqidaviy masalalar. Uning hadisga bag’ishlangan asarlari jami 20 dan ortiq bo’lgan. Al-Buxoriy hadislarni shunchaki yozib qoldirmaganlar, balki, o’zlari ham bunga qat’iy amal qilib kelganlar. Buxoriyning shaxsiy fazilatlar ham meros sifatida e’tirof etib kelinadi. Buyuk bobokolonimiz hadislarini manfaat ko’rish uchun emas, balki hadislardan moddiy manfaat ko’rishni qattiq ta’qiqlaganlar. Al-Buxoriy hadislar orqali emas o’zlarining peshona terlari evaziga halol kun kechirganlar. Ustozlarining kitoblarini ko’chirib undan olingan haq bilim bilan yashaganlar. Shogirdlari ul zotga haddan tashqari hurmat ko’rsatmoqchi bo’lishsa, ul zot: **“Ilm uchun kelgan bo’lsang, mening shaxsiy ehtiromim kerak emas, ilmga ehtirom ko’rsat.”** - deya ulardan ortiqcha ta’zimni man qilganlar.

“Al-Adab al-Mufrad”ning tarbiyaviy xazinasini- bu asarda 1300 dan ortiq axloqiy hadis mavjud bo’lib, undagi mavzular: oilaviy munosabatlar, odob-axloq, insoniylik va mehr-shafqat, qo’shnihilik, mehnatsevarlik, mehmondo’sstlik, dushmanlikni tark etish, yaxshilik qilish kabi keng bo’limlarni qamrab oladi.

Hadislar orqali inson o’z xatti-harakatlaridagi poklik, odob-axloq, halollik, mas’uliyat tuyg’ularini o’rganadi. Masalan, “Amallar niyatga bog’liq” hadisi insonni barcha ishida halollikka undaydi. Al-Buxoriy keltirgan hadislar oilada mehr, hurmat, mas’uliyat, farzand tarbiyasi va o’zaro totuvlikning muhimligini targ’ib qiladi. Bu qadriyatlar bugungi jamiyatda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Imom al-Buxoriy ta’kidlagan ilmga intilish, ustozga hurmat, sabr-toqat, qat’iyat bugungi yoshlar uchun ham ibratdir. U keltirgan hadislar yoshlarga maqsadga intilish, vaqtini qadrlash, yaxshi xulq egasi bo’lish kabi sifatlarni o’rgatadi. Uning asarlarida insonlar o’rtasidagi adolat, halollik, muomala madaniyati, o’zaro yordam, jamiyat tinchligi kabi masalalar keng yoritilgan. Bu qadriyatlar har qanday zamonda barqaror jamiyat asosini tashkil etadi. Imom al-Buxoriyning boy ilmiy merosi, ayniqsa, “Sahih al-Buxoriy” asari asrlar davomida islom madaniyati va musulmon jamiyatlarining ma’naviy asoslarini mustahkamlab kelmoqda. Uning hadis ilmidagi noyob xizmatlari, ilmiy halolligi, axloqiy qarashlari nafaqat diniy doirada, balki pedagogika va tarbiya sohalarida ham bebaho ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham al-Buxoriy merosi barkamol avlod tarbiyasida, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manba bo’lib xizmat qilmoqda. Buyuk bobokolonimiz imom al-Buxoriyning har bir kitobi, har bir hadisdan tanlagan mezoni, har bir ilmiy fikri bir butun maktab hisoblanadi. Bu maktabdan o’rganiladigan saboqlar bugun ham, ertaga ham, kelajak avlodlar uchun ham ibrat bo’lib qoladi. Buxoriy merosi o’rganilgan sari chuqurlashadi, qo’llanilgan sari foyda keltiradi, insonni tarbiya qiladi va jamiyatni ma’naviy yuksaltishda davom etaveradi. Imom al-Buxoriyning boy ilmiy merosi, ayniqsa, “Sahih al-Buxoriy” asari asrlar davomida islom madaniyati va musulmon jamiyatlarining ma’naviy asoslarini mustahkamlab kelmoqda. Uning hadis ilmidagi noyob xizmatlari, ilmiy halolligi,



axloqiy qarashlari nafaqat diniy doirada, balki pedagogika va tarbiya sohalarida ham bebaho ahamiyatga ega. Bugungi kunda ham al-Buxoriy merosi barkamol avlod tarbiyasida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **Imom al-Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi.** *Imom al-Buxoriy: Hayoti, ilmiy merosi va ta'siri.* Samarqand, 2020 (*Rasmiy va eng ishonchli o'zbekcha manba.*)
2. **Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil.** *Al-Adab al-Mufrad.* — Bayrut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya, 2008.
3. **N. Komilov** – *Hadis ilmi* Toshkent: Movarounnahr (*Hadis ilmi bo'yicha akademik darajadagi kitob.*)
4. **Al-Buxoriy.** *Al-Ilal.* (Hadislar sabablari) — Damashq: Dar al-Ma'mun, 1999.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Yodgorova Go'zal Olim qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

g973433717@icloud.com

MILLIY TARBIYA TARG'IBOTI SAMARADOROLIGINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI



Jabborov Xazrat Xusenovich

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti va Toshkent davlat sharqshunoslik universitetlari professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada milliy tarbiya shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta'sirchan psixologik texnologiyalar ya'ni targ'ibotda tadbir ishtirokchilarni yosh, jins, hudud, individual psixologik xususiyatlari, ma'lumot darajalari ham inobatga olinishi kabi ijtimoiy-psixologik omillar ilmiy asoslangan.

MAQSAD: Ma'rifat targ'ibotchilari milliy tarbiya shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini samaradorligini oshirishda psixologik texnologiyalarni bilish va ularni qo'llashi mazkur ishlarning samaradorligi oshirishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Yoshlar orasida milliy tarbiya shakllantirishga qaratilgan ma'naviy targ'ibotlarning psixologik omillarini inobatga olish, har bir o'tkazayotgan tadbirlari va uning samaradorligi natijasida aholining keng qatlami dunyoqarashida ijobiy o'zgarishlar yuz berib, davlatimiz kelajagiga bo'lgan ishonchi ortishi lozim. Masala bo'yicha nazariy o'rganishlar targ'ibotchi har bir tadbirida targ'ibot materiallarini ishtirokchilar ongiga singdirishda alabatta psixotexnologiyalardan foydalanishi tadbir samaradorligi va natijadorligini oshirishdagi asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Masala bo'yicha nazariy o'rganishlarimiz targ'ibotchi tadbir ishtirokchilarining dunyoqarashi, e'tiqodi va biror masala yuzasidan ularning ustunliklari hamda tasavvurlarini o'zgartirish uchun psixologiya ilmidan xabardor bo'lishi lozimligini ko'rsatmoqda.

XULOSA: Masala bo'yicha nazariy va empirik natijalar asosida targ'ibot ishlarida tadbir ishtirokchilarni psixologik xususiyatlari va ta'sir ko'rsatish texnologiyalarisiz targ'ibotni samaradorligiga erishish mushkul ekanligi aniqlandi, shuning uchun ham bizningcha targ'ibot ishlarida psixologik ta'sir texnologiyalarni zamonaviy metodlarini o'rganish va uni milliy xususiyatlarimizga modifikasiyalashimiz va amaliyotga tatbiq etishimiz maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: xulq-atvor, tarbiya, milliy tarbiya, targ'ibot. Ma'naviyat, ma'rifat, profilaktika, psixologik texnologiya

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОПАГАНДЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ

Джаббаров Хазрат Хусенович

Профессор Университета Точных и социальных наук и Ташкентского государственного университета востоковедения, доктор психологических наук (DSc),

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассмотрены эффективные психологические технологии, повышающие эффективность духовно-просветительской работы, направленные на формирование национального воспитания, то есть такие социально-психологические факторы, как учет возраста, пола, региона, индивидуально-психологических особенностей, уровня образования. участников мероприятия в акции представлены на основе.

ЦЕЛЬ: Знание пропагандистами-просветителями психологических технологий и их применение в повышении эффективности пропагандистской деятельности, направленной на формирование национального образования, послужит повышению эффективности этих работ.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе исследования использовались такие методы, как интервью, социально-психологическое анкетирование, наблюдение, а уровень статистической достоверности полученных результатов подтверждался факторным анализом.

Необходимо учитывать психологические факторы духовных кампаний, направленных на формирование национального воспитания среди молодежи, и в результате каждого из мероприятий и его эффективности должны произойти положительные изменения в мировоззрении широкого слоя населения. , и их уверенность в будущем нашей страны должна возрасти. Использование психотехнологий является основным механизмом повышения эффективности и результативности мероприятия. Наши теоретические исследования по данному вопросу показывают, что промоутер должен быть в курсе науки психологии, чтобы изменить мировоззрение, убеждения и предположения участников мероприятия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основе теоретических и эмпирических результатов по данному вопросу определено, что без психологических особенностей участников мероприятия и технологий воздействия в пропагандистской работе трудно добиться эффективности. Желательно изучить и модифицировать их с учетом наших национальных особенностей. и применить это на практике.

Ключевые слова: поведение, образование, милевое образование, пропаганда, духовность, просвещение, профилактика, психологические технологии

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE EFFECTIVENESS OF NATIONAL UPBRINGING PROMOTION

Jabbarov Hazrat Husenovich

Professor of the University of Exact and Social Sciences and

Tashkent State University of Oriental Studies,

Doctor of Psychological Sciences (DSc)

Annatation.

INTRODUCTION: In this article, effective psychological technologies that increase the effectiveness of spiritual and educational work aimed at the formation of national education, that is, socio-psychological factors such as taking into account the age, gender, region, individual psychological characteristics, and education levels of the event participants in the promotion, are presented based on.

THE GOAL: Enlightenment propagandists' knowledge of psychological technologies and their application in increasing the effectiveness of propaganda activities aimed at the formation of national education will serve to increase the effectiveness of these works.

MATERIALS AND METHODS: During the research, such methods as interviews, socio-psychological questionnaires, observation were used, and the level of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

It is necessary to take into account the psychological factors of spiritual campaigns aimed at forming national education among young people, and as a result of each of the events and its effectiveness, positive changes in the worldview of a wide layer of the population should occur, and their confidence in the future of our country should increase. The use of psychotechnologies is the main mechanism for increasing the effectiveness and efficiency of the event. Our theoretical research on this issue shows that the promoter must be aware of the science of psychology in order to change the worldview, beliefs and assumptions of the participants of the event.

CONCLUSION: Based on theoretical and empirical results on this issue, it has been determined that without psychological characteristics of the participants of the event and technologies of influence in propaganda work, it is difficult to achieve effectiveness. It is desirable to study and modify them taking into account our national characteristics. and apply this in practice.

Keywords: behavior, education, mile education, propaganda, spirituality, enlightenment, prevention, psychological technologies

Milliy tarbiya — bu shaxsning ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy va intellektual jihatdan kamol topishida xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlariga asoslangan tizimli ta'sir jarayonidir. Uning targ'iboti esa jamiyatda milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash, yosh avlodda vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik va ma'naviy mas'uliyatni shakllantirishning muhim vositasidir. Shu bois milliy tarbiya targ'ibotining samaradorligini oshirish — nafaqat ta'lim tizimi, balki ijtimoiy-psixologik sohaning ham dolzarb masalasidir.

Milliy tarbiyani targ'ib etishda psixologik omillarni chuqur tahlil qilish, inson ongiga, hissiyotiga va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi mexanizmlarni aniqlash zarur. Chunki targ'ibot jarayonida nafaqat axborot berish, balki ma'naviy qadriyatlarni shaxsiy e'tiqodga aylantirish ham ko'zda tutiladi.

Milliy tarbiya targ'ibotining asosiy maqsadi — milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash, milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish va yoshlarni ijtimoiy jihatdan faol, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayon faqat pedagogik yoki mafkuraviy yo'nalish emas, balki psixologik ta'sirni o'z ichiga olgan kompleks faoliyatdir.

Milliy tarbiya targ'iboti quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot: qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy shaxslar faoliyatini yoritish orqali milliy g'ururni shakllantirish.

- Psixologik ta'sir targ'iboti: shaxs motivatsiyasini, e'tiqodini va hissiy bog'liqligini kuchaytirish.

- Ijtimoiy tarmoq va media orqali targ'ibot: zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, yoshlarning ongiga ijobiy ta'sir o'tkazish.

Targ'ibot samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar:

- Milliy tarbiya targ'ibotining ijtimoiy-psixologik muvaffaqiyati ko'p jihatdan ijtimoiy muhitga bog'liq. Quyidagi omillar alohida e'tiborga loyiq:

- Oilaviy muhit: oilada milliy qadriyatlarning qadrlanishi, ota-onaning namunasi, muomala madaniyati bolada milliy o'zlikni shakllantiruvchi birlamchi ijtimoiy maktabdir.

▪ Ta'lim muassasalarining roli: maktab va oliy ta'lim tizimida milliy g'oyalarni ilmiy asosda o'rgatish, tarbiyaviy ishlarni interfaol shaklda tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

▪ Ommaviy axborot vositalari: televideniye, internet va ijtimoiy tarmoqlarda milliy ruhdagi dasturlarni ko'paytirish yoshlarning e'tiborini jalb qiladi.

▪ Mahalla va jamoatchilik: mahalla faollari, nuroniylar va yoshlar ittifoqlari orqali tashkil etiladigan targ'ibot ishlari milliy qadriyatlarni hayotiy misollar bilan boyitadi.

Bu omillarning barchasi shaxsda milliy o'zlikni mustahkamlovchi ijtimoiy identifikatsiya mexanizmlarini ishga soladi.

Psixologik omillar: motivatsiya, identifikatsiya va hissiy ta'sir. Milliy tarbiya targ'ibotining psixologik mexanizmlarini quyidagicha izohlash mumkin:

▪ Motivatsion omillar: shaxsda milliy qadriyatlarga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqish shakllanishi. Masalan, milliy qahramonlar hayoti bilan bog'liq motivatsion hikoyalar yoshlarni faol bo'lishga undaydi.

▪ Identifikatsion omillar: shaxs o'zini millat, til, madaniyat bilan bog'lash orqali "men kimman?" savoliga javob topadi. Bu jarayon o'z-o'zini anglashni mustahkamlaydi.

▪ Emotsional ta'sir: musiqiy, badiiy va vizual targ'ibot vositalari hissiy rezonans uyg'otadi. Hissiy ta'sir orqali axloqiy qadriyatlar ongda mustahkamlanadi.

Psixologik jihatdan samarali targ'ibot shunchaki axborot yetkazish emas, balki emotsional rezonans va ichki qabul qilish holatini yaratishdir.

Targ'ibot jarayonida kommunikativ yondashuvlar — ya'ni ma'lumotni uzatish, qabul qilish va tushunish mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Zamonaviy psixologiya bu jarayonni ta'sirli muloqot modeli orqali tahlil qiladi.

Verbal kommunikatsiya: nutq, hikoya, suhbatlar orqali milliy qadriyatlarni ifodalash.

Neverbal kommunikatsiya: mimika, ovoz ohangi, rang va musiqaning ta'siri.

Mediapsixologik yondashuv: ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media orqali milliy tarbiya g'oyalarini tarqatish.

Psixologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, muloqotning ishonchliligi va emotsional tabiati targ'ibot samaradorligini 60–70% gacha oshiradi.

Samaradorlikni oshirishning psixologik shartlari:

▪ Milliy tarbiya targ'iboti natijador bo'lishi uchun quyidagi psixologik shartlar muhim:

▪ Tinglovchi auditoriyani bilish: yosh, jins, kasb, madaniy tajriba darajasiga qarab targ'ibot usullarini moslashtirish.

▪ Emotsional uyg'unlik: tinglovchilarning his-tuyg'ulariga mos tarzda nutq uslubini tanlash.

▪ Interfaol metodlar: suhbat, debat, roliklar, rolli o'yinlar orqali faol ishtirokni ta'minlash.

▪ Shaxsiy identifikatsiya: targ'ibotchi (ma'rifatchi)ning shaxsiy namunasi, e'tiqodi va samimiyligi — eng kuchli ta'sir omilidir.

Targ'ibotchi o'zida milliy qadriyatlar, madaniyat va axloqiy fazilatlarini mujassam etgan bo'lishi lozim. Chunki psixologik ishonchni shakllantirishning eng samarali yo'li — namuna bo'lishdir.

Shuningdek bugungi yangi davr, globallashuv davri, ta'lim samaradorligini oshirishda inson omili, inson kapitali va inson resurslarini tadqiq qilishda, har tomonlama yondashuvlar mavjud. Biz mazkur masalada ta'limni rivojlantirishda ijobiy inson resurslaridan biri hisoblangan tarbiya masalasini ko'rib chiqmoqchimiz. Mazkur resurs barcha millatlarni kelajagi va taraqqiyoti uchun eng dolzarb inson resurslaridan biri hisoblanadi[4].

O'zbekistonda milliy tarbiyaning konseptual asoslarini ishlab chiqishdagi zaruratni bugungi kundagi globalashuvning tarbiya jarayoniga ta'sir masalasi tezlashtirdi nazarimizda.

Targ'ibotchining har bir o'tkazayotgan tadbirlari va uning samaradorligi natijasida aholining keng qatlami dunyoqarashida ijobiy o'zgarishlar yuz berib, davlatimiz kelajagiga bo'lgan ishonchi ortishi lozim[1].

Targ'ibotchi har bir tadbirida targ'ibot materiallarini ishtirokchilar ongiga singdirishda alabatta psixotexnologiyalardan foydalanishi tadbir samaradorligi va natijadorligini oshirishdagi asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi[2].

Targ'ibotchi tadbir ishtirokchilarining dunyoqarashi, e'tiqodi va biror masala yuzasidan ularning ustanovka hamda tasavvurlarini o'zgartirish uchun psixologiya ilmidan xabardor bo'lishi lozim[3].

❑ Psixologiya inson psixikasini aniqlash, shakllantirish, yangi sharoitga ko'chirish, takomillashtirish, rivojlanish dinamikasini ta'minlash, yangi sifat bosqichiga o'tishini qayd qilish imkoniyatiga ega o'ta amaliy, tatbiqiy fandir.

❑ "Psixologiya" (yunoncha psyche) so'zini o'zbek tiliga tarjima qilsak, u «jon», «ruh» haqidagi «fan, ta'limot» degan ma'noni anglatadi. Biroq hozirgi davrda «jon» tushunchasi o'rniga «psixika» degan tushuncha qo'llanilmoqda.

❑ Psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechimalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgani uchun ular ko'zga ko'rinmaydi.

❑ Har bir targ'ibotchi o'z tadbiri orqali ishtirokchilarda muayyan maqsadli o'zgarishni sodir qilishi uchun psixologik hodisalarga murojaat qilishi lozim!

❑ Odatda, psixik hodisalar deganda, ichki sub'ektiv tajriba faktlarning (voqelikning) namoyon bo'lishi tushuniladi, boshqacha so'z bilan aytganda, psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllaridan iboratdir.

❑ Ichki sub'ektiv tajribaning o'zi nimani anglatadi? Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg'ulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosi tarkibiy qismlaridir, ya'ni bularning hammasi sub'ektiv psixik hodisalar sanaladi.

❑ Sub'ektiv hodisalarning asosiy xususiyati - ularning bevosita sub'ektga taalluqligidir.

❑ Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta, ana shu hodisalarni bir davrning o'zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ular barchasining sodir bo'layotganligini anglab turamiz ham. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular bevosita ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turadi.

Targ'ibotchi tadbir mavzusi orqali ishtirokchi shaxsidagi qaysidir sifat, xususiyat yoki fazilatni o'zgartirishni maqsad qilgan ekan, u avvalo, shaxsning psixologik strukturasini bilishi lozim bo'ladi!

Shaxning psixologik strukturasini:

Psixologik bilish jarayonlari (diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur va xayol); psixikaning shakllari (faoliyat, xulq, muomala); psixikaning holatlari (kayfiyat, parisonxayollik kabilari); psixologik hodisalar; psixikaning xislatlari, fazilatlar, sifatlari, xossalari; psixikaning qonuniyatlari; psixikaning mexanizmlari; psixik sharoit, muhit, vaziyat; psixologik o'zaro sababiy bog'lanishlar;

Targ'ibotchi o'z tadbirlarida profilaktika mavzulari orqali ishtirokchining ongiga ta'sir o'tkaza olishi lozim!

Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo'lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish maqsadni ko'zlash, o'zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga egadir.

Odatda, inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzilishi tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, qaysiki ularning bevosita yordami bilan shaxs o'z axborotlari ko'lamini uzluksiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari asta-sekin ular anglashinish darajasiga ko'tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi.

□ Ong tarkibiga muayyan darajadagi, ma'lum tizimga xos emosional (hissiy) munosabatlar qamrab olinganligini aks ettiradi. Shaxs ongiga muqarrar ravishda turli-tuman his-tuyg'ular (har xil darajali, ijobiy, salbiy, barqaror, statik, dinamik), kechinmalar, stress, affekt holatlar to'g'risidagi axborotlar oqimi kirib kela boshlaydi.

□ Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, ashyolarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa, har bir narsaga oqilona, odilona va omilkorlik bilan yondashilsa, ongning nazorat funksiyasi hukm surayotganligidan dalolat beradi.

□ Ong psixologik tavsifining yana bittasi - bu unda sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi aniq farqlanishda o'z ifodasini topadi, ya'ni shaxs «Men» degan tushunchasi bilan «Men» emas atamasi tarkibiga nimalar tegishli, aloqador ekanligini aniq biladi.

□ Ong shaxsning maqsadini ko'zlovchi faoliyatni ta'minlashga oid ta'rifni ifodalagan bo'lib, uning yana bir funksiyasi mazkur maqsadni yaratishga yo'naltirilganligi bilan boshqalardan farq qiladi. Ushbu jarayonda shaxs faoliyatining turli xususiyatli motivlari yuzaga keladi, ular inson tomonidan chamalab chiqiladi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo'ladi, bu o'rinda ustuvorlikka erishish yetakchilikni ta'minlaydi, irodaviy zo'r berish oqibatida muayyan qonun qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning izchilligi qay yo'sinda amalga oshirilishi hisobga olinadi, maqsadni qaror toptirishga to'siq vazifasini o'tovchi fikriy g'ovlar (to'siqlar) bartaraf etiladi va unga mutanosib o'zgarishlar kiritiladi, samaradorlikni oshirish uchun ba'zi bir tuzatishlar amalga oshiriladi.

□ Shaxsdagi mo'tadillik, ruhiy sog'lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildirib kelib, ayrim hollarda hissiyotga berilishi esa uning o'z funksiyasini bajarishdan chetlashganligini namoyish qiladi. Turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og'ishlar sodir bo'lmaydi. Shu narsani ta'kidlab o'tish o'rinliki, patologik holatlarni tahlil qilish, ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishga xizmat qilishi mumkin. Shu boisdan ongning zaiflashuvi shaxsning his-tuyg'ulari va munosabatlarini o'zgartiradi: simpatiya antipatiya bilan, quvonch qayg'u bilan, optimizm pessimizm bilan vaqti-vaqti bilan o'rin almashib turishi kuzatiladi.

□ Ongning yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha funksiyalarini namoyon bo'lishining muqarrar sharti til va nutq hisoblanadi.

□ Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabatning yangi shakllari paydo bo'lishi, til va nutqni vujudga keltiradi, ularning barchasini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlovchi ong jadal sur'atlar bilan rivojlangan.

□ Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg'ular regulatori emas, balki yakkahol shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to'g'ri amalga oshirishining asosiy manbai rolini bajaradi.

□ Shunday qilib, insonning ongi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mahsulasi, shakli sifatida individual, guruh, etnik (milliy), ijtimoiy ong namoyon bo'lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o'zining yangi bosqichlariga o'sib o'tgan hamda keyinchalik fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

□ Shunday qilib, ontogenezda ongning paydo bo'lishi («Men» davrining boshlanishi), uning taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, unda ijtimoiy muhitning, zarur shart-sharoitlarning roli, biologik va ijtimoiy shartlanganlikning ta'siri, tarbiyaning ustuvorligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoning psixologik tavsifini ishlab chiqishga muhim negiz yaratdi.

Ongning tarkibi: obrazni his qilish imkoniyati; borliqdagi narsalarning qadr-qiymati; atrof - muhit ob'ektlarining ma'no kasb etishi.

Ongning funksiyalari: aks ettiruvchanligi; ijodiylikni vujudga keltiruvchanligi; baholovchanligi; boshqaruvchanligi; refleksivligi; ma'naviyliги.

O'zini o'zi anglashning omillari: oilaviy muhit ta'siri; milliy muhit va milliy til vositalari; ma'rifiy, ma'naviy, madaniy qurshov; maxsus hayotiy vaziyatlar va favqulodda hodisalar.

Ongning turlari: individual; guruh; jamoaviy; etnik; milliy; ijtimoiy.

Ongning xislatlari: Borliq ob'ektlari va jamiyat sub'ektlari bilan munosabat o'rnatish; biosfera va neosfera hodisalarini anglash (tushunish, bilish); tabiiy va ijtimoiy holatlar hamda hodisalarga hamdardlik (empatiyaning namoyon bo'lishi).

Ongning xususiyatlari: reaktivligi; sezgirligi; refleksivligi; taraqqiyotning ixtiyorsizligi (spontanligi); polifonikligi; dialogizmga moyilligi.

Targ'ibotchi targ'ibot materiallarini ishtirokchilar ongiga singdirishda ularning bilish jarayonlari ko'lamini, irodaviy – emosional holatlari va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olishi maqsadga muvofiq!

Targ'ibotning interaktiv metodlari: Kitob bilan ishlash; “insert”; “zig-zag”; “mashqlar”; “damino”; “charxpalak”; “o'rgimchak to'ri”; “3\3, (4\4, 5\5”; “eksprom”; “monitoring”; “limon”; “beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha”; “qora quti”; “ven diagrammasi”; qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash; tajriba vositasida o'qitish sikli; “veer” (elpig'ich); “keys”; “aqliy hujum”; “baliq skeleti”.

Tadbir samaradorligini oshirishda didaktikaning o'rni va ahamiyati: Tadbir jarayoni – Targ'ibotchining va u o'tkazayotgan tadbir ishtirokchilarining bilim, ko'nikma hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

Tadbir jarayonining asosiy komponentlari:

- Tadbir ishtirokchisi – targ'ibot tadbirlarida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiruvchi.

- Tadbir predmeti – targ'ibot tadbirlari materialining mazmuni yoki ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat usullari mazmuni.

- Tadbir texnologiyasi – targ'ibot tadbirlarida masala yuzasidan materialni taqdim etish metodi, texnologiyasi.

- Targ'ibotchi – targ'ibot tadbirlari materiali va faoliyat usulining o'zlashtirilishini ta'minlovchi.

- Targ'ibotchi va tadbir ishtirokchisi orasidagi munosabat.

Targ'ibot prinsiplari: ishtirokchilarning; tezkorlik; preventiv targ'ibot; parallel targ'ibot; voqea-hodisadan keyingi targ'ibot; dolzarb yangiliklardan foydalanish; tushunarliklik; aholini to'la qamrab olish.

Targ'ibotchining didaktik ta'sir vositalari: an'anaviy va noan'anaviy ta'sir vositalarining qo'llanilishi; verbal (nutqli), noverbal (nutqsiz) va paralingvistik (nutq etikasi) ta'sir; hissiy (perseptiv, interaktiv, identivli, refleksli) ta'sir vositalari.

Amaliy tavsiyalar:

- Ta'lim muassasalarida milliy tarbiya psixologiyasi fanini alohida modul sifatida kiritish.

▪ O'qituvchilar va targ'ibotchilar uchun psixologik kommunikatsiya treninglari o'tkazish.

▪ Ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni yoshlar tili va formati orqali targ'ib etish.

▪ Har bir hududda ma'naviy psixologlar klubi tashkil etib, aholining ruhiy-ma'naviy savodxonligini oshirish.

Milliy tarbiya targ'iboti — bu shunchaki ma'naviy tashabbus emas, balki jamiyatning psixologik barqarorligi, birlik hissi va madaniy merosni davom ettirishning eng muhim omilidir. Uning samaradorligi ijtimoiy muhit, psixologik ta'sir, kommunikativ yondashuv va targ'ibotchining shaxsiy fazilatlariga bevosita bog'liqdir.

Milliy tarbiya targ'ibotini ijtimoiy-psixologik jihatdan chuqur o'rganish orqali biz yosh avlod ongida vatanparvarlik, milliy iftixor va insoniy qadriyatlarni mustahkam o'rnatamiz.

Foydalanilgan abiyotlar ro'yxati:

1. Quronov M. Ma'rifat texnologiyasi. – T.: “Ma'naviyat”, 2019.
2. Quronov M., Jabborov X. Yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari. T.: -2019. B.48.
3. X.Jabborov “Targ'ibot tadbirlarining ilmiy-amaliy ta'sirchanligini oshirish mexanizmlari” nomli qo'llanma. Hilol media” nashriyoti, T.: 2019 y. B.59.
- 4.M. Quronov. Milliy tarbiya. Monografiya. T.: 2004. B.210

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Jabborov Xazrat Xusenovich

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti va Toshkent davlat sharqshunoslik universitetlari professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Manzil: O'zbekiston, Toshkent shahar

xxjabborov@mail.ru

HARBIY XIZMATCHILARDA ISH-OILA MUVOZANATINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI



Maxamatov Nurmuxammad Odilovich
28803 - harbiy qism komandiri o'rinbosari

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda ish va oila o'rtasidagi muvozanatni saqlash muammosi hamda uni boshqarishning psixologik, ijtimoiy va tashkiliy strategiyalari tahlil qilinadi. Maqolada rejalashtirish, stressni boshqarish, oilaviy qo'llab-quvvatlash va moslashuvchanlik kabi omillar harbiy xizmat sharoitida ruhiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil sifatida ko'rsatilgan.

Harbiy xizmatchilar faoliyati o'ziga xos sharoit va talablarni o'z ichiga olgani sababli, ular uchun ish va oila o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim psixologik va ijtimoiy masalalardan biridir. Xizmatdagi barqarorlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy resurslarni boshqarish harbiy xizmatchining ruhiy holati hamda xizmat samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, harbiy xizmatchilarda ish-oila muvozanatini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish ularning kasbiy barqarorligi va oilaviy farovonligini ta'minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAQSAD: Ushbu maqolaning maqsadi harbiy xizmatchilarda ish va oila o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beruvchi psixologik va ijtimoiy strategiyalarni aniqlash hamda tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Maqolani tayyorlash jarayonida harbiy xizmatchilarning ish va oila o'rtasidagi muvozanatini boshqarish bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqotda tahliliy, taqqoslash, kuzatish va psixologik diagnostika metodlari qo'llanilib, harbiy xizmatchilarning oilaviy va xizmatdagi stress darajasi, kommunikatsiya uslubi hamda moslashuvchanlik darajasi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida ish-oila muvozanatini saqlashga xizmat qiluvchi samarali strategiyalar tizimlashtirildi va tahliliy xulosalar ishlab chiqildi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilarda ish va oila o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ruhiy barqarorlik, xizmat samaradorligi va oilaviy farovonlikning muhim omili ekanini ko'rsatdi. Ish-oila muvozanatini boshqarishda rejalashtirish, oilaviy qo'llab-quvvatlash va stressni kamaytirish strategiyalari eng samarali yo'nalishlar sifatida aniqlangan. Ushbu strategiyalarni amaliyotga joriy etish harbiy xizmatchilarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirib, ularning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchilar, ish-oila muvozanati, psixologik barqarorlik, stressni boshqarish, oilaviy qo'llab-quvvatlash, moslashuvchanlik, xizmat samaradorligi, ijtimoiy moslashuv.

УПРАВЛЕНИЕ СТРАТЕГИЯМИ БАЛАНСА РАБОТЫ И СЕМЬИ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Махаматов Нурмухаммат Одилович

Заместитель командира в/ч 28803

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируются проблемы сохранения баланса между работой и семьёй у военнослужащих, а также психологические, социальные и организационные стратегии его управления. В статье показано, что такие факторы, как планирование, управление стрессом, семейная поддержка и гибкость, являются ключевыми условиями обеспечения психической устойчивости в условиях военной службы.

Деятельность военнослужащих включает в себя особые условия и требования, поэтому для них сохранение баланса между работой и семьёй является одной из важнейших психологических и социальных задач. Стабильность в службе, семейная поддержка и управление личными ресурсами оказывают непосредственное влияние на психическое состояние и эффективность профессиональной деятельности военнослужащего. В связи с этим разработка стратегий управления балансом работы и семьи у военнослужащих имеет актуальное значение для обеспечения их профессиональной устойчивости и семейного благополучия.

ЦЕЛЬ: Цель данной статьи заключается в выявлении и анализе психологических и социальных стратегий, способствующих сохранению баланса между работой и семьёй у военнослужащих.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе подготовки статьи были использованы отечественные и зарубежные научные источники, нормативно-правовые документы, а также официальные статистические данные, посвящённые вопросам управления балансом между работой и семьёй у военнослужащих. В исследовании применялись аналитический, сравнительный, наблюдательный и психологико-диагностический методы, направленные на изучение уровня стресса в семье и на службе, особенностей коммуникации и степени адаптивности военнослужащих. На основе полученных данных были систематизированы эффективные стратегии, способствующие сохранению баланса между работой и семьёй, и сформулированы аналитические выводы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Результаты исследования показали, что обеспечение баланса между работой и семьёй у военнослужащих является важным фактором психической устойчивости, эффективности службы и семейного благополучия. Планирование, семейная поддержка и стратегии снижения стресса определены как наиболее эффективные направления в управлении балансом работы и семьи. Внедрение этих стратегий на практике способствует облегчению социальной адаптации военнослужащих и повышению их профессиональной результативности.

Ключевые слова: военнослужащие, баланс работы и семьи, психологическая устойчивость, управление стрессом, семейная поддержка, адаптивность, эффективность службы, социальная адаптация.

WORK-FAMILY BALANCE MANAGEMENT STRATEGIES AMONG MILITARY PERSONNEL

Makhamatov Nurmukhammat Odilovich

Deputy Commander of Military Unit 28803

Annotation.

Мотив аффилиации, изучаемый в исследовательской работе, имеет социальный характер и теоретически научно обосновано, что он является одним из важнейших социально-психологических явлений для устойчивости общественных отношений. Также мотив принадлежности проявляется во взаимодействии людей друг с другом, членов семьи друг с другом, причем формирование этого мотива происходит среди них «стремление к гармонии», «стремление к сотрудничеству», «стремление к гармонии», «искать друг друга» показывает, что можно сформировать базовые критерии, такие как «стремление понять», «сопереживание».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: поскольку проявление мотивации принадлежности у представителей разных слоев населения влияет на устойчивость социальных отношений, это означает, что возникает необходимость эмпирического изучения различных связанных с ней социально-психологических детерминант и разработки критериев управления этим социальным поведением. Также установлено, что представители разных слоев населения, показавшие в своем поведении высокий уровень аффилированности, легко осваивали социальные отношения, были чувствительны к людям и имели склонность к общению.

Ключевые слова: поведение, мотив, мотив принадлежности, социальные отношения, общение, маргинализм.

AFFILIATION MOTIVE AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL REGULARITY**Samatova Sevara Gayratovna***Senior lecturer at the University of Exact and Social Sciences***Annotation.**

INTRODUCTION: This article analyzes the socio-psychological nature of the affiliation motive, its role in personal development, and its main psychological regularities. The human need to establish warm interpersonal relationships, friendship, and emotional closeness is discussed as a central component of psychological motivation. The paper also reviews diagnostic methods for assessing the affiliation motive and its significance in education and

social life. Findings indicate that individuals with a high level of affiliation motive demonstrate greater social activity, empathy, and emotional stability.

THE GOAL: stabilization of social relations by forming a motive of affiliation in representatives of different strata of the population, is to reduce the factor of marginalism (social alienation, social isolation) among people.

MATERIALS AND METHODS: during the research, methods such as interviews, socio-psychological questionnaires, and observation were used, and the level of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

The motive of affiliation studied in the research paper has a social character, and it is theoretically scientifically justified that it is one of the most important socio-psychological phenomena for the stability of social relations. Also, the motive of affiliation is manifested in the interaction of people with each other, family members with each other, and the formation of this motive is among them "desire for harmony", "desire for cooperation", "desire for harmony", "seek each other" it shows that it is possible to form basic criteria such as "seeking to understand", "empathy".

CONCLUSION: since the manifestation of affiliation motivation among representatives of different strata of the population affects the stability of social relations, it means that there is a need to empirically study the various social-psychological determinants related to it and develop criteria for managing this social behavior. Also, it was found that the representatives of different strata of the population, who showed a high level of affiliation in their behavior, easily mastered social relations, were sensitive to people and had a tendency to communicate.

Key words: behavior, motive, affiliation motive, social relationship, communication, marginalism.

Inson ijtimoiy mavjudot sifatida har doim boshqalar bilan muloqot, o‘zaro aloqadorlik va hissiy yaqinlikka intiladi. Ushbu tabiiy ehtiyoj insonning ruhiy dunyosida “affiliatsiya motivi” sifatida namoyon bo‘ladi. Affiliatsiya motivi — bu shaxsning boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish, do‘stlik, mehr va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ichki ehtiyoji sifatida talqin qilinadi. Psixologiya fanida bu motiv shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, emotsional barqarorligi va o‘zini o‘zi anglash jarayonining muhim qonuniyatlaridan biri sifatida o‘rganiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatda kommunikativ texnologiyalar, shaxslararo raqobat va individualizmning kuchayishi fonida insonlarning o‘zaro yaqinlik, do‘stlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji tobora oshib bormoqda. Shuning uchun affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik qonuniyat sifatida tahlili insonning ruhiy sog‘lomligi, shaxslararo munosabatlar sifati hamda jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlikni tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Affiliatsiya (lotincha *affiliatio* — “birlashtirish”, “yaqinlashtirish”) termini ilk bor amerikalik psixolog D. MakKlelland tomonidan 1950-yillarda ilmiy muomalaga kiritilgan. U shaxs motivlari tizimida uch asosiy turini ajratadi: yutuqqa intilish, hokimiyatga intilish va affiliatsiyaga intilish. Affiliatsiya motivi shaxsning boshqalar bilan iliqlik munosabat o‘rnatishga, mehr, e‘tibor, hurmat va do‘stlik orqali o‘zini ijtimoiy jihatdan xavfsiz his etishga intilishi bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, G. Myurrey, K. Levin, E. Fromm, A. Maslou va K. Rojers kabi olimlarning ishlarida ham bu motivning turli jihatlari o‘rganilgan. Masalan, Maslou ehtiyojlar ierarxiyasida “muhabbat va tegishlilik” bosqichini aynan affiliatsion ehtiyoj sifatida ko‘rsatadi. Rojers esa insonning o‘zini anglash va “shaxsiy men”ni shakllantirish jarayonida ijtimoiy iliqlikning hal qiluvchi o‘ringa ega ekanini ta’kidlaydi.

Affiliatsiya motivining ijtimoiy-psixologik qonuniyati shundan iboratki, inson o'z hayoti davomida doimiy ravishda ijtimoiy aloqa, tan olinishi va hissiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyoj qondirilmaganida, shaxsda yolg'izlik hissi, emotsional sovuqlik, depressiv holatlar va ishonchsizlik kuchayadi.

Affiliatsiya motivi quyidagi asosiy qonuniyatlar orqali namoyon bo'ladi:

- Ijtimoiy ehtiyojlarning uzviyligi qonuniyati. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi ijtimoiy aloqalar orqali kechadi. Odam o'zini faqat boshqalar bilan munosabatda to'liq anglay oladi.

- Emotsional rezonans qonuniyati. Ijobiy munosabatlar ikki tomonlama hissiy aks-sado orqali mustahkamlanadi. Odam o'ziga nisbatan iliqlikni sezgan sari, boshqaga ham shunday iliqlik munosabat bildiradi.

- O'zaro qo'llab-quvvatlash qonuniyati. Jamiyatdagi psixologik muvozanat shaxslarning bir-birini tushunishi va hissiy yordam berishiga tayanadi.

- Ijtimoiy ishonch qonuniyati. Ijobiy aloqalar shakllanishida ishonch markaziy o'rinni egallaydi; ishonch mavjud bo'lmasa, affiliatsiya motivi susayadi.

Affiliatsiya motivining shaxs rivojlanishidagi o'rni. Bolalik davridan boshlab insonning ijtimoiy rivojlanishida ota-ona, o'qituvchi, tengdoshlar bilan o'zaro aloqa tajribasi asosiy manba hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmagan holatda, unda tajovuzkorlik, rad etish, yoki aksincha, haddan ortiq moslashuvchanlik shakllanadi.

O'smirlik davrida affiliatsiya motivi ayniqsa kuchayadi, chunki bu davrda shaxs o'z o'rnini ijtimoiy tizimda topishga intiladi. Do'stlik, tan olinish, jamoaga tegishlilik hissi o'smirning o'ziga baho berishiga bevosita ta'sir qiladi. Kattalar davrida esa bu motiv ijtimoiy faollik, kasbiy muvaffaqiyat va oilaviy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat va ta'lim tizimida affiliatsiya motivining ahamiyati. Bugungi globallashuv davrida insonlar o'rtasidagi muloqot shakllari o'zgarayotgan bir paytda, yoshlar o'rtasida individualizm va raqobat kayfiyati kuchaymoqda. Shu bois, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchilar o'rtasida hamjihatlik, empatiya va do'stlikni shakllantirish muhim vazifadir.

O'qituvchi o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlagan holda, ularning o'zini jamoa a'zosi sifatida his etishiga yordam berishi lozim. Bunday psixologik muhitda o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, ijodiy faolligi va o'qishga motivatsiyasi ortadi.

Jamiyat darajasida esa affiliatsiya motivining rivojlanishi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, konfliktlarning kamayishiga va o'zaro ishonch muhitining kuchayishiga olib keladi.

Hozirgi kunga kelib fanda motivatsiya muammosi, uning tabiatiga oid ko'plab nazariyalar shakllangan bo'lib, xoriijning o'zida aynan shu muammolarga bag'ishlangan 100 ga yaqin nazariyalar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Mazkur masala bo'yicha rus ijtimoiy psixologiyasini rivojlanishiga salmoqli hissasini qo'shgan olim G.M. Andreeva [1] ta'kidlaganidek, agar sotsiologlar uchun ijtimoiy munosabatlar muhim hisoblansa, psixologlar uchun o'zaro shaxslararo munosabatlar alohida tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida odamlar o'rtasida shakllanadigan shaxsiy o'zaro munosabatlar doirasi juda keng va ularning barchasi psixologlar tomonidan alohida e'tiborni talab etadi. An'anaviy tarzda ijtimoiy psixologiyada tadqiqot ob'ekti sifatida affiliatsiya tushunchasi bilan belgilanuvchi o'zaro munosabatlar doirasi oldinga chiqadi. Aytib o'tish joizki, muvaffaqiyatga erishish, mag'lubiyatdan qochish yoki xokimiyatga intilish motivlariga nisbatan affiliativ motivlar kam o'rganilgan ijtimoiy psixologik fenomenlar sarasiga kiradi.

Affiliatsiya motivining etimologik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak affiliatsiya motivi (ing. to affiliate – birlashmoq, birlashtirmoq) - insonni boshqa odamlar davrasida bo'lishga intilishi tushuniladi. Keltirilgan ta'rifga ko'ra, sub'ektning potensial havfli stress holatga tushishi bilan affiliatsiya motiviga bo'lgan tendensiya ham oshib borar ekan. Bunda odamlar jamoasi murakkab va havfli sharoitdagi reaksiyalar xarakteri va tanlangan xulq atvor uslubini to'g'ri yoki noto'g'riligini tanlash imkoniga ega bo'ladilar. Ma'lum chegaradagi odamlar o'rtasidagi yaqinlik havotirlanish darajasini pasayishiga olib keladi va shuning bilan birga ham fiziologik, ham psixologik stressning oldini oladi, oqibatini yumshatadi. Affiliatsiya motivning susayishi esa yolg'izlik, begonalashuv hislarini tug'diradi va frustratsiyaga olib keladi [2; 43-s.].

Shuningdek, "Boshqa insoniy mavjudodlarga nisbatan yaqin bog'liqlikni his etish"ni Mayers yer markazida joylashuvchi o'qqa o'xshatib, uning atrofida inson individumining go'daklikdan to o'limigacha bo'lgan butun hayoti aylanadi va ushbu yaqin bog'likliklardan insoniyat kuch va har kunlik hayotiy quvonch topadi" – deb ta'kidlaydi va shu ta'rif orqali affiliatsiya motivini tabiatini tushuntirib berishga harakat qiladi [3; 247-s.].

Ijtimoiy psixologiyada masala bo'yicha turli olimlar affiliatsiya motivatsiyasiga ta'rif berganda, affiliatsiya motivatsiyasi - muloqotga intilish, bilishga intilish, o'z-o'zini ta'kidlash, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuidan iboratligini ta'kidlashadi[4].

Ushbu motiv yaqqol namoyon bo'luvchi ijtimoiy xarakterga egadir, chunki ushbu motiv boshqa odamlar bilan o'zaro munosabat doirasidagina amalga oshadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj umuminsoniy ehtiyoj hisoblanib, u insonni jamoatchilik va hamkorlikka intilish kabi fundamental baza asosidagina quriladi[5].

Tadqiqotchi X.Xekxaufen [6] affiliatsiya motivni muloqotga ehtiyoj doirasida o'rganib, affiliatsiya har kunlik, lekin shuning bilan birgalikda fundamental xarakterga egadir. U o'zidan psixik hodisa, motiv, mayl, hoxish, boshqa odamlarga intilishni namoyon etadi. Uning asosida muloqotni amalga oshiruvchi insonni emotsional va ishonchli aloqalarga bo'lgan ichki ehtiyoji yotadi. Odatda u yaqin munosabatlar o'rnatishga intilish, har ikkala tomonga qoniqish olib kelish maqsadidagi muloqot jarayoni, birgalikdagi harakatlar majmui ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu ehtiyojning maqsadi turlicha bo'lishi mumkin va hatto bir-birini rad etuvchi (yaqin munosabatlarga erishish yoki suhbatdoshdan o'z maqsadi yo'lida foydalanish) ko'rinishida ham kelishi mumkin (X.Xekxaufen).

Adabiyotlarni o'rganishimiz "Affiliatsiyaga ehtiyoj" tushunchasi turli tadqiqot ishlarida turlicha tahlil qilingan. Affiliatsiya motivini birinchilardan bo'lib o'rgangan Xenri A. Myurrey tahliliga ko'ra, ushbu motivni namoyon bo'lishini ikki qirrasini ajratib o'tadi: birinchisi - shaxsiy muloqot, birlashish ehtiyoji hisoblansa, ikkinchisi esa - ma'lum guruhga mansublikni o'zi bilan ifoda etadi. Birinchisida munosabatlarni ishonchligi, emotsional aloqalarga ehtiyoj (Yan Mazurkevich, K.Obuxovski) alohida ta'kidlab o'tiladi. Ikkinchisida, insonni ijtimoiy aloqalarga bo'lgan ehtiyoji (Brem P.Bruunk), aniq bir guruhga aloqadorligi (D.Makklelannd, Ye.V.Trifonov) shuning bilan birgalikda referent guruhga qanday hissiyotlar sezishidan qat'iy nazar boshqa insonlar jamoasini qidirishga intilish (Brem P.Bruunk) nazarda tutiladi. Aslida affilativ ta'sir doirasining bunday ko'pqirraliligi bir-biriga zid qo'yish kerak emas, chunki ular turli vaqt va vaziyatlarda fao'lashadi. Bolalikda bu ona bilan bo'lgan yaqin aloqa bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ushbu ehtiyojni namoyon bo'lish doirasi oshib boraveradi. Endi nafaqat yaqin insonlar bilan yaqin emotsional aloqa o'rnatish, balki "biror bir narsaning asosiy elementi" ga (Bleyer) aylantirishga harakat qilinadi.

O'rganishlarimiz affiliatsiya motivatsiyasi ko'pqirrali mazmunga ega bo'lib, o'z ichiga odamlar bilan muloqotga kirish ehtiyoji, guruh a'zosiga aylanish, atrofdagilar bilan o'zaro

aloqada bo'lish, boshqalarga yordam ko'rsatish, hamda ulardan ham yordam qabul qilish kabi kompleks motivlardan iborat bo'lgani uchun ham, birinchi bo'lib ijtimoiy psixologlar uchun maxsus tadqiqotlar predmetiga aylangan. Ushbu hodisa, jarayonga turlicha ta'riflar berilgan, lekin ko'pincha, affiliatsiya motivatsiyasi deganda, insonni odamlar davrasida bo'lishga intilishi, ular bilan birga muloqotda bo'lishga, ular tomonidan tan olinishga, ular bilan ijobiy shaxsiy o'zaro munosabatlar o'rnatish va saqlab qolish tushuniladi. Tadqiqotimiz doirasida va maha liy olimi N.Norqulovanning tadqiqotlariga asoslanib, affiliatsiya (aloqa, muloqot) deganda, insonlar bilan muloqot o'rnatish(tanish, notanish va kam tanish insonlar) natijasida har ikkala tomonda birday qoniqlik hosil qilishga, muloqot jarayonini mazmun bilan boyitishga va unga kirishib ketishga undovchi ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning ma'lum bir sinfi tushuniladi degan xukmlarni chiqarishimiz mumkin[7]. Affiliatsiya motivining o'ziga xos bir qancha funksiyalari mavjud va ularni quyidagi taqiqotchilar tizimlashtirgan G.M. Andreeva, A.A. Bodalyov, B.F. Lomov, A.A. Leontev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'rganilib chiqilgan.

Tadqiqotchi Xenri A. Myurrey esa odamlar o'rtasidagi bog'liqlik ehtiyojining to'rt turini ajratadi [X. Xekxauzen]: 1. Affiliativ ehtiyoj (birlashish ehtiyoji). 2. Rad etilish ehtiyoji (ob'ektlarni inkor etish, chetda qolish). 3. Rahnamolik ehtiyoji (himoyalash). 4. Qo'lab-quvvatlash ehtiyoji (yordam, himoya qidirish). Affiliatsiya motivining tarkibiy qismga bo'lish tajribasi A.Megrabyan tomonidan qator o'tkazilgan tajriba ishlari natijalari asosidakiritilgan bo'lib, mua lif ushbu motivni ikkita motivatorlarga: affiliatsiyaga yo'nalganlik va rad etilishdan qo'rqish motivatorlariga ajratadi. Ularning asosida esa shaxslararo o'zaro ta'sirlarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi yotadi[8].

Tadqiqotchi A. Maslou esa boladagi birinchi darajali sotsiogen ehtiyoj sifatida affiliatsiyaga bo'lgan ehtiyoj konsepsiyasini oldinga suradi. Maslou fikricha, inson tug'ilganda faqatgina fiziologik ehtiyojlarga ega bo'ladi. Ma'lum muddatdan so'ng esa bola ijtimoiy bog'liqlikning birinchi belgilarini va atrofdagilarga nisbatan tanlovchan sevgini namoyon etadi. Yana ma'lum muddatdan so'ng, bola ota-ona muhabbati va g'amho'rlikini his etgandan, qondirilgandan so'ng, unda avtonomlikka, mustaqi likka, qandaydir maqsad, maqtovga nisbatan muvaffaqiyatga erishishga intilish aniqlanadi (A. Maslou, 1999).

Demak, bolaning ilk ontogenez davrida ushbu ehtiyojlarning qondirilmasligi insonni tashqi muhitga keyingi ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hatto to'g'rilab bo'lmas asoratlarga ham olib kelishi mumkin degan xulosa kelib chiqadi[9].

Buni ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlab, ularning fikricha, bola shaxsiy xususiyatlarining asosini unga g'amho'rlik qiluvchi kattalar bilan o'zaro aloqasi davridayoq boshlanadi va ular o'rtasidagi affektiv aloqa asosiy o'rinni ega laydi. Emotsional bog'lanishga, sevgiga ehtiyoj nafaqat xulqni, balki butun inson hayotini belgilab beruvchi bosh ehtiyojlardan biridir. Z.Freyd psixoanalizida va ko'pgina psixolog hamda psixoterapevtlar konsepsiyalarida nevroz asosida yoshligida mehr ko'rmagan, muhabbatga to'ymanlik natijasida kelib chiquvchi nerv-psixik buzilishlar yotadi, deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Affiliatsiya motivi ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy-psixologik kategoria ekanligi ilmiy asoslandi. Affiliatsiya motivi aholining turli qatlam vaki larida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'lib, mazkur motivni shakllanishi ular orasida ahi lik, birlashish, ko'maklashish, bir-birin to'laqonli anglash, bir-biriga yoram berish, bir-birin ob'ektiv anglashda kabi tayanch mezonlarni shakllantirar ekan.

Xulosa qilib aytganda, affiliatsiya motivi — insonning ijtimoiy-psixologik rivojlanishidagi markaziy qonuniyatlardan biridir. U shaxsning ruhiy barqarorligi, emotsional sog'lomligi va jamiyatdagi uyg'un munosabatlar tizimining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ushbu motivning kuchli bo'lishi insonni do'stlik, hamjihatlik, ishonch va mehr-muhabbatga yo'naltiradi, natijada u o'z hayotidan qoniqish va ijtimoiy maqsadga yo'naltirilganlikni his etadi.

Shunday qilib, affiliatsiya motivi nafaqat shaxs psixologiyasi, balki butun jamiyatning ruhiy salomatligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik qonuniyat sifatida o'rganilishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алёшина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование.- Изд.2-е.-М.: Независимая фирма «Класс», 1999.-208с.
2. Хайдаров Ф.И. Формирование мотивов учения у учащихся сельских школ: Автореф.дис. ... канд. пед. наук.- Ташкент: ТГПУ, 1996. – 18 с.
3. Чориев А.И. Социальный облик современной молодежи. -Т.:Ўзбекистон, 1996. – 150 б.
4. Творогова Н.Д. Клиническая психология. Словарь / Под ред. Творогова Н.Д. – М.: ПЕР СЭ, 2007. - 374 с.
5. Чхартишвили Ш.Н. Природа и виды социогенной потребности// проблема формирование социогенных потребностей. – Тбилиси, 1974. - С. 115-119.
6. Зейгарник Б.В. Теория личности в зарубежной психологии- М.: МГУ, 1981.– 128с.
7. Jabborov X.X. “O'smirda mi liy tarbiya shak lanishining psixologik qonuniyatlari”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
8. Жабборов Хазрат Хусенович. The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents. European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.
9. Jabborov Kh.Kh. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Samatova Sevara G'ayratovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Toshkent shahar

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY TALABALAR KIRIB BORISHI JARAYONIDAGI MADANIYATLARARO MOSLASHUVNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Nazarova Manzura Mustafiz qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

KIRISH: Global miqyosda ta'lim xizmatlarining jadal rivojlanishi, xalqaro akademik mobillikning kengayishi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan chet ellik talabalar sonining ortishiga olib keldi. Mamlakatimizda 2017 yildan boshlab oliy ta'limni xalqaro maydonga integratsiya qilish, xorijiy talabalarni jalb etish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning ko'plab universitetlarida Turkiya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Afg'oniston, Qozog'iston va boshqa davlatlardan kelgan talabalar ta'lim olmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, chet ellik talabalar moslashuvi nafaqat individual psixologik barqarorlik va ta'lim samaradorligiga, balki, universitetning xalqaro nufuziga, millatlararo totuvlikka ham bevosita ta'sir qiladi. Moslashuv jarayonini chuqur o'rganish uni yengillashtirish bo'yicha aniq mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi.

MAQSAD: O'zbekiston ta'lim tizimida tahsil olayotgan chet ellik talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuv omillari, jarayoni va muammolarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda samarali adaptatsiyani ta'minlash bo'yicha psixologik-pedagogik taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: Chet ellik talabalarning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashuvi - bu nafaqat o'quv jarayoniga kirish, balki, yangi madaniyat, ijtimoiy muhit, turmush tarzi, o'zbek jamiyatining qadriyatlari va me'yorlariga ko'nikish jarayonidir. Shuning uchun bu masala ko'p qirrali, murakkab psixologik-iqtisodiy hamda madaniyatlararo omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi: Moslashuv va madaniyatlararo kommunikatsiya bo'yicha xorijiy olimlardan Berry, Bourdieu, Bennett, Vygotskiy va mahalliy olimlardan Mardonov, Yo'ldosheva va boshqalarning ilmiy ishlari o'rganildi. O'zbekiston universitetlarida o'qiyotgan chet ellik talabalar o'rtasida auditoriya, yotoqxona va ijtimoiy muhitdagi xulq-atvor xususiyatlari kuzatildi. 150 nafar chet ellik talaba bilan psixologik moslashuv darajasi, qiyinchiliklar, ehtiyojlar bo'yicha so'rovnomma o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar foiz, o'rtacha ko'rsatkich va korrelyatsion tahlil asosida qayta ishlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy moslashuv, psixologik moslashuv, madaniyatlararo kommunikatsiya, adaptatsiya, integratsiya, moslashuv strategiyalari, madaniy shok.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПОСТУПЛЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Назарова Манзура Мустафаевна

Азиатский международный университет

Преподаватель кафедры педагогики и психологии

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Быстрое развитие образовательных услуг в глобальном масштабе, расширение международной академической мобильности привели к увеличению числа иностранных студентов, обучающихся в высших учебных заведениях Узбекистана. В нашей стране с 2017 года проводится ряд реформ по интеграции высшего образования в международную сферу, привлечению иностранных студентов. Сегодня во многих университетах Узбекистана обучаются студенты из Турции, Кореи, Китая, России, Индии, Афганистана, Казахстана и других стран. Актуальность данного исследования заключается в том, что адаптация иностранных студентов напрямую влияет не только на индивидуальную психологическую устойчивость и эффективность обучения, но и на международный престиж университета, межнациональную гармонию. Углубленное изучение адаптационного процесса позволяет выявить конкретные механизмы его облегчения.

ЦЕЛЬ: научно проанализировать факторы, процессы и проблемы социально-психологической адаптации иностранных студентов, обучающихся в системе образования Узбекистана, и разработать психолого-педагогические предложения и рекомендации по обеспечению эффективной адаптации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: адаптация иностранных студентов к системе образования Узбекистана — это не только вхождение в учебный процесс, но и процесс привыкания к новой культуре, социальной среде, образу жизни, ценностям и нормам узбекского общества. Поэтому данный вопрос тесно связан с многогранными, сложными психолого-экономическими и межкультурными факторами. В исследовании использовались следующие методы: изучались научные работы зарубежных ученых по адаптации и межкультурной коммуникации Берри, Бурдые, Беннета, Выготского, отечественных ученых Мардонова, Юлдашевой и др. Среди иностранных студентов, обучающихся в университетах Узбекистана, наблюдались особенности поведения в аудитории, общежитии и социальной среде. С 150 иностранными студентами был проведен опрос об уровне психологической адаптации, трудностях, потребностях. Полученные данные обрабатываются на основе процентного, среднего и корреляционного анализа.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: социальная адаптация, психологическая адаптация, межкультурная коммуникация, адаптация, интеграция, стратегии адаптации, культурный шок.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF INTERCULTURAL ADAPTATION IN THE PROCESS OF FOREIGN STUDENTS ENTERING THE UZBEKISTAN EDUCATIONAL SYSTEM

Nazarova Manzura Mustafa qizi

Asian international university

Teacher of the department of pedagogy and psychology

Annatation.

INTRODUCTION: The rapid development of educational services on a Global scale, the expansion of international academic mobility has led to an increase in the number of foreign students studying in higher educational institutions of Uzbekistan. Since 2017, a number of reforms have been implemented in our country to integrate higher education into the international arena, attracting foreign students. Today, many universities in Uzbekistan have students from Turkey, Korea, China, Russia, India, Afghanistan, Kazakhstan and other countries. The relevance of this study is that the adaptation of foreign students directly affects not only individual psychological stability and educational effectiveness, but also the international prestige of the University, interethnic harmony. An in-depth study of the adaptation process makes it possible to identify specific mechanisms for its mitigation.

THE GOAL: to develop psychological and pedagogical proposals and recommendations on the scientific basis of analysis of socio-psychological adaptation factors, processes and problems of foreign students studying in the educational system of Uzbekistan and ensuring effective adaptation.

MATERIALS AND METHODS: adaptation of foreign students to the educational system of Uzbekistan is not only an introduction to the educational process, but also a process of getting used to the values and norms of a new culture, social environment, lifestyle, Uzbek society. Therefore, this issue is closely related to multifaceted, complex psychological and economic, as well as intercultural factors. The study used the following methods: the scientific work of Berry, Bourdieu, Bennett, Vygotsky from foreign scientists in adaptation and intercultural communication and Mardonov, Yoldasheva and others from domestic scientists was studied. Among foreign students studying at Uzbek universities, the characteristics of behavior in the audience, hostel and social environment were observed. A survey was conducted with 150 foreign students on the level of psychological adaptation, difficulties, and needs. The data obtained is processed on the basis of percentage, average and correlation analysis.

KEYWORDS: social adaptation, psychological adaptation, intercultural communication, adaptation, integration, adaptation strategies, cultural shock.

Globalizatsiya, xalqaro akademik mobillik va ta'lim xizmatlarining jadal kengayishi natijasida O'zbekiston so'nggi yillarda Markaziy Osiyoda xorijiy talabalarni jalb qiluvchi asosiy mamlakatlardan biriga aylanmoqda. Mamlakatda:

- xalqaro universitetlar sonining ko'payishi,
- chet ellik talabalar uchun imtiyozli viza rejimlari,
- ingliz tilidagi ta'lim dasturlarining kengayishi,
- xalqaro reytinglarda ishtirok etish,
- O'zbekistonning madaniy va ijtimoiy jozibadorligi tufayli xorijiy talabalar

oqimi yil sayin ortmoqda. Biroq, xorijiy talabalar O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib borar ekan, ular yangi madaniy, ijtimoiy, kommunikativ va psixologik sharoitlarga moslashishga majbur bo'ladi. Madaniyatlararo moslashuv – bu oddiygina ta'limga moslashish emas, balki butunlay yangi ijtimoiy-madaniy muhitga kirish va o'z faoliyat strategiyasini qayta qurish demakdir. Adaptatsiya – shaxsning yangi tashqi sharoitlarga moslashuvi, o'z ehtiyojlari, motivlari, xulq-atvori va faoliyatini muhitga mos ravishda qayta tashkil etish jarayonidir. Ijtimoiy adaptatsiya ijtimoiy rollar, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish bilan bog'liq. Madaniyatlararo moslashuv – shaxsning begona madaniyatga kirish jarayonida yangi madaniy me'yorlarni qabul qilishi, kommunikativ xatti-harakatlarni moslashtirishi, psixologik barqarorlikni saqlashi, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mavzuga oid bir qator

olimlarning nazariyalariga e'tibor qaratamiz: **Berry (1997) – akkulturratsiya modeliga ko'ra** akkulturratsiya to'rt strategiya orqali amalga oshadi:

1. **Assimilyatsiya** – yangi madaniyatni o'zlashtirib, o'z madaniyatidan voz kechish.
2. **Integratsiya** – ikkala madaniyatni uyg'unlashtirish (eng samarali shakl).
3. **Separatsiya** – faqat o'z madaniyatiga yopishib olish.
4. **Marginalizatsiya** – ikkala madaniyatdan ham chetlanish.

Bennettning madaniy sezgirlik modeliga ko'ra esa moslashuvchanlik rad etish, himoyalash, minimallashtirish, qabul qilish, moslashish va integratsiya bosqichlarida kechadi. **Kim (2001) tomonidan taklif etilgan dinamik moslashuv nazariyasiga ko'ra** moslashuv – uzluksiz stress → moslashuv → rivojlanish siklidan iboratdir. Xorijiy talaba moslashuvini osonlashtiruvchi yoki murakkablashtiruvchi ta'lim tizimi xususiyatlarini aytish mumkin. Jumladan, reyting (jami 100 ball) tizimi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar an'anaviy tarzda olib boriladi, mustaqil ta'lim ulushi yuqori, davomat juda muhim (30% dan ortiq qoldirilsa – fan bo'yicha uzilish), sinov va imtihonlar qat'iy tartibda, o'qituvchiga nisbatan katta hurmat, talaba-o'qituvchi orasida yuqori masofaviy etik me'yorlar, guruh talabalari o'rtasida jamoaviylik kuchli. So'rovnomalar, intervyular va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda o'qiyotgan xorijiy talabalar quyidagi qiyinchiliklarga duch keladi: Tildagi qiyinchiliklar bu eng katta to'siq. Darslarni tushunmaslik, hujjatlarni to'ldirishda xatolar, mahalliy talabalar bilan muloqotda cheklanish, ijtimoiy hayotga kirishning sekinlashuviga olib keladi. Ko'pincha Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Koreya va Afrika davlatlaridan kelgan talabalar o'zbek va rus tilini yetarli darajada bilmaydi. Xorijiy talabalar odatda "madaniy shok"ning to'rt bosqichidan o'tadi:

1. **Honeymoon – romantik davr**
2. **Crisis – tushkunlik, stress, nostalgiya**
3. **Recovery – moslashuvni boshlash**
4. **Adjustment – barqaror moslashuv.**

O'tgan tadqiqotlar asosida moslashuv quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich: Orientatsiya va madaniy shok – Yangi muhitga kirish, qiyinchiliklar, xavotir.

2-bosqich: Faol izlanish – Til o'rganish, muloqotni kengaytirish, ijtimoiy aloqalar qurish.

3-bosqich: Integratsiya bosqichi – Yangi muhitga moslashish, ijobiy psixologik barqarorlik.

4-bosqich: Identifikatsiya – Talaba o'zini yangi muhitning faol a'zosi deb his qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib kelayotgan xorijiy talabalar yangi madaniy va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida murakkab psixologik va ijtimoiy bosqichlardan o'tadi. Madaniyatlararo moslashuv bir vaqtning o'zida shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor jihatlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Talaba yangi madaniyatga kirar ekan, avvalo uning mavjud tushunchalari, qadriyatlari va stereotiplari qayta shakllanadi. Masalan, vaqtga munosabat, rasmiy va norasmiy muloqot me'yorlari, odamlar bilan munosabat qurish uslubi yoki jamiyatdagi o'zaro hurmat tamoyillari talabaning oldingi tajribasidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ayniqsa, o'zbek jamiyatida kattalarga nisbatan hurmat, odob-axloq normalariga rioya qilish va ijtimoiy muloqotning yumshoq, muloyim shakllari katta ahamiyatga ega bo'lgani uchun xorijiy talabalar bu me'yorlarni asta-sekin o'zlashtiradi. Bunday moslashuvning kognitiv qismi shundan iboratki, talaba atrofdagi vaziyatlarni yangi nuqtai nazardan idrok eta boshlaydi va yangi muhitni o'ziga mos tarzda talqin qiladi. Emotsional moslashuv jarayoni esa talabaning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi. Yangi mamlakatga kelgan talabalar ko'pincha nostalgiya, xavotir, qo'rquv, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi yoki ijtimoiy noqulaylik hissini boshdan kechiradi. Bu tabiiy holat bo'lib, "madaniy shok" jarayonining tarkibiy qismidir. Dastlabki bosqichda ko'pchilik xorijiy talabalar yangi muhitdan

zavqlanib, hamma narsa qiziq va o'ziga xos tuyuladi. Biroq vaqt o'tishi bilan ular turmush tarzi, til, ovqat, iqlim, odamlar bilan muloqot kabi jihatlardagi farqlarni sezib, psixologik tushkunlikka tushishi mumkin. Moslashuvning keyingi bosqichida esa talaba asta-sekin muhitga ko'nika boshlaydi, o'z emotsiyalarini boshqarishni o'rganadi va nihoyat yangi muhit bilan psixologik uyg'unlikka erishadi. Xulq-atvor darajasidagi moslashuv talabaning yangi muhitda qanday harakat qilishi bilan belgilanadi. U o'z xatti-harakatlarini o'zbek jamiyatining me'yorlari, talablar va qadriyatlariga mos ravishda o'zgartiradi. Masalan, o'qituvchiga qanday murojaat qilish, guruhdagi tengdoshlar bilan qanday munosabat qilish, xalq orasida qanday odob me'yorlariga amal qilish, jinsi, dini, yoshi va maqomi yuqori odamlar bilan qanday muloqot qilish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Bu jarayon oson kechmaydi, lekin O'zbekistonning mehmondo'st, bag'rikeng muhitida bunday moslashuv odatda tezroq amalga oshadi. Chet ellik talabalar ko'pincha o'z ijtimoiy muhitini yangi do'stlar, mahalliy talabalar va qo'llab-quvvatlovchi guruhlar bilan boyitgan sari o'zlarini yanada erkin va ishonchli his qila boshlaydi. Xorijiy talabalar moslashuv jarayonida ularning shaxsiy xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Tolerantlik darajasi, ochiqlik, stressga chidamlilik, o'zini boshqarish qobiliyati va kommunikativ faollik moslashuvning tezligi va samaradorligiga kuchli ta'sir qiladi. Motivatsiya darajasi ham muhim omildir. O'qish uchun ichki motivatsiyaga ega bo'lgan talabalar – ya'ni bilimga qiziqqanlar, yangi madaniyat o'rganishga intilganlar – moslashuv jarayonida ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Biroq tashqi sabablar – stipendiya, ota-ona bosimi yoki boshqa majburiyatlar tufayli kelgan talabalar ko'proq moslashuv qiyinchiliklariga duch keladi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra 64% talaba O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashuvni "o'rta darajada" deb baholadi. 22% moslashuv jarayonida "qiyinchiliklar ko'p"ligini ta'kidlaydi. 14% moslashuvni "o'ta qulay va oson" deb hisoblaydi. Bu ko'rsatkich moslashuv jarayoni ko'pchilik talabalar uchun murakkabligini ko'rsatadi. Til to'sig'i — eng asosiy muammo. Talabalar 67% hollarda tilni asosiy to'siq sifatida ko'rsatdi. O'zbek tilida dars o'tilishi yoki mahalliy talabalar bilan muloqot qilish zarurati ularni qiynaydi. Rus tilini bilgan talabalar moslashuvda ancha ustunlikka ega. Intervyu natijalariga ko'ra ovqatlanish odatlari, vaqtga munosabat, diniy marosimlar, o'zbeklarda katta yoshdagilarga hurmatning yuqoriligi chet ellik talabalar uchun yangi bo'lib, dastlab noqulaylik tug'dirgan. Chet ellik talabalar ko'pincha kichik guruhlarda yashaydi va mahalliy talabalar bilan kam munosabatda bo'ladi. Bu ular uchun ijtimoiy izolyatsiya, yolg'izlik, o'ziga ishonchsizlikni kuchaytiradi. Talabalarning 48% O'zbekiston universitetlaridagi mustaqil ta'lim ulushi, qat'iy davomat talablari, reyting baholash tizimiga moslashishni qiyin deb topgan. Chet ellik talabalar quyidagi jihatlarni yuqori baholadi:

- o'zbek xalqining mehmondo'stligi;
- o'qituvchilarning talabalar bilan do'stona muloqoti;
- xavfsiz muhit;
- xalqaro talabalar uchun yaratilgan sharoitlarning kengayib borayotgani.

Bu omillar moslashuvning tezlashishiga xizmat qiladi. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, moslashuv jarayoni uch bosqichda kechadi:

1-bosqich: Moslashuvga kirish (1–2 oy). Talabalar madaniy shok, stress, uyga sog'inch kabi hislarni boshdan kechiradi.

2-bosqich: Faol moslashuv (3–8 oy). Talabalarda munosabatlar shakllanadi, o'qish tizimi tushuniladi, muloqot ko'nikmalari yaxshilanadi.

3-bosqich: Barqaror moslashuv (8 oydan keyin). Talaba jamoadan o'z o'rnini topadi, muvaffaqiyatli integratsiya amalga oshadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari moslashuvning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liqligini ko'rsatdi:

- universitetning qo'llab-quvvatlashi;
- o'qituvchining madaniyatlararo kompetensiyasi;
- talabaga psixologik yordamning mavjudligi;
- til o'rganish imkoniyatlari;
- ijtimoiy hayotga jalb etilish.

O'zbekistonning o'ziga xos jamiyati xorijiy talabalar moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalqining mehmondo'stligi, bag'rikengligi, yordamga tayyor turishi xorijiy talabalar uchun katta ruhiy tayanch bo'ladi. Ko'plab talabalar ilk oylaridayoq mahalliy aholining iliqqligi, do'stona yondashuvi, yordam ko'rsatishdan charchamasligi haqida ijobiy fikr bildiradi. O'zbekistonning ijtimoiy xavfsizligi, tinch va barqaror muhitga ega ekani ham psixologik moslashuvni osonlashtiradi. Shuningdek, diniy bag'rikenglik, halol ovqatning keng tarqalganligi, diniy marosimlarga hurmat bilan munosabatda bo'linishi ko'plab musulmon xorijiy talabalar uchun ayniqsa ijobiy faktor hisoblanadi. Madaniyatlararo kommunikatsiya moslashuv jarayonining eng muhim qismidir. O'zbekiston talabalari odatda muloyim, kamtar va hurmatga asoslangan muloqot uslubiga ega. Bu ba'zi xorijiy talabalar uchun dastlab tushunarsiz bo'lishi mumkin, chunki ayrim davlatlarda talabalarning ochiq, keskin yoki bevosita muloqot qilish odatiy hol hisoblanadi. Bunday farqlar ba'zan noto'g'ri tushunishlarga olib kelishi mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan talabalar ushbu farqlarni tushunib, moslashishni o'rganadi. Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalarga ko'rsatiladigan yordam – ularning moslashuvini sezilarli yengillashtiradi. Xalqaro bo'limlar, psixologik xizmatlar, tutorlar va kuratorlar, madaniy tadbirlar, moslashuv dasturlari, ingliz tilidagi kurslar, madaniyatlararo muloqot treninglari moslashuvning samarali kechishiga xizmat qiladi. Bunday tizimlar rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilib, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda jadal tatbiq etilmoqda. Shuningdek, integratsiya jarayoni talabaning ijtimoiy hayotda ishtirok etishi orqali kuchayadi. O'zbekistonda o'quv yili davomida o'tkaziladigan madaniy festival, milliy bayramlar, sport musobaqalari va talaba klublari xorijiy talabalar uchun ham ochiq bo'lgani sababli ular mahalliy muhitga tezroq singib boradi. Talabalar ijtimoiy faol bo'lgani sari ularning moslashuvi ham barqaror tus oladi. O'zbekiston ta'lim tizimiga kirib borayotgan xorijiy talabalar madaniyatlararo moslashuv jarayonini boshdan kechirarkan, bu jarayon kognitiv, emotsional, xulq-atvoriy va ijtimoiy bosqichlarda kechadi. O'zbekistonning madaniyati, ijtimoiy qadriyatlari, til muhiti va ta'lim tizimi xorijiy talabalar uchun yangi bo'lsa-da, ular odatda mehmondo'stlik va ijobiy munosabat tufayli qisqa muddatda moslashish imkoniga ega bo'ladi. To'g'ri tashkil qilingan pedagogik, psixologik va tashkiliy yordamlar esa bu jarayonni yanada samarali qiladi.

O'zbekiston ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan chet ellik talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, til, madaniy farqlar, ijtimoiy aloqalarning yetishmasligi va akademik talablarga moslashish asosiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Moslashuvni yengillashtirish uchun universitetlar tomonidan kompleks yondashuv zarur.
2. Psixologik, ijtimoiy va akademik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaxshi yo'lga qo'yilgan taqdirda chet ellik talabalar tezroq integratsiya qiladi.
3. O'zbekistonning mehmondo'st madaniyati va xavfsiz muhit moslashuv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.
4. Moslashuvni ilmiy asosda o'rganish oliy ta'limning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.



Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro ta'lim muhiti sifatini yaxshilashga, madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishga va chet ellik talabalar uchun samarali moslashuv tizimini yaratishga asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" farmoni.
2. A.D.Palkin. "Ассоциативный эксперимент как способ кросс культурного исследования образов сознания" 2008 yil.
3. V.N.Panferov. "Психология общения" O'quv qo'llanma. 2004 yil.
4. HAMDAN, S., & MARTINEZ, R. 2000. "An Exploration of Ethnic/Cultural Violence Perceptions among Urban Middle and High School Students". Journal of Health Education, Vol. 31, No 4: 238-246. UK.
5. Qodirova, D. (2022). Xorijiy talabalar moslashuvi: muammolar va yechimlar. Pedagogika va Psixologiya Jurnal.
6. Safarova, M. (2023). O'zbekiston oliy ta'limida xalqaro integratsiya jarayonlari. Ta'lim islohotlari ilmiy to'plami.
7. GAKHAL, S., & WILSON, C. 2019. "Is students' qualitative feedback changing, now it is online?" Assessment & Evaluation in Higher Education. Vol. 44, No 3: 476-488. UK.
8. Berry, J.W. (1997). Immigration, Acculturation, and Adaptation. Applied Psychology: An International Review.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Nazarova Manzura Mustaf o' qizi

Osiyo xalqaro universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARNING O'RNI



Baratov Xumoyin Sharipovich

Buxoro xalqaro universiteti

prorektori, Psixologiya falari doktori (DSc)

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va psixologik yondashuvlarning o'rni yoritiladi. Tadqiqotda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi metodik, kommunikativ, motivatsion-axloqiy hamda psixofiziologik komponentlar tizimli tahlil qilinadi. Jismoniy tarbiya darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, interfaol metodlar, AR/VR simulyatsiyalari, sport psixologiyasiga asoslangan motivatsion strategiyalar o'qituvchining innovatsion kompetentligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy asosda ko'rsatilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar bilan psixologik jarayonlarning integratsiyasi jismoniy tarbiya pedagogining professional mahoratini takomillashtirishda muhim omil ekanini asoslab beriladi.

MAQSAD: Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va psixologik yondashuvlarning o'rnini ilmiy tahlillar asosida o'rganish

MATERIALLAR VA METODLAR: Zamonaviy jamiyatda jismoniy faollikning pasayishi, yoshlar orasida harakatsiz turmush tarzining kuchayishi, sog'lom turmush tarzi bo'yicha yetarli motivatsiyaning pastligi jismoniy tarbiya faniga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini kuchaytirish, innovatsion metodlarni keng joriy qilish, o'quvchilar psixologiyasidan samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Kasbiy kompetentlik nazariyasi Raven, Markova, Slavenin kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular pedagog kompetentligini ko'p komponentli tizim sifatida talqin qilganlar. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun bu tizimga metodik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya, sport psixologiyasi bo'yicha bilim, psixofiziologik resurslarni boshqarish, xavfsizlik madaniyati kabi yo'nalishlar kiradi.

Xorijiy olimlardan R. Martens, R. Weinberg, D. Gould, J. Joneslar innovatsion yondashuvlarning, xususan, VR mashg'ulotlari, gamifikatsiya va raqamli sport tahlil texnologiyalarining o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va motivatsiyasiga ta'sirini o'rgangan.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va psixologik yondashuvlar uzviy bog'liq holda qo'llanilishi kerak. Innovatsion o'qitish vositalari metodik kompetensiyani, psixologik yondashuvlar esa emotsional va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, innovatsion texnologiyalar, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, psixologik yondashuv, metodik tayyorgarlik, AR/VR, motivatsiya, interfaol metodlar.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Баратов Хумойин Шарипович

*Проректор Бухарского международного
университета,
доктор психологических наук (DSc)*

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается роль инновационных образовательных технологий и психологических подходов в развитии профессиональной компетентности учителей физической культуры. В исследовании системно анализируются методические, коммуникативные, мотивационно-этические и психофизиологические компоненты, формирующие профессиональную компетентность учителя. Научно доказано, что использование цифровых технологий, интерактивных методов, дополненной и виртуальной реальности (AR/VR) и мотивационных стратегий, основанных на спортивной психологии, на уроках физической культуры способствует повышению инновационной компетентности учителя. Также обосновано, что интеграция инновационных подходов и психологических процессов является важным фактором повышения профессионального мастерства учителя физической культуры.

ЦЕЛЬ: Изучить роль инновационных образовательных технологий и психологических подходов в развитии профессиональной компетентности учителей физической культуры на основе научного анализа.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Снижение физической активности в современном обществе, рост малоподвижного образа жизни среди молодежи, отсутствие достаточной мотивации к здоровому образу жизни повышают спрос на физическую культуру. Это обуславливает необходимость укрепления профессиональной компетентности учителей физической культуры, широкого внедрения инновационных методов и эффективного использования психологии студентов.

Теория профессиональной компетентности была разработана такими учёными, как Равен, Маркова и Сластенин, которые трактовали педагогическую компетентность как многокомпонентную систему. Для учителей физической культуры эта система включает такие области, как методическая подготовка, коммуникативная компетентность, знание спортивной психологии, управление психофизиологическими ресурсами и культура безопасности.

Зарубежные учёные Р. Мартенс, Р. Вайнберг, Д. Гулд, Дж. Джонс изучали влияние инновационных подходов, в частности технологий виртуальной реальности, геймификации и цифрового анализа спорта, на физическую подготовленность и мотивацию студентов.

ВЫВОД: Результаты исследования показали, что инновационные технологии и психологические подходы должны использоваться в неразрывной связи в развитии профессиональной компетентности учителей физической культуры. Инновационные педагогические инструменты укрепляют методическую компетентность, а психологические подходы – эмоционально-коммуникативную.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, инновационные технологии, учитель физической культуры, психологический подход, методическая подготовка, дополненная и виртуальная реальность, мотивация, интерактивные методы.

THE ROLE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Baratov Khumoyin Sharipovich

Prorector of Bukhara International

University, Doctor of Psychology (DSc)

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the role of innovative educational technologies and psychological approaches in the development of professional competence of physical education teachers. The study systematically analyzes the methodological, communicative, motivational-ethical and psychophysiological components that form the professional competence of a teacher. It is scientifically proven that the use of digital technologies, interactive methods, AR/VR simulations, and motivational strategies based on sports psychology in physical education lessons contribute to increasing the innovative competence of a teacher. It is also substantiated that the integration of innovative approaches and psychological processes is an important factor in improving the professional skills of a physical education teacher.

THE GOAL: To study the role of innovative educational technologies and psychological approaches in the development of professional competence of physical education teachers based on scientific analysis.

MATERIALS AND METHODS: The decrease in physical activity in modern society, the increase in a sedentary lifestyle among young people, and the lack of sufficient motivation for a healthy lifestyle increase the demand for physical education. This creates the need to strengthen the professional competence of physical education teachers, widely introduce innovative methods, and effectively use student psychology.

The theory of professional competence was developed by scientists such as Raven, Markova, and Slastenin, who interpreted pedagogical competence as a multi-component system. For physical education teachers, this system includes such areas as methodological preparation, communicative competence, knowledge of sports psychology, management of psychophysiological resources, and safety culture.

Foreign scientists R. Martens, R. Weinberg, D. Gould, J. Jones studied the impact of innovative approaches, in particular VR training, gamification and digital sports analysis technologies, on the physical fitness and motivation of students.

CONCLUSION: The results of the study showed that innovative technologies and psychological approaches should be used in an inextricable link in the development of professional competence of physical education teachers. Innovative teaching tools strengthen methodological competence, and psychological approaches strengthen emotional and communicative competence.

Keywords: professional competence, innovative technologies, physical education teacher, psychological approach, methodological preparation, AR/VR, motivation, interactive methods.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimida jadal sur'atlarda kechayotgan o'zgarishlar pedagogik kadrlardan, ayniqsa jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan yangicha bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni talab qilmoqda. Jismoniy tarbiya darslari nafaqat o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularning sog'lom turmush tarziga munosabatini shakllantiradi, irodaviy sifatlarini mustahkamlaydi, psixologik barqarorlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, emotsional nazorat kabi shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu sababli, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi, raqamli ta'lim texnologiyalarining keng qo'llanilishi, jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan metodik tayyorgarlik bilan birga innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv, psixologik barqarorlik va ilg'or ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etmoqda. Ayniqsa, AR/VR texnologiyalari, raqamli sport simulyatorlari, onlayn monitoring tizimlari, mobil dasturlar yordamida mashg'ulotlarni boshqarish jismoniy tarbiya darslarining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirmoqda.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar – interfaol metodlar, AKT asosidagi o'qitish, raqamli tahlil vositalari, sport psixologiyasining zamonaviy yo'nalishlari, motivatsion qo'llab-quvvatlash strategiyalarining qo'llanishi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya fanining o'ziga xosligi – kinestetik faoliyat, jismoniy yuklama darajasi, xavfsizlik, mashg'ulotlarni psixofiziologik qonuniyatlarga muvofiq rejalash kabi jihatlar o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni, mustaqil tahlilchanlikni, reflektiv faoliyatni, emotsional barqarorlikni va pedagogik mahoratni talab etadi.

Psixologik jihatdan esa, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kommunikativ madaniyati, o'quvchilar bilan samarali muloqot olib borish qobiliyati, motivatsion-irratsional omillarni boshqarish ko'nikmalari, sport faoliyati bilan bog'liq stress holatlarini real vaqt rejimida boshqarish imkoniyatlari kasbiy kompetentlikning ajralmas qismidir. Shuningdek, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, temperament turlarini, fiziologik resurslarini hisobga olib mashg'ulotlarni differensial tashkil etish o'qituvchining psixologik savodxonligini yanada oshiradi.

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan psixologik yondashuvlar — motivatsiya, emotsional intellekt, muloqot madaniyati, stressni boshqarish, yosh psixologiyasi — jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalar va psixologik mexanizmlarning integratsiyasi o'qituvchining professional faoliyatini yanada samarali qiladi.

Zamonaviy jamiyatda jismoniy faollikning pasayishi, yoshlar orasida harakatsiz turmush tarzining kuchayishi, sog'lom turmush tarzi bo'yicha yetarli motivatsiyaning pastligi jismoniy tarbiya faniga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini kuchaytirish, innovatsion metodlarni keng joriy qilish, o'quvchilar psixologiyasidan samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Innovatsion texnologiyalar — AR/VR sport simulyatsiyalari, raqamli monitoring, interaktiv platformalar, mashqlarni avtomatik baholash tizimlari — jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshiradi, individual yondashuvni kuchaytiradi va xavfsizlik darajasini ta'minlaydi. Psixologik yondashuvlar esa o'qituvchining kommunikativ madaniyatini, motivatsion boshqaruvini, emotsional barqarorligini mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion o'qitish metodlari va psixologik mexanizmlarni ilmiy asosda o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik nazariyasi Raven, Markova, Slastenin kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular pedagog kompetentligini ko'p komponentli tizim sifatida talqin qilganlar. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun bu tizimga metodik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya, sport psixologiyasi bo'yicha bilim, psixofiziologik resurslarni boshqarish, xavfsizlik madaniyati kabi yo'nalishlar kiradi.

J. Raven, A.K. Markova, V.A. Slastenin kabi olimlarning ilmiy qarashlariga ko'ra, kasbiy kompetentlik — bu shaxsning kasbiy faoliyatni samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, psixologik tayyorgarlik va motivatsion sifatlar majmuasidir. Markova (1996) kasbiy kompetentlikni o'qituvchining metodik, kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy va refleksiv kompetensiyalaridan iborat deb ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv jismoniy tarbiya o'qituvchilariga nisbatan ham dolzarb bo'lib, ularning kinestetik, sport texnikasi va xavfsizlik bo'yicha yuqori tayyorgarligini ham nazarda tutadi.

Xorijiy olimlardan R. Martens, R. Weinberg, D. Gould, J. Joneslar innovatsion yondashuvlarning, xususan, VR mashg'ulotlari, gamifikatsiya va raqamli sport tahlil texnologiyalarining o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va motivatsiyasiga ta'sirini o'rgangan.

Mahalliy olimlar — Tolipov, Nishonova, Musurmonova — o'qituvchilar kompetentligini rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslarini tahlil qilganlar.

AR/VR texnologiyalar asosida sport mashg'ulotlarini tashkil etish, sensorli monitoring vositalari, mobil ilovalar orqali yuklamani boshqarish bo'yicha yangi tadqiqotlar (2020–2024) jismoniy tarbiya darslarida innovatsiyalar samarador ekanini ko'rsatmoqda.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ikki asosiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- AR/VR texnologiyalari
- Mobil ilovalar va sensor monitoring
- Interfaol metodlar (gamification, case-study, training-modullar)
- Onlayn o'qitish platformalari
- Raqamli sport simulyatorlari

Bu vositalar o'quvchilarning faolligini oshiradi, mashqlarni individual rejalashtirish imkonini yaratadi, xavfsizlikni ta'minlaydi va dars mazmunini boyitadi.

- Motivatsiyani boshqarish
- Stressni kamaytirish texnikalari
- Emotsional intellektni rivojlantirish
- Kommunikativ madaniyat
- Yosh xususiyatlarini inobatga olish

Psixologik yondashuvlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatni mustahkamlaydi, o'quvchilarning ishtirokini kuchaytiradi va dars samaradorligini oshiradi.

Innovatsion va psixologik mexanizmlarning integratsiyasi o'qituvchilarda yuqori darajadagi professional kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida raqobatbardosh, malakali, innovatsion fikrlaydigan pedagog kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa jismoniy tarbiya fani o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi, sog'lom turmush tarzi, psixologik barqarorligi va irodaviy sifatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutganligi bois, ushbu yo'nalish o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini yangi bosqichga ko'tarish zarurati tobora kuchaymoqda. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat dars beruvchi

mutaxassis, balki o'quvchilarning individual salohiyatini ochib beruvchi murabbiy, sog'lom turmush tarziga yo'naltiruvchi motivator va jamoaning psixologik yetakchisi sifatida maydonga chiqmoqda. Shuning uchun uning kasbiy tayyorgarligi chuqur nazariy bilimlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash mahorati hamda sport psixologiyasiga xos kompetensiyalar bilan boyitilgan bo'lishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va psixologik yondashuvlar uzviy bog'liq holda qo'llanilishi kerak. Innovatsion o'qitish vositalari metodik kompetensiyani, psixologik yondashuvlar esa emotsional va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlaydi.

Integratsiyalashgan yondashuv quyidagi natijalarni beradi:

1. Dars samaradorligi oshadi.
2. O'quvchilarning motivatsiyasi kuchayadi.
3. O'qituvchining psixologik barqarorligi mustahkamlanadi.
4. Innovatsion pedagogik madaniyat shakllanadi.
5. Jismoniy tarbiya fanining maqsadlari samarali amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov R.B., Usmonboeva M.S. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Nishonova Z. O'qituvchi kasbiy kompetentligining psixologik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.
3. Musurmonova N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Abduqodirov A. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2017.
5. PQ-4319-son qaror. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risida. – 2019.
6. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – Moskva: Znanie, 1996.
7. Slastenin V.A., Isaev I.F. Pedagogika: kompetentnostnyy podxod. – Moskva: Akademiya, 2013.
8. Kuznetsov A. Psixologiya fizicheskogo vospitaniya i sporta. – Moskva: Sport, 2018.
9. Weinberg R., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Human Kinetics, 2020.
10. Martens R. Successful Coaching. – Human Kinetics, 2012.
11. Jones S. Innovative Approaches to Physical Education Teaching. – Routledge, 2022.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Baratov Sharif Ramazonovich

Buxoro xalqaro universiteti rektor, Psixologiya fanlari doktori, professor
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasi akademigi

Baratov Xumoyin Sharipovich

Buxoro xalqaro universiteti prorektori,
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri

**O'SMIR XULQ-ATVORINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI
ZAMONAVIY MEDIA TA'SIRNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****Allakov Ilhom Okmurodovich***Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi***Annotatsiya.**

KIRISH: Maqolada o'smirlik davridagi shaxs rivojlanishi va xulq-atvor shakllanishining psixologik asoslari keng yoritiladi. Xulq-atvorga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinib, zamonaviy media va axborot muhiti o'smir ongiga ko'rsatadigan psixologik ta'sir mexanizmlari chuqur ochib beriladi. Media iste'moli jarayonida yuzaga keladigan kognitiv filtrlar, ijtimoiy tasavvurlar va qadriyat tizimining o'zgarishi ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi. Maqola psixologiya fanining nazariy qarashlariga tayangan holda o'smirlarning xulq-atvorini shakllantirishda ta'lim, oila va jamiyatning o'rnini haqida xulosalar beradi.

MAQSAD: O'smir xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi zamonaviy media ta'sirning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Bugungi kunda o'smirlar axborotning asosiy iste'molchisi sifatida media bilan uzluksiz aloqada bo'lib yashaydi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar o'smir ongiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada o'smir xulq-atvori shakllanishining an'anaviy psixologik-pedagogik omillari bilan bir qatorda media muhitining psixologik ta'siri ham batafsil tahlil qilinadi. Bugungi kunda jamiyatimizda ta'lim va tarbiya faoliyatining eng muhim maqsadlaridan biri yuqori darajada professional tayyorgarlik ko'rgan, ma'naviy yetuk va umuman shaxs sifatida har tomonlama barkamol, butun xayoti davomida o'z bilim va malakalarini chuqurlashtirib, kengaytirish ustida tinmay ishlashga qodir raqobatbardosh, shu bilan birga kompetentli mutaxassislarni tayyorlashdir. Ular mamlakat uchun eng yaxshi kadr va namunali fuqaroga aylanib mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun katta hissa qo'shadilar. Maktablarda bilim olayotgan o'smirlarining xulq-atvorining shakllanishi nafaqat ta'lim muassasalarining, shu bilan birgalikda butun bir jamiyatning ham muammosiga aylanishi lozim.

XULOSA: Ochiq axborot almashinuvi vaziyatida yoshlarning o'z-o'zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish lozim: Birinchidan, har bir o'smir yoshlarimiz mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish muhim. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. Ikkinchidan, yoshlarimiz turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda oila va maktab davrasida milliy g'ururni tinmay tarbiyalashimiz, qadryatlarni singdirishimiz va bunda fanlararo aloqadorlik hamda tarbiyaviy muloqotlardan

oqilona foydalanishimiz zarur. Chunki inson qalbi bilan bog'liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan "kompas" rolini o'ynaydi.

Kalit so'zlar. xulq-atvor shakllanishi, o'smirlar, media ta'siri, axborot iste'moli madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ СОВРЕМЕННЫХ СМИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аллаков Илхом Окмуродович

Независимый исследователь Бухарского государственного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье широко рассматриваются психологические основы развития личности и формирования поведения в подростковом возрасте. Анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на поведение, и глубоко раскрываются механизмы психологического воздействия современной медиа- и информационной среды на сознание подростка. Научно обоснованы когнитивные фильтры, социальные представления и изменения в системе ценностей, происходящие в процессе потребления медиа. В статье сделаны выводы о роли образования, семьи и общества в формировании поведения подростков, основанные на теоретических представлениях психологии.

ЦЕЛЬ: Научно проанализировать социально-психологические особенности влияния современных медиа на поведение подростков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Сегодня подростки, являясь основными потребителями информации, находятся в постоянном контакте со средствами массовой информации. Средства массовой информации, социальные сети, цифровые платформы оказывают прямое и косвенное воздействие на сознание подростка. Исходя из этого, в данной статье, наряду с традиционными психолого-педагогическими факторами формирования поведения подростков, подробно анализируется психологическое воздействие медиасреды. Сегодня одной из важнейших целей образования и воспитания в нашем обществе является подготовка конкурентоспособных, одновременно компетентных специалистов, обладающих высокой профессиональной подготовкой, духовно зрелыми и в целом всесторонне развитыми личностями, способными постоянно работать над углублением и расширением своих знаний и навыков на протяжении всей жизни. Они станут лучшими кадрами для страны и образцовыми гражданами, внося значительный вклад в экономическое и социальное развитие страны. Формирование поведения подростков, обучающихся в школах, должно стать задачей не только образовательных учреждений, но и общества в целом.

ВЫВОД: При управлении самозащитой молодежи в условиях открытого информационного обмена особое внимание следует уделять следующим аспектам: Во-первых, важно, чтобы каждый наш подросток обладал способностью к самостоятельному и критическому мышлению. Только человек с независимым мышлением может дойти до сути направленной на него хорошей или плохой информации и адекватно отреагировать на нее, активировать защитные механизмы. Во-вторых, чтобы наша молодёжь не поддавалась различным чуждым и вульгарным информационным атакам, необходимо постоянно воспитывать в семье и школе национальную гордость, прививать ценности и грамотно использовать междисциплинарное общение и

образовательный диалог. Ведь эти ценности, связанные с человеческой душой, играют роль безошибочного «компас» в мире интернета и открытой информации.

Ключевые слова: формирование поведения, подростки, влияние СМИ, культура потребления информации, социальные сети.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF MODERN MEDIA INFLUENCE ON THE FORMATION OF ADOLESCENT BEHAVIOR

Allakov Ilhom Okmurodovich

Independent researcher at Bukhara State University

Annatation.

INTRODUCTION: The article broadly covers the psychological foundations of personality development and behavioral formation in adolescence. The internal and external factors influencing behavior are analyzed, and the mechanisms of psychological influence that the modern media and information environment exerts on the adolescent mind are deeply revealed. The cognitive filters, social perceptions, and changes in the value system that occur in the process of media consumption are scientifically substantiated. The article draws conclusions about the role of education, family, and society in shaping the behavior of adolescents, based on the theoretical views of psychology.

PURPOSE: To scientifically analyze the socio-psychological characteristics of modern media influence on adolescent behavior

MATERIALS AND METHODS: Today, adolescents, as the main consumers of information, live in constant contact with the media. Mass media, social networks, digital platforms have a direct and indirect impact on the adolescent mind. Based on this, this article, along with the traditional psychological and pedagogical factors of the formation of adolescent behavior, will also analyze in detail the psychological impact of the media environment. Today, one of the most important goals of education and upbringing in our society is to prepare competitive, at the same time competent specialists who are highly professionally trained, spiritually mature and generally well-rounded as individuals, capable of constantly working to deepen and expand their knowledge and skills throughout their lives. They will become the best personnel for the country and exemplary citizens, making a significant contribution to the economic and social development of the country. The formation of the behavior of adolescents studying in schools should become a problem not only of educational institutions, but also of society as a whole.

CONCLUSION: In managing the self-defense of young people in the context of open information exchange, special attention should be paid to the following aspects: First, it is important for each of our teenagers to have the ability to think independently and critically. Only a person with an independent mind can reach the essence of good or bad information directed at him and adequately react to it, activate protective mechanisms. Secondly, so that our young people do not succumb to various foreign and vulgar information attacks, we need to constantly educate national pride in them in the family and school environment, instill values, and use interdisciplinary communication and educational dialogues wisely. Because these values, which are related to the human soul, play the role of an unerring “compass” in the world of the Internet and open information.

Keywords: behavioral formation, adolescents, media influence, information consumption culture, social networks.

Zamonaviy ta'lim tizimi raqobatbardosh, intellektual salohiyatga ega, ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bu jarayonda o'smir yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvori, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasi muhim omil hisoblanadi. O'smirlik davri — shaxsning murakkab rivojlanish bosqichi bo'lib, bu davrda psixologik o'zgarishlar, emotsional tebranishlar va ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi kuchayadi. Shu munosabat bilan xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish psixologiya fanida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda o'smirlar axborotning asosiy iste'molchisi sifatida media bilan uzluksiz aloqada bo'lib yashaydi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar o'smir ongiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada o'smir xulq-atvori shakllanishining an'anaviy psixologik-pedagogik omillari bilan bir qatorda media muhitining psixologik ta'siri ham batafsil tahlil qilinadi. Bugungi kunda jamiyatimizda ta'lim va tarbiya faoliyatining eng muhim maqsadlaridan biri yuqori darajada professional tayyorgarlik ko'rgan, ma'naviy yetuk va umuman shaxs sifatida har tomonlama barkamol, butun xayoti davomida o'z bilim va malakalarini chuqurlashtirib, kengaytirish ustida tinmay ishlashga qodir raqobatbardosh, shu bilan birga kompetentli mutaxassislarni tayyorlashdir. Ular mamlakat uchun eng yaxshi kadr va namunali fuqaroga aylanib mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun katta hissa qo'shadilar. Maktablarda bilim olayotgan o'smirlarining xulq-atvorining shakllanishi nafaqat ta'lim muassasalarining, shu bilan birgalikda butun bir jamiyatning ham muammosiga aylanishi lozim.

Xulq-atvor shaxs shakllanishining ajralmas qismi bo'lganligi sababli ham bu muammo hozirgi kungacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

O'smirlar xulq-atvorining shakllanishiga ko'plab psixologik va pedagogik omillar ta'sir qiladi: moliyaviy holat; salomatligidagi muammolar; yoshi; oilaviy ahvoli; tayyorgarlik darajasi; o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi (birinchi navbatda ta'lim); o'quv motivlari, ta'limining o'ziga xos xususiyatlari haqida dastlabki tushunchalarning yetarililigi; o'qitish shakli; va nihoyat o'smirning individual psixologik xususiyatlari.

O'smirlik davri (11–15 yosh) psixologiyada tranzitiv, ya'ni o'tish davri sifatida tavsiflanadi. Ushbu bosqichda o'smirlarning:

- o'z-o'zini anglash darajasi ortadi;
- o'z shaxsiy fazilatlarini baholash jarayoni faollashadi;
- emotsional o'zgaruvchanlik kuchayadi;
- mustaqillik va avtonomiya ehtiyoji yuzaga keladi;
- ideal shaxs namunalari intilish kuchayadi;
- jamiyatdagi o'rni to'g'risida tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Xulq-atvor ana shu psixologik o'zgarishlarning tashqi ko'rinishidir va u o'smirning ichki dunyosi, qadriyatlari, ehtiyojlari hamda ijtimoiy tajribasiga bevosita bog'liq.

O'smir xulq-atvorining shakllanishi ko'p omilli jarayondir. Uni ikkita asosiy guruhga ajratish mumkin: ichki omillar va tashqi omillar.

Ichki omillar bular psixofiziologik o'zgarishlar, yani o'smirlik davrida gormonal o'zgarishlar kuchayadi, buning natijasida emotsional beqarorlik, impulsivlik, keskin qarorlar qabul qilish holatlari kuzatiladi. Keyingisi motivatsiya va ehtiyojlar. Bunda o'smirlar e'tirofga, mustaqillikka, tengdoshlari orasida mavqega intiladilar. Bu ehtiyojlar xulq-atvorning

shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kognitiv rivojlanish esa mantiqiy fikrlash, abstrakt tafakkur va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatining shakllanishi xulq-atvorning ongli jihatdan boshqarilishiga yordam beradi.

Tashqi omillar oila muhiti, bu ota-onalarning nazorati, tarbiya uslubining demokratik yoki avtoritarligi, oiladagi emotsional muhit o'smir xulqiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasasi - o'qituvchi bilan munosabatlar, sinf jamoasining psixologik muhitining sog'lomligi xulq-atvorning shakllanishida muhim omillardir. Jamiyat va ijtimoiy ustanovkalar. O'smirlar o'zini jamiyatdagi qadriyatlar, me'yorlar, ideal namunalar bilan solishtirib boradilar. Bugungi kunda media o'smir shaxsiga ta'sir qiluvchi eng kuchli tashqi omillardan biridir. O'zbekistonda ham global tendensiyalar singari o'smirlarning internetdan foydalanish ko'rsatkichlari keskin oshgan. Shuning natijasida media iste'moli o'smir xulq-atvori, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida muhim rol o'ynamoqda.

Media ta'sirining psixologik mexanizmlariga kognitiv filterlar, ijtimoiy taqqoslash mexanizmlari, identifikatsiya jarayoni va emotsional ta'sir mexanizmlari kiradi. Bunda kognitiv filterlar, bu o'smir axborotni o'zining mavjud bilimlari, stereotiplari, tasavvurlari va qadriyatlaridan kelib chiqib qabul qiladi. Shaxs ongida "filtr" shakllanadi:

- mos keladigan ma'lumotni qabul qiladi;
- mos kelmaydigan ma'lumotni buzib qabul qiladi;
- zid ma'lumotni rad etadi.

Ijtimoiy taqqoslash mexanizmida esa, o'smir ijtimoiy tarmoqlardagi idealizatsiya qilingan obrazlar o'smirda o'zini past baholash, tashqi ko'rinishga haddan tashqari e'tibor, psixologik beqarorlik kabi holatlarga olib kelishi mumkin.

Identifikatsiyajarayoni bugungi kunda o'smirlarning bloggerlar, mashhur shaxslar yoki virtual obrazlarni ideal namuna sifatida qabul qilib, ularga taqlid qilishga moyil bo'lishlari misol bo'la oladi. Emotsional ta'sir mexanizmi, bunda tezkor kontent (short video), agressiv o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar o'smirda impulsivlikni kuchaytirishi, diqqatning pasayishiga olib kelishi holatlarini aytish mumkin.

Media orqali shakllanadigan xulq-atvor modellar

- virtual kommunikatsiya orqali muloqot qilish;
- konfliktlarga keskin reaksiya;
- o'z hayotini boshqalar bilan solishtirish;
- o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi;
- internetga qaramlik shakllari.

O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2025-yil oxiriga kelib 33,1 million kishiga yetib, aholi umumiy sonining 89 foizini tashkil etishi kutilmoqda. Digital 2026: Uzbekistan hisobotiga ko'ra, mamlakatda internet tezligi sezilarli darajada oshgan: mobil internet tezligi yil davomida 53,4 foizga, statsionar internet tezligi esa 25 foizga o'sgan. Ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha 2025-yil oxirida 14,1 million faol foydalanuvchi qayd etilgan bo'lib, bu aholining 37,9 foiziga teng. Bu sohada o'sish yil davomida 4,2 million (+41,7%) tashkil etdi. DataReportal ma'lumotlariga ko'ra, Instagram eng ommabop platforma bo'lib, uning auditoriyasi 14,1 million kishidan iborat. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlar faqat reklama qamroviga asoslanib berilgan va real foydalanuvchilar sonini aks ettirmasligi mumkin. BMT hisob-kitoblariga ko'ra, 2025-yil oktabr holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisining umumiy soni 37,2 million kishini tashkil etadi. Ularning yarmidan ko'pi 27 yoshdan kichik bo'lib,

aholining yarmi shaharlarda yashaydi. Bu ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 53 va 25 foizga oshgan. Hisobot mualliflari 2025-yil oktabridagi ma'lumotlar O'zbekistondagi raqamli rivojlanish va foydalanuvchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlarni aks ettirayotganini ta'kidlamogda.

Shu sababli o'smirlarda axborot iste'moli madaniyatini, media savodxonligi, tanqidiy fikrlash va emotsional boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish psixologik tarbiyaning ajralmas qismiga aylanishi zarur. Axborot iste'moli madaniyati o'smirlarga axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash va foydali maqsadlarda qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, u shaxsni media manipulyatsiyalardan, yolg'on va zararli kontentdan himoya qiladi. Bu madaniyat psixologik jihatdan: emotsional barqarorlikni ta'minlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, media va axborotga qaramlikni kamaytirish, axborot oqimi oldida ongli qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Jamiyatning raqamli tus olishi, internet va media maydonining kengayishi axborot iste'moli madaniyatining dolzarbligini yanada oshiradi. Ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar hayotida nafaqat muloqot vositasi, balki identifikatsiya va o'zini namoyon etish makoniga aylanmogda. Shu sababli o'smirlar media savodxonligi, axborotni tahlil qilish va filtdan o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi shart.

Axborot iste'moli madaniyati shakllanishida ota-ona, maktab va jamiyatning roli katta. Ota-ona farzandga ishonchli manbalarni ko'rsatishi, media iste'molida nazorat o'rnatishi, maktab esa media savodxonligi darslari va axborot bilan ishlash topshiriqlarini taqdim etishi lozim. Shu orqali o'smirning axborotga nisbatan ongli munosabati rivojlantiriladi.

"Iste'molchi" ning axborot bilan aloqasi paytida ishlaydigan mexanizmlarning eng muhimi - bu idrok qilish munosabati. Bu odamlar ongining asosiy tarkibiy qismlariga (birinchi navbatda, ularning dunyoqarashi, shuningdek, ijtimoiy tasavvur) qarab, ma'lum bir tarzda, o'z pozitsiyasiga, taklif qilingan ma'lumotlarga mos keladigan munosabatda bo'lishga tayyorlik va moyillikdir. Shu sababli, iste'molchining ongi va xatti-harakatiga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan kishi undagi fundamental xarakterga ega tushunchalar, qadryarlar, ruhiy holati bilan bog'liq vaziyatlarni o'rganish orqali xarakat qiladi. Axborotni idrok etish va qayta ishlash inson tomonidan uning ongida mavjud bo'lgan bilimlar, qadriyatlar, me'yorlar asosida, uning umumiy va maxsus qobiliyatlari darajasida amalga oshirilishi odatda e'tirof etiladi. Umuman olganda, ma'lumotni idrok etuvchi va qayta ishlovchi shaxsning ongi ba'zi xabarlarini to'liq o'tkazishga imkon beradigan, ba'zilarini buzib talqin qiladigan va boshqalarni butunlay rad etadigan o'ziga xos filtr sifatida tasavvur qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iste'molchi ongi uch jihatning birligi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin: bu o'quvchi yashayotgan va harakat qiladigan ijtimoiy kontekstda shakllangan ijtimoiy tasavvurlar va dunyoqarash; ijtimoiy-madaniy qonuniyatlar majmui, ya'ni uning qadriyat tushunchalari (g'oyaviy, axloqiy, estetik va boshqa qadriyatlar) shaxs ega bo'lgan bilimlar majmui, uning yordamida u atrofida sodir bo'layotgan hamma narsani tushuntiradi.

Bugungi kunda internetda feyk xabarlar, zo'ravon kontent, ekstremistik materiallar va zararli reklama tez tarqalmoqda. O'smirlar bu axborotlarning eng zaif auditoriyasi hisoblanadi. Shu sababli axborot iste'moli madaniyati ularni himoya qiladi. Raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar dopamin sikllari orqali o'smirlarni o'ziga qaram qiladi. Bu esa diqqatni jamlash, akademik motivatsiya va emotsional barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Media

gigiyenasi va axborotni ongli iste'mol qilish ko'nikmalari o'smirlar uchun zarur. O'smirlar axborot oqimida mustaqil tahlil qila olishlari, fakt va fikrni farqlay olishlari lozim. Bu esa tanqidiy fikrlashni va ongli axborot iste'molini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

O'smirlik davri shaxsning psixologik rivojlanishida murakkab va mas'uliyatli bosqich bo'lib, xulq-atvorning shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ichki omillar — temperament, emotsional rivojlanish, motivatsiya; tashqi omillar — oila, ta'lim muassasasi, jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari bilan bir qatorda, zamonaviy media vositalari ham o'smir xulq-atvorining shakllanishida alohida o'rin tutadi. Media ta'siri kognitiv, emotsional va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Shu sababli axborot iste'moli jarayonida o'smirlarning psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish, media savodxonligini oshirish, o'qituvchi va ota-onalar tomonidan uzluksiz psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Ochiq axborot almashinuvi vaziyatida yoshlarning o'z-o'zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish lozim: Birinchidan, har bir o'smir yoshlarimiz mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish muhim. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. Ikkinchidan, yoshlarimiz turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda oila va maktab davrasida milliy g'ururni tinmay tarbiyalashimiz, qadriyatlarni singdirishimiz va bunda fanlararo aloqadorlik hamda tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. Chunki inson qalbi bilan bog'liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan "kompas" rolini o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2015.
2. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
3. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2016.
4. Livingstone S. Children and the Internet. — Polity Press, 2014.
5. Kholmuminov L. O'smir psixologiyasi va ijtimoiy rivojlanish. — Toshkent, 2020.
6. O'zbekistonda internet foydalanuvchilari statistikasi. Zamin.uz

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Allakov Ilhom Okmurodovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Manzil: O'zbekistin, Buxoro shahri



OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 11-son (2025-yil, noyabr) Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan	Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor- o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy- metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Original maket uchun mas’ul: Mirshod SATTOROV Maqolalarni qabul qiluvchi: Ziyodullo ELOV	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 29.11.2024 Tezkor bosma usulda bosildi. Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 11 Bahosi kelishilgan narxda. “BUXORO DETERMINANTI” MCHJ bosmaxonasida chop etiladi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24- uy.
---	--	---

**Eslatma: Jurnal “OSIYO XALQARO UNIVERSITETI” MCHJ va
“BUXORO DETERMINANTI”**

MCHJ Kamolot nashriyoti tasarrufidadir.

Jurnaldan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi!

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIIYASI
АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ KOMMUNIKATSIYALAR АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 250649

"BUXORO DETERMINANTI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги
гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669527

СТИР (СОЛЎҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
309343334

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
04.04.2024-дан - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри, Намозгоҳ, дом 24

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги

04.04.2024 14:09
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувоҳнома № 250649

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚўШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
OSYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI	O'zbek, rus, ingliz, turk tillari	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ХУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш хуудди ва шакли	Худуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Онлайн



Журнал O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TATLIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI HUZURIDAGI
OLIV ATTESTATSIIYA
KOMISSIYASI

10047, Toshkent sh. Y. G'ulomov ko'chasi, 70
Tel: (71) 233-38-83, Fax: (71) 233-86-47
E-mail: info@oak.uz, https://oak.uz

SUPREME ATTESTATION
COMMISSION
AT THE MINISTRY OF HIGHER
EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

70, Y. G'ulomov str., Toshkent, 10047
Tel: (71) 233-38-83, Fax: (71) 233-86-47
E-mail: info@oak.uz, https://oak.uz

№ 25/2024-28-08-2024-y.

Осиё халқаро университетига

Олий аттестация комиссияси Осиё халқаро университетининг
мурожаати (08.08.2024 й., №01-563) кўра ОАК Раёсатининг 2024 йил 28
августдаги 360/5-сон қарорига мувофиқ педагогика ва психология фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига
таълибдорларнинг диссертация ишлари юзасидан диссертациялари асосий
илмий натижаларини chop etish tavsiya etilgan илмий наслрлар
руйхатига "Осиё халқаро университети ахборотномаси" илмий-назарий ва
методик журнали (<http://scientificjournal.uz>) кiritilganligini маълум қилади.

Изох: Педагогик технологиялар ва психологик тадқиқотлар (23.08.2024 й., №8)
бўйича Эксперт кенгаши тавсияси; ОАК Тартиб-қоида комиссияси қарори (27.08.2024 й.,
№8/23); ОАК Раёсатининг қарори (28.08.2024 й., №360/5).

Бош илмий котиб

А.А.Шермухамедов

Нарзиб: Т.Ш.Мамитмухамедов

Журнал O'zbekiston
Respublikasi OAK Rayosatining
2024-yil 28-avgustdagi 360-son
qaroriga asosan pedagogika,
psixologiya, fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
ilmiy darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



<https://scientificjournal.uz/>



ISSN

ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p

2025, № 11